12. Чаршемов Ж. БАЛЕТДА ЖЖ НОВЕР РЕФОРМАТОРИГИ //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – Т. 33. – №. 2. – С. 20-25.
13. Charshemov J. XVI-XVII ASRLARDA BALETNING YEVROPADA KLASSIK RAQS TURI SIFATIDA RIVOJLANISHI //Вестник музыки и искусства. – 2024. – Т. 1. – №. 3. – С. 22-27.
14. Charshemov J., Muratbaeva R. JAÑA RUXTAGÍ XALIQ QOSIQLARI //Вестник музыки и искусства. – 2024. – Т. 1. – №. 3. – С. 16-21.
15. Charshemov J., Orazalieva G. BAROKKO DÁWIRINIŃ GARMONIYASÍ //Вестник музыки и искусства. – 2024. – Т. 1. – №. 3. – С. 49-53.



## AYOLLAR KO'YLAKLARI TASNIFI, MODEL TANLASH VA ULARNI ASOSLASH

*O'rinovalatifaxon*

*Farg'ona viloyati Oltiariq tumani 2-son kasb – hunar maktabi  
Ishlab chiqarish ta'lif ustasi*

**Annotatsiya:** Tanlangan model katta yoshli ayollarni plankali yozgi ko'ylagini eskiz modelni tayyorlash, loyihalash vazifalari bo'yicha ishlab chiqishga tavsiya etishdan iborat. Ayollar kiyimlari assortimentiga: ko'yak, ko'yak-xalat, ko'yak-palto, ko'yak-kostyum, sarafan, tunika, bluzka, bluzka-jenfer, bluzka-bantik, jilet, jaket, ko'yak kombinzon, kombinezon, shimli kostyum, shim, yubka, yubka shimplar kiradi.

**Kalit so'z:** Ayollar ko'yagli, modellar, ayllar ko'yagli uchun qo'yiladigan talablar, model tasnifi, ayollar plankali ko'ykagi.

**Annotation:** the chosen model consists in recommending adult women to develop a Planck summer jacket on the tasks of making a sketchy model, designing. The assortment of women's clothing includes: shirt, shirt-robe, shirt-coat, shirt-suit, sundress, tunic, blouse, blouse-jenfer, blouse-bantic, vest, jacket, shirt overalls, overalls, trouser suit, trousers, skirt, skirt pants.

**Keyword:** requirements for women's jackets, models, women's jackets, model classification, women's Planck jackets.

Ko'yaklar kiyilishiga qarab yelkali kiyimlar turiga kiradi. Ular yaxlit, bel qismidan, bo'ksa va ko'krak qismlaridan qirqma bo'lishi yengli yoki yengsiz, yoqali yoki yoqasiz holatda uchrashi mumkin. Ko'yak kashtalar, burmalar, to'rlar, tugmalar, tasmalar, taxlamalar va boshqa xil bezaklar bilan bezatishi mumkin. Ularni turli xil: ip tolali, shoyi, jun, zig'ir tolali hamda sun'iy va sintetik tolali gazlamalardan tikish mumkin. Ko'yaklarga gazlama tanlashda kiyimning nimaga mo'ljallanganligiga hamda faslga qarab e'tibor berish kerak, ya'ni kiyimni uylik, kundalik, bashang kiyim ekanligini unutilmaslik lozim.

Qish oylarida esa yumshoq zinch to'qilgan jun tolali sidirg'a yoki katak yo'lli, mayda gulli gazlamalardan turli hil fasonlarda uzun yengli yoqali yoki, bo'yin o'yindisi yopiq qilip yoqasiz tikish mumkin.

Bashang kiyimlar chiroyli zarli, guli yoki sidirg'a gazlamalardan tayyorlanishi mumkin. Bunday kiyimlar juda murakkab fasonlarda bo'lishi hamda ularga chiroyli



bezaklar: kashtalar, burmalar, mayda taxlamalar, sun'iy gullar, belbog'lar ishlatisi tikish mumkin. Ko'ylik fasonlarini tanlashda gazlamalarning xususiyatlariga, odam gavdasining tuzilishiga hamda kiyimning vazifasiga qaraladi.

Kiyim detallarining shakli va o'lchamlariga ta'sir etuvchi asosiy ommillardan biri uning bichimi hisoblanadi. Bichim kiyimning konstruktiv va umumiyligini tuzilishini xarakterlaydi. Kiyim bichimi uning yengini asosiy detallari bilan ulagan o'miz shakli va bu detallada mavjud bo'ylama va ko'ndalang chiziqlari bilan aniqlanadi. Demak bichimi turli shaklda bichilgan va ulangan detallar yordamida tuzilgan kiyimning umumiyligini ko'rinishidir.

Yenglarning kiyimning asosiy detallari ort va oldi bo'laklar bilan ulanish turlari va siluetli shakli bo'yicha bir-biridan jiddiy farqlanadigan o'tqazma, reglan va yaxlit bichilgan asosiy bichimlarga ajrotish mumkin. Lekin reglan va yaxlit bichilgan yenglar o'tqazma yengdan xosil bo'lgan. O'tqazma yeng, o'z navbatida, shakli va bichimi bo'yicha oddiy va chuqurlashtirilgan o'mizga mos yenglarga ajratiladi.

Yenglarga oid asosiy bichimlarning to'g'ri birikmalari qo'shimcha ravishda xosil bo'lgan yangi kombinatsiyalashtirilgan bichimlar xilini tashkil etadi.

Masalan; ort bo'lak yaxlit bichilgan yengli, old bo'lak esa o'tqazma yengli va x.k. o'tqazma yengni asosiy detallar bilan biriktirma choki qo'l tana bilan birlashgan chiziqqa yaqinlashib o'tadi. Reglan bichimdagi buyumlarning o'ziga xos yoqa o'mizidan boshlanadigan yeng o'mizidir. Shu sababli reglan yeng tikuv buyumining yuqori qismi bilan birga bichiladi. Old va ort bo'laklarda yeng o'mizi yelka chizig'ining istalgan nuqtasidan boshlansa yarim reglan bichimi hosil bo'ladi.

Yengi yaxlit bichilgan buyumlarda yeng ort va old bo'laklar bilan birga mo'ljallangan o'miz chizig'i bo'yicha choksiz yaxlit bichiladi.

Buyum yana asosiy detallarda bo'ylama va ko'ndalang o'tadigan choklar mavjudligi bilan xarakterlanadi. Tikuv buyumlar bo'ylama choklar soniga qarab quydagicha farqlanishi mumkin: choksiz-taqilma old bo'lakda; bir chokli-orqa bo'lak o'rta chokli, old bo'lak esa taqilmali; ikki chokli-buyum ikkita yon chokka ega; uch chokli-ikkita yon chok orqa o'rta chokli; besh chokli-ikki yon chok, orqa o'rta chokli; olti chokli-ikki yon chok, orqa va oid bo'laklarda ikkitadan chok. Turli bichimdagi yenglar ham qator bo'laklardan tuzilishi mumkin; bir chokli-ostki yoki tirsak chokiga ega; ikki chokli-old va tirsak chokli yoki ustki va ostki chokli; uch chokli-old, tirsak va ustki chokli.



## 1. Asosiy model

Tanlangan model katta yoshli ayollar plankali yozgi ko'ylagi bo'lib bu modelni tikish uchun maxalliy gazlamalardan tikish tavsiya etiladi.

Tanlangan eskiz model maxalliy gazlamadan ya'ni ip gazlamadan yoki paxta tolali gazlamadan tayyorlanadi.

Bu model yozgi mavsumga mo'ljallangan bo'lib, yengi o'rtacha uzunlikda, uning yeng uchi manjet bilan bezatilgan, oldi aylana koketkali bo'lib, qaychi yoqa va tugamalar ishtirok etgan. Etagi esa pastga tomon kengaygan trapetsiyasimon qilib tayyorlangan.

Bu modelga qo'yiladigan talablar quyidagicha:

Iste'molchi talablari insonning o'z ehtiyojini qondirishga qaratilgandir. Ular ijtimoiy, estetik, ergonomik va ekspluatatsion talablarni o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy talablar - kiyimning aholi ehtiyojlariga mosligini, uni ishlab chiqarish va sotish zaruriyatini belgilaydi.

Funksional talablar - kiyimning asosiy funksiyasiga mosligini, iste'molchining psixologik xususiyatlari va tashqi qiyofasiga mosligini harakterlaydi.

Estetik talablar – kiyim sifatini baholashda muhim o'rinn tutadi va kiyim ko'rinishining bezatilishi, kompozitsion echimini harakterlaydi.

Ergonomik talablar – kiyimni kiyish mobaynida uning insonga qulay sharoit tug'dirish xususiyatlarini belgilaydi.

Eksplutatsion talablar – kiyimdan foydalanish va kiyish mobaynida uning tashqi ko'rinishining o'zgarmasligi, tez eskirmasligi va ma'lum muddatda xizmat qilish qobiliyatini belgilaydi

Texnik iqisodiy talab – kiyim konstruktsiyasining texnik jixatdan takomillashganligi uning loyihalash va texnik usullari kiyimni ishlab chiqarishga ketgan sarf xarajatlarni xarakterlaydi.



## 2. Model



Tanlangan ikkinchi model katta yoshli ayollar plankali yozgi ko'y lagi bo'lib u yozgi mavsumga mo'ljallangan bo'lib u asosiy to'rtta bo'lakdan iborat ya'ni old orqa yeng va yoqadan tashkil topgan, uning yengi kalta, yeng uchi esa bezak chok bilan bezatilgan, old qismida tugmali taqilma hamda yoqa mavjud, uni etgi trapetsiyasimon kengaytirilgan qilib tayyorlangan

## 3. Model

Tanlangan uchinchi modelimiz ham katta yoshli ayollar plankali yozgi ko'y lagi bu ko'y lak beshta bo'lakdan tashkil topgan bo'lib bular old, orqa bo'lalaklar, koketka, yeng va yoqadan iborat. Modelning koketkasi va yoqa qismilari uchburchak shaklida tanlab olingan, yeng qismi tirsakdan pastgacha tushgan, ko'y lak etagi esa pastga tomon kengaytirilgan ya'ni trapetsiyasimon shaklida tayyorlangan. Old asosiy bo'lak uch qismga bo'linib modellashtirilgan.

Ushbu modellar katta yoshli ayollarni yozgi liboslar garderooblari uchun tafsiya qilinadi.



## Foydalanimadigan adabiyotlar

1. M.Sh.Jabborova. "Tikuvchilik texnologiyasi" T., O'zbekiston, 1994 yil
2. Комилова X.X., Хамраева Н.К "Тикув буюмларини конструкциялаш" Тошкент 2011 й
3. Мальцева "Тикувчилик материалшунослиги" 1986 yil
4. Hasanbayeva G.K, Shomansurova M.Sh. "Kompozitsiya asoslari". T.: 2009 yil.
5. M.Sh.Jabborova. "Tikuvchilik texnologiyasi". Toshkent. O'zbekiston. 1994
6. X.X.Samarxodjaev . "Tikuv korxonalar uskunalar". T., O'qituvchi, 2001 yil.
7. I.N. Litvinova, Ya.A.Shaxova. "Ayollar ust kiyimini tikish". Toshkent. «O'zbekiston» 1997 y.
8. M.Sh.Jabborova. "Tikuvchilik texnologiyasi". Toshkent. O'qituvchi. 1989 y.



## EUKARIOT HUJAYRALARI TARKIBIY QISMI, ULARNING BIR BIRIDAN FARQI VA O'XSHASHLIKHLARI

**Davronova Marfuza A'zamjonovna**

*Farg'onan viloyati Oltiariq tumani*

*2-son kasb – hunar maktabi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Eukariot hujayralar hujayralarning asosiy strukturaviy va funktsional birliklaridir. Bunday hujayralar yadroni o'z ichiga oladi. Odatda kattaroq va murakkabroq organizmlarda uchraydi. O'simlik va hayvonlar hujayralarining bir biridan farqlari hamda o'xhashlik tomonliklari mavjud.

**Kalit so'zlar:** Eukariot hujayralar, prokariot hujayralar, hujayralarning o'xhashlik hamda kamchiliklari, eukariot hujayralarining paydo bo'lishi.

**Annotation:** eukaryotic cells are the main structural and functional units of cells. Such cells contain the nucleus. It is usually found in larger and more complex organisms. There are differences between plant and animal cells as well as similarity facets.

**Keywords:** eukaryotic cells, prokaryotic cells, similarities and disadvantages of cells, the emergence of eukaryotic cells.

Eukariot hujayralar 1,5 mlrd. yil oldin, prokariot hujayra paydo bo'lgandan keyin 2 mlrd. yil o'tib, ko'p hujayrali organizmlar paydo bo'l shidan 1 mlrd. yil oldin paydo bo'lgan. Kichik prokariot hujayralarda ichki membranalar bo'limgan, faqat sianobakteriyalarning fotosintezlovchi membranalari va ichki tomonga buralib turgan hamda DNK molekalasi birikib turadigan membrana burmalari- mezasoma mavjud bo'lgan. Eukariot hujayralar prokariot hujayradan o'n marta kattaroqdir va shu sababli ularning hayot faoliyati samarali amalga oshishi uchun boshqacha, ancha yuqori darajadagi tuzilish talab qilingan. Bunday yuqori tuzilish darajasiga organoidlar va sitoskeletning hosil bo'lishi orqali erishilgan.

**Eukariotlar (yunoncha):** eu yaxshi, haqiqiy, butun va karion — yadro) — to'liq shakllangan, haqiqiy yadroga ega bo'lgan hujayrali organizmlar. Eukariotlarga suvo'tlar, yuksak o'simliklar, barcha hayvonlar, zamburug'lar kiradi. Eukariotlar DNK si yadrodagи xromosomalarda joylashgan bo'lib, gistonli oqsillar bilan birikkan nukleosomalarni hosil qilishda ishtirok etadi. Eukariotlarning hujayralarida membranalı organoiddar yaxshi rivojlangan; ayrim organoidlari (mitochondriyalar va xloroplastlar) da DNK va avtonom oqsil



sintezlovchi apparat mavjud. Turli-tuman organizmlarning eukariot hujayralari ozining tuzilishi jihatidan murakkabligiga xilma-xilligi bilan ajralib turadi.

### **Prokariot va eukariot hujayralarni solishtiramiz**

Eukariot hujayralarning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat? Prokariot hujayralardan farqli o‘laroq, eukariot hujayralar quyidagi qismlardan tarkib topgan:

1. Membrana bilan o‘ralgan, hujayraning genetik axborotini o‘zida saqlovchi yadro.

2. Sitozolda suzib yuruvchi, muayyan vazifalarni amalga oshirishga muvofiqlashtirilgan, membrana bilan qoplangan bir nechta organellalar. (Organella so‘zi “kichik organ” ma’nosini anglatadi, ya’ni bizning tanamizdagi organlar kabi organellalar ham aniq bir vazifani bajaradi.)

3. Prokariot hujayradagi bitta halqasimon xromosomadan farq qiluvchi ko‘p sonli chiziqli xromosomalar.

Eukariot hujayralar prokariot hujayralarga qaraganda ancha murakkab tuzilgan. Ular energiya muvozanatida, metabolizmda va genlarni ifoda etishda muhim rol o‘ynaydigan hujayra qismlaridan tashkil topgan.

Odamlar, hayvonlar, o’simliklar, zamburug’lar kabi ko’plab organizmlar eukariot hujayralarga ega.

Eukariotik hujayralarning asosiy tarkibiy qismlari:

1. **Yadro:** Eukariot hujayralarning yadrolari DNK joylashgan va hujayraning genetik materiali boshqariladigan strukturadir.

2. **Sitoplazma:** Hujayraning suyuq qismi bo’lgan sitoplazma turli organoidlar va hujayra ichidagi tuzilmalar joylashgan muhitdir.

3. **Organellalar:** Eukariot hujayralarda turli organellalar mavjud. Bularga mitoxondriya, endoplazmatik to’r, golji apparati, lizosoma, peroksizoma va xloroplast kabi tuzilmalar kiradi. Har bir organoid o’ziga xos funktsiyaga ega va hujayraning hayotiy jarayonlarini qo’llab-quvvatlaydi.

4. **Hujayra membranasi:** Eukaryotik hujayralar ularni o’rab turgan hujayra membranasiga ega. Bu membrana hujayra ichidagi tuzilmalarni himoya qilish bilan birga, hujayraning ichki va tashqi qismlari o’rtasidagi moddalar almashinuvini tartibga soladi.

5. **Endomembran tizimi:** endoplazmatik to’r, golji apparati va lizosoma kabi organellalar eukariot hujayralardagi ichki membranalar tizimining bir qismidir. Ushbu tizim oqsil sintezi, moddalarni tashish va hujayra ichidagi aloqa kabi funktsiyalarni bajaradi.




6. **Hujayra skeleti:** U mikronaychalar, aktin filamentlari va oraliq filamentlar kabi tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, hujayra shaklini saqlaydi, hujayra harakatini ta'minlaydi va organellalarning joylashishini tartibga soladi.

Eukaryotik hujayralar murakkabroq organizmlarning qurilish bloklarini tashkil qiladi va hayotiy funktsiyalarni bajaradi. Hujayralar energiya ishlab chiqarish, oqsil sintezi, hujayra bo'linishi va hujayra signalini uzatish kabi asosiy jarayonlarni bajarishda muhim rol o'ynaydi.

Hayvonlar va o'simliklar hujayralarining o'xshashlik va faqrlari

Hayvon va o'simlik hujayralari o'rtasida juda ko'p o'xshashlik va farqlar mavjud. Bu hujayralar o'rtasidagi asosiy o'xshashlik va farqlar:



### O'xshashliklar:

1. **Hujayra membranasi:** Hayvon va o'simlik hujayralarida hujayra membranasi deb ataladigan nozik bir lipid qatlami mavjud. Hujayra membranasi hujayraning ichki va tashqi qismlari o'rtasidagi moddalar almashinuvini tartibga soladi.

2. **Sitoplazma:** Hayvon va o'simlik hujayralarida sitoplazma mavjud bo'lib, u hujayra membranasi ichidagi gelga o'xshash suyuqlik qismidir. Sitoplazma organoidlar joylashgan muhitni ta'minlaydi.

3. **Yadro:** Hayvon va o'simlik hujayralarida DNK joylashgan va hujayraning genetik materiali boshqariladigan yadro mavjud. Yadro hujayraning o'sishi, rivojlanishi va funktsiyalarida muhim rol o'ynaydi.

4. **Mitoxondriya:** Hayvon va o'simlik hujayralarida energiya ishlab chiqarish uchun muhim bo'lgan mitoxondriyalar mavjud.



### Farqlar:

1. Hujayra devori: O'simlik hujayralari sellyuloza deb ataladigan moddadan tashkil topgan qattiq hujayra devoriga ega. Hayvon hujayralari hujayra devoriga ega emas.

2. Xloroplastlar: Faqat o'simlik hujayralarda fotosintez deb ataladigan jarayon orqali quyosh energiyasidan foydalangan holda oziq ishlab chiqaradi. Hayvon hujayralarda xloroplastlar mavjud emas.

3. Kichik suv pufakchalar: O'simlik hujayralarda suv va boshqa molekulalarni saqlash uchun hujayra ichida kichik suv pufakchalar yoki vakuolalar mavjud. Hayvon hujayralarda vakuolalar yo'q.

4. Organellalarning joylashishi: O'simlik hujayralari odatda markaziy vakuola va uning atrofidagi xloroplastlar va boshqa organellalar bilan tavsiflanadi. Hayvon hujayralarda esa tartibsizroq organoidlar mavjud.

### Foydalilanidigan adabiyotlar

1. Eukaryotic cells. (2014). In *Scitable*. Accessed July 21, 2016. <http://www.nature.com/scitable/topicpage/eukaryotic-cells-14023963>.
2. Raven, P. H., Johnson, G. B., Mason, K. A., Losos, J. B., and Singer, S. R. (2014). Cell structure. In *Biology* (10th ed., AP ed., pp. 59-87). New York, NY: McGraw-Hill.
3. Reece, J. B., Urry, L. A., Cain, M. L., Wasserman, S. A., Minorsky, P. V., and Jackson, R. B. (2011). A tour of the cell. In *Campbell Biology* (10th ed., pp. 92-123). San Francisco, CA: Pearson.
4. To'raqulov Y.X. Bioximiya, -T.: 0 'zbekiston, 1996. 2. Valixanov M.N. Biokirayo. -T.: Universitet, 2008.
5. Колман Я., Рём К.Г. Наглядная биохимия. -М.: Мир, 2000



## EKIN EKISH MASHINALARINI AGREGATINI TUZISH VA TEKNIK XIZMAT KO'RSATISHDA BAJARILADIAGN ISHLAR TARTIBI

*Mirazayev Abdusadriddin*

*Farg'onan viloyati Oltiariq tumani 2-sontasb – hunar maktabi*

*Ishlab chiqarish ta'lim ustasi*

**Annotatsiya;** Ekin ekish mashinalarini agregatini tuzish tartibi , to'g'ri tuzilgan agregat tartibi, agregat tuzishning asosiy turi va har smenadan keyin texnik xizmat ko'rsatishda bajariladigan ishlar me'zonlari bayon qilingan.

**Annotation;** the procedure for compiling the aggregate of planting machines , the correct aggregate procedure, the main type of aggregate formation and the norms of work performed in the indication of technical service after each shift are described.

**Kalit so'z;** Ekin ekish mashinalari, agregat tuzish, to'g'ri tuzilgan agregat tartibi, agregat tuzish turlari, texnik xizmat ko'rsatish, ekish mashinalari agregat.

**Keyword;** crop planters, aggregate structuring, properly structured aggregate layout, aggregate structuring types, maintenance, sowing machine aggregate.

Agregatlarni tuzish – bu aniq sharoitda agrotexnika talablariga muvofiq ishlarning yuqori sifatda bajarilishini, mashinalardan unumli foydalanishni, eng yuqori ish unumi va tejamkorlikni ta'minlaydigan agregatlarni tanlashdan iborat.

Mehanik va elektr energiyasi manbai bilan jihozlangan qishloq xo'jalik agregatiga ekin ekish mashina agregati deb aytildi. Shuning uchun qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini to'liq mexanizatsiyalashtirishda etishtiriladigan ekin turlari, dehqonchilik usullari (sug'oriladigan yoki lalmi), ekin maydonlarining o'lchamlari (yuzasi, uzunligi), tuproq (qumloq, soz, toshli) va iqlim sharoitiga mos keladigan traktorlar va qishloq xo'jaligi mashinalarini ishlatish hamda ulardan samarali foydalanishni tashkil etish talab etiladi

Dvigatel quvvatidan to'liq foydalanmaslik aggregatning foydalanish ko'rsatgichlarini pasayishiga, binobarin, berilgan hajmdagi ishlarni belgilangan agrotexnika muddatlarida bajarish uchun bo'lган ehtiyojning (talab etiladigan aggregatlar sonini) oshishiga sabab bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida xo'jalikning aggregatlardan foydalanish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Qishloq xo'jalik agregati quyidagi tartibda tuziladi:

- texnologik ishning sharoitlari va agrotexnika talablari aniqlanadi;
- qishloq xo'jaligi mashinasi va traktorning rusumi tanlanadi;



- texnologik ishni bajarish uchun yo'l qo'yiladigan tezliklar chegarasiga mos holda agregat tezligi tanlanadi va unga ko'ra traktorning ish uzatmasi aniqlanadi;

- agregat amalda tuziladi, ya'ni qishloq xo'jaligi mashinasi traktorga tirkaladi yoki o'rnatiladi, so'ngra texnologik sozlanadi (agrotexnika talablariga muvofiq ishchi qismlar o'rnatiladi va rostlanadi) hamda yo'naltiruvchi qurilmalar o'rnatiladi

To'g'ri tuzilgan agregat quyidagi:


- texnologik ishlarning agrotexnika talablariga muvofiq yuqori sifatda bajarilishini; - aniq ish sharoitlariga, ya'ni ishlov beriladigan maydonning kattaligiga, ishlov beriladigan materiallarning holatiga mos kelishini;

- dvigatel quvvatidan to'liq foydalanishni, qabul qilingan uzatmada traktorning tortish kuchidan yo'l qo'yilgan chegaralarda foydalanishni;

- ishlov beriladigan maydon va yig'ishtirib olingan mahsulot birligiga eng kam mehnat, energiya va yoqilg'i sarflanishini;

- chaqqonlik (manevr) xususiyatlarini va xizmat ko\_rsatish qulayligini;

- agregatda ishlaydigan mexanizator va yordamchi ishchilarga oid mehnat muhofazasi va tehnika havfsizligi talablariga javob berishini ta'minlash kerak. Agregatlar tuzishning ikki turi – sinash va hisoblash turlari mavjud. Birinchi turi bo'yicha agregatlar traktor va mashinalarni ishlab chiqargan zavodlar 33 ko'rsamalariga muvofiq amalda tuziladi, so'ngra dalada ishlatib ko'rildi va undan foydalanish ko'rsatgichlari aniqlanadi.



Agregatni tuzishning asosiy turi hisoblashdir. Bu turga quyidagi hisoblash usullari kiradi:

- analistik usul - bunda hisoblar formulalar orqali bajariladi.
- grafik yoki grafik-analistik usul - bunda traktor va mashinaning grafik kurinishidagi ko\_rsatgichlaridan foydalaniladiy
- elektron hisoblash mashinalari bilan hisoblash usuli - maxsus dasturlar asosida agregatning ko'rsatgichlari aniqlanadi.



Har smenadan keyin texnik xizmat ko'rsatishda bajariladigan ishlar:

- ekish mashinasini changdan, iflosliklardan va o'simlik qalodiqlaridan, tukli chigit ekuvchi va uyali apparatlardagi qoldiq tuklardan va urug' qoldiqlaridan tozalanadi;
- ekish mashinasining asosiy ishchi qismlari (yuritish valigi, soshniklar, zichlovchi g'altak, yurg'izuvchi roliklar, osma mexanizm, yuritmà zanjirlar, izardortgich) mahkamlanadi va sozlanadi;
- moylash nuqtalari ekish mashinasini ishlatish qo'llanmasida ko'rsatilgan jadvalga asosan moylanadi;
- ishlash paytida osma mexanizm va zanjirli uzatma tarangligi tekshiriladi;
- soshniklar ishlashi va holati, yurgizuvchi roliklar va zichlovchi g'altaklar nazorat qilinadi;
- butun agregat tashqi ko'rinishi bo'yicha nazorat qilinib, bo'shab qolgan birikmalar qotiriladi hamda g'ildiraklardagi bosim tekshiriladi;
- qismlarining yengil aylanishi ta'minlanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Igamberdiyev A.K., Aliqulov S. Traktorlar va qishloq xo'jaligi mashinalaridan foydalanish va texnik servis. T. TIQXMMI bosmaxonasi. 2020. 229 b.
2. Yo\_ldoshev Sh.U. Mashinalar ishonchliligi va ta'mirlash asoslari.T.: «O\_zbekiston», 2006. 379b.
3. Yo\_ldashev Sh.U., Xoliyarov Yo.B. va boshqalar. —Qishloq xo\_jaligi texnikalariga texnik servis xizmati ko\_rsatish, ta'mirlash va saqlash bo\_yicha tavsiyalarl. T: —O\_zdavtexnazorat! bosh inspeksiyasi, 2011.-26 b.
4. Toshboltaev M. Mashina-traktor agregatlari ish unumini oshirishning nazariy va amaliy prinsiplari. Monografiya, Toshkent, Spektrum Media Group, 2015, 88 b.
5. Toshboltaev M, Rustamov R, Kobilov M. Qishloq xo'jaligida xududiy firmaviy texnik servis sistemasi. «Fan nashriyoti» 2007 y. 146 b.



## RUL BOSHQARMASINING ASOSIY NOSOZLIKHLARI VA ULARGA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH

*Soliyev Rahmatjon*

*Farg'onan viloyati Oltiariq tumani 2-son kasb – hunar maktabi*

*Ishlab chiqarish ta'lim ustasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada avtomabillarning rul boshqarmasining asosiy nosozliklari hamda ularga texnik xizmat ko'rsatish, rul mexanizmlarini qismlarga ajratish haqida bayon etildi.

**Kalit so'z:** Avtomobil rul boshqarmasi, rulning asosiy nosozliklari, nozosliklarni bartaraf etish, rul mexanizmini qismlarga ajratish.

**Annotation:** this article describes the main malfunctions of the steering wheel of automables, as well as their maintenance, disassembly of the steering mechanisms.

**Keyword:** automatic steering control, main steering failures, elimination of irregularities, disassembly of the steering mechanism.

Rul boshqarmasining asosiy nosozliklari. Rul mexanizmi karteri, rul chambargi va kolonkasining bo'shab qolishi, mexanizm va chervyak jufti, reyka va tishli valning yeyilib ketishi asosiy nosozliklar hisoblanadi. Gidrokuchaytirgichli rul boshqarmalarida, yuqoridagi nosozliklardan tashqari, nasos idishida moyning me'yordan kam yoki ko'p bo'lishi, tizimda havo va suvning yig'ilishi, nasos ishlamay va filtrning kirlanib qolishi, moyning sizib chiqishi, nasosdagi himoya va o'tkazish klapanlari nosoz ishlashi, nasos uzatmasi tasmasining me'yor bilan tortilmasligidir.

**Rul boshqarmasiga TXK.** Rul boshqarmasiga TXK da tortqilar, sharnir va rul mexanizmi birikmalaridagi tirqishlar yo'qotiladi. Rul mexanizmidagi chervyak podshipnigining o'q bo'yicha siljishi qistirmalar yordamida sozlanadi. Rul soshkasining o'q bo'yicha siljishi esa tayanch bolt yordamida sozlanadi. Rul boshqarmasidagi mahkamlash ishlari agregat va mexanizmlarni qotirliganligini tekshirishdan iborat bo'lib, buni bajarishdan oldin rul mexanizmi karterining avtomobil ramasiga, rul tortqilari richagining burish mushtiga, soshkaga, bo'ylama va ko'ndalang rul tortqisi barmog'iga mahkamlanishi tekshirib ko'rildi.

Yuqorida aytilanidek rul chambargi erkin yurish yo'lini aniqlash uchun lyuftomer-dinamometr rul chambargiga o'rnatiladi. U shkala dan, rul kolonkasiga qisqichlar yordamida mahkam qotirligan ko'rsatkichdan tashkil topgan. Dinamometr qisqichlar yordamida rul kolonkasiga qotiriladi. Dinamometr shkalalari shtokda



ko'rsatilgan bo'lib, u rul chambaragiga qanday kuch bilan ta'sir etilayotganini ko'rsatib turadi (ta'sir etish kuchi 20-120 N bo'lishi mumkin). Shtok yordamida 10 N kuch bilan chambarak o'ng tomonga, so'ng chap tomonga harakatlantiriladi. Strelkaning o'ng va chap tomonga og'ish kattaliklarini qo'shib, umumiy erkin yurish yo'li aniqlanadi.

Erkin yurish yo'li o'rta hisobda 10° dan oshmasligi kerak. Agarda bundan ortiq bo'lsa, mexanizmdagi bo'ylama va tishlardagi ilashish tirkishlari sozlanadi.

Chervyak-rolik, vint-gayka, reyka-tishli sektor tuzilishidagi rul mexanizmlari uchun ikki turdag'i sozlash mavjud bo'lib, ular val vinti podshipnigining o'q bo'ylab siljishi va ilashma tirkishini sozlash hisoblanadi.

O'qning bo'ylama siljishini sozlash uchun rul chambaragi o'q bo'ylab oldinga tortib ko'rildi. Agar siljish sezilsa, uni zichlagichlar sonini kamaytirish yo'li bilan sozlanadi.

Chervyakning rolik bilan ilashish tirkishini sozlash uchun chegaralovchi gayka bo'shatiladi va buragich yordamida sozlovchi vint orqali tirkish sozlanadi. Bu, o'z navbatida rul chambaragining erkin yurish yo'li me'yoriy qiymatga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Reykali rul mexanizmlarida reyka va vint tishlari orasidagi tirkish sozlanadi. Buning uchun chegaralovchi gayka bo'shatilib, sozlovchi tiqin qotiriladi. So'ogra rul chambaragining erkin aylanishi va salt yurish yo'li tekshiriladi.

Rul boshqarmasi tortqilarining texnik holatini aniqlash uchun rul chambaragi o'ng va chapga aylantirib, tortqining sharli barmog'i holati tekshiriladi. Agar barmoq erkin harakatlansa yoki birikmalarda liqillash sezilsa, yengil avtomobilarda sharli torqilar rostlanmasdan yangisiga almashtiriladi. Yuk avtomobilari va avtobuslarda hamda tortqini tuzilishida sharli barmoqning holatini sozlash nazarda tutilgan bo'lsa, sharli barmoqning erkin harakatlanishi yo'qotiladi(rastlanadi). Buning uchun sozlovchi tiqin shplinti olinadi, so'ng mahsus buragich bilan tiqin oxirigacha buraladi va shplint to'g'ri kelguncha orqaga qaytarilib, shplint joyiga tiqiladi.

Gidrokuchaytirgichli rul boshqarmalarida, mexanizm karteri va gidrokuchaytirgich bakchasidagi moy sathi navbatdagi TXK paytida tekshiriladi va me'yoriga keltiriladi. Gidrokuchaytirgich bakchasi, uning filrlari hamda karter benzin bilan yuvilib, moyi almashtiriladi (yilda, kamida bir marta yoki mavsumiy xizmat ko'rsatishda). Gidrokuchaytirgichga moy dvigatel salt ishlab turganda quyiladi. Rul mexanizmiga uzatmalar qutisi uchun mo'ljallangan Tap-10, Tap-15L va DEXRON-II moylari yoki transmission moy quyiladi. Gidrokuchaytirgichli rul mexanizmiga yozda turbina moyi (markasi 22), qishda AU-



urchuq(veretyon) moyi quyiladi. MAZ-500 rul mexanizmiga TM-16P va gidrokuchaytirgichiga yozda industrial-20 va qishda industrial-12 moyi quyiladi. KamAZ avtomobilining gidrokuchaytirgichiga  $^2R^2$  markali moy quyiladi. Rul tortqilarining sharnirli birikmalarini 1200/1800 km yurilgandan so'ng, navbatdagi TXK paytida US-2 yoki US-3, shuningdek USs-1, Uss-2 yoki Uss solidoli bilan moylanadi.


Ta'mirlash vaqtida tarangligi pasaygan va singan prujinalar, sharsimon barmoqlarning yeyilgan ichqo'ymalari, bo'ylama va ko'ndalang tortqi barmoqlari almashtiriladi. Egilgan rul tortqilari sovuq holda yoki  $800^{\circ}\text{S}$  haroratgacha qizdirib to'g'rilanadi.

Rul boshqarmasining vazifasi haydovchining boshqarishga mos ravishda avtomobilni harakat yo'nalishini o'zgartirishdan yoki tanlangan yo'nalishni saqlashdan iborat. Rul boshqarmasi asosan uch qismdan tashkil topgan: rul mexanizmi, rul yuritmasi va rul kuchaytirgichi.

Rul boshqarmasi avtomobilning harakat xavfsizligi bilan bog'liqligi uchun unga quyidagi talablar qo'yiladi:

- avtomobilni kichik radiusda burilishini ta'minlash;
- rul chambaragiga qo'yiladigan kuchni kamaytirish hisobiga, avtomobilni boshqarishni yengillatish;
- kuch va kinematik kuzatuvchanlikga ega bo'lishi, ya'ni rul chambaragiga qo'yilgan kuch bilan boshqariluvchi g'ildiraklarning burilishiga qarshilik momenti orasidagi proporsionallik va rul chambaragini burilishiga mos ravishda boshqariluvchi g'ildiraklarni burilishi;
- burilishlarda g'ildiraklarni yon tarafga kam sirpanishi;
- boshqariluvchi g'ildiraklar qabul qilgan turtkilarni rul chambaragiga uzatilmasligi;
- rul boshqarmasini me'yoriy elastiklikga ega bo'lishi;
- rul boshqarmasining qismlari bilan osma orasida kinematik kelishuvchanlik mavjud bo'lishi osma ezilganida boshqariluvchi g'ildiraklarni o'z-o'zidan burilishdan saqlash;
- rul boshqarmasining boshqariluvchi g'ildiraklarini barqarorligiga (stabilizatsiya) kam ta'siri;
- yuqori ishonchligi;

TICO avtomobilida reyka-shesternyali, uzatish soni 18,5 ga teng bo'lgan rul mexanizmi va to'rt sharnirli rul yuritmasi o'matilgan, 1-rasm.



### 1-rasm. Rul boshqarmasi.

1-rul chambaragi; 2-rul kolonkasining g‘ilofi; 3-rul boshqarmasining vali; 4-rul boshqarmasining kardanli uzatmasi; 5-bolt; 6-stakan; 7-sharsimon kallakning korpusi; 8-sharsimon kallakning vkladishi; 9-sharsimon kallakli tortqi; 10-tiqin; 11-sharsimon barmoqning vkladishi; 12-xomut; 13-himoyalovchi rezinali g‘ilof; 14-sharsimon kallakli barmoq; 15-vtulka; 16-prujina; 17-sharnirning rezbali tortqisi; 18-kontragayka; 19-xomut; 20-himoyalovchi rezinali g‘ilof; 21-rul mexanizmining tishli reykasi; 22-xomut; 23-rul mexanizmining korpusi; 24-rul mexanizmining mahkamlash kronshteyni; 25-rul mexanizmining karteri; 26-tishli reykaning vtulkasi; 27-himoyalovchi rezinali g‘ilof; 28-xomut; 29-flanes.

### Foydalanimadigan adabiyotlar

1. O.Hamraqulov, SH.Magdiev. Avtomobilarning texnik ekspluatatsiyasi. Toshkent, 2005 yil.
2. O.Xamrakulov, SH.Magdiev. Avtomobilarning texnik ekspluatatsiyasi. Toshkent. 2005 y.
3. Polojenie o texnicheskem obslujivanii i remonte podvijnogo sostava avtomobil'nogo transporta / M-vo avtomob. transp. RSFSR. – M.: Transport. 1988. - 78 s. 50. Polojenie o texnicheskem obslujivanii i remonte podvijnogo sostava avtomobil'nogo transporta Respublikи Uzbekistan / NPO «Uzavtotranstexnika» – T.: Uzavtotrans, 1996. – 129 s.



## TRACTOR DVIGATELLARINI ASOSIY MEXANIZMI VA TA'MINLASH TIZIMI

*Ma'rufov Xatamjon*

*Farg'ona viloyati Oltiariq tumani 2-sod kasb – hunar maktabi  
Ishlab chiqarish ta'lim ustasi*

**Annotatsiya;** Ushbu maqolada traktor dvigatellarini asosiy mexanizm haqida tushunchalar va uning tizimlari. Dvigatelni yoqilg'i bilan ta'minlash tizimi haqida bayon etilgan.

**Kalit so'zi;** Traktor dviigateli, asosiy mexanizmlar, dvigatellarning tizimlari yoqilg'I bilan ta;minlash, ta'minlash tizimidagi talablar.

**Annotation;** in this article we will talk about the main mechanism of tractor engines and its systems. The requirements for the engine fuel supply system are described.

**Keyword;** tractor dviigateli, basic mechanisms, systems of engines ta with fuel; requirements in the mining, supply system.

Yerga mexanik vosita bilan ishlov berish fikri qadim zamonlarda ham aytilib kelingan. Masalan, 1836- yilda rus muhandisi V.P.Guryev haydashda bug' kuchi bilan harakatga keltiriladigan zanjirli mexanikadan foydalanish mumkinligi to'g'risida fikr bildirgan. Dvigatel — bu issiqlik, elektr, gidravlik kabi energiyalarni mexanik ishga aylantirib beradigan mashinadir. Zamonaviy traktor va avtomobillarda porshenli ichki yonuv dvigatellari (IY O D ) o'rnatilgan.

Porshenli IYOD ikki mexanizm va beshta tizimdan iborat. Krivoship shatunli mexanizm (KSHM) — silindr ichidagi ishchi aralashmaning yonishi natijasida hosil bo'lgan bosimni qabul qilib porshenning to'g'ri chiziqli ilgarilama-qaytma harakatini tirsakli valning aylanma harakatiga o'zgartirib beradi. Gaz taqsimlash mexanizmi (GTM) — klapanlarni o'z vaqtida ochish va yopishga, bu esa, o'z navbatida, yonuvchi aralashmani (karburatorli) yoki havoni (dizellarda) silindrlarga kiritish va ishlab bo'lgan gazlarni tashqi muhitga chiqarib yuborishga xizmat qiladi.

Sovitish tizimi ishslash rejimi hamda tashqi muhit haroratiga qarab dvigatelning eng qulay haroratini — yoqilg'i yonishi va qo 'zg'aluvchan detallarni qo'zg'almas detallarga ishqalanishi natijasida hosil bo'lgan issiqlikning bir qismini sovitish agentiga (suyuqlik yoki havo) kerakli miqdorda yuborishni ta'minlaydi.



Moylash tizimi — bir-biriga tegib ishlaydigan detal yuzalari ishqalanishi va yeyilishini kam aytirish hamda ular orasida hosil bo‘lgan issiqlikni o‘zi bilan olib ketish maqsadida ular orasiga moylash materialini keltirish uchun xizmat qiladi. Undan tashqari tizim dagi harakatlanuvchi moy ishqalanuvchi detallar orasidagi kir va yeyilish zarrachalarini o‘zi bilan dvigatel karteriga olib tushadi.

O‘t oldirish tizimi — karburator, injektor va gazli dvigatellar silindrlaridagi ishchi aralashmani majburiy ravishda yondirib 39 yuborish uchun kerakli vaqtida elektr uchquni hosil qilish uchun xizmat qiladi.

Yurgazib yuborish tizimi — dvigatel silindrlarida ishchi siklning boshlanishini turg‘un ta’m inlaydigan bir-biriga ta ’sir qiluvchi mexanizm va tizimlar majmuasidan iborat. Yuqori quwatli dizellarni yurgazib yuborish uchun alohida benzin dvigatellari qo‘llanishi mumkin, avtomobil va qolgan traktor dvigatellarini yurgazib yuborish elektrostartor yordamida amalga oshiriladi.

**Ta’minlash tizimi vazifasi** - dvigatel silindrlariga havo va yonilg‘ini tozalab alohida-alohida yoki aralashma shaklida kerakli miqdorda yetkazib berish uchun xizmat qiladi.

### **Dvigatelda ishlatilayotgan yonilg‘i turiga qarab ta’minlash tizimi tuzilishi va ishlashi turlicha bo’ladi.**

1.Dizel yonilg‘isida ishlaydigan dvigatellar

2.Benzinda ishlaydigan dvigatellar

3.Gazda ishlaydigan dvigatellar

#### **1. Dizel yonilg‘isida ishlaydigan dvigatellar**

- an’anaviy ta’minlash tizimi

- injektorli ta’minlash tizimi

#### **2.Benzinda ishlaydigan dvigatellar**

- karbyuratorli ta’minlash tizimi


- injektorli ta’minlash tizimi

#### **3.Gazda ishlaydigan dvigatellar**

- suyultirilgan gazda ishlaydigan dvigatellar ta’minlash tizimi

- siqligan gazda ishlaydigan dvigatellar ta’minlash tizimi

#### **Dizelning an’anaviy ta’minlash tizimi**



1-Yonilg'i baki , 2-Dag'al yonilg'i tozalash filtri, 3-PBYoN, 4-Mayin yonilg'I tozalash filtri, 5-YUBYoN, 6-Forsunka, 7-Havotozalagich, 8-Turbokompressor, 9-Havoni oraliq sovitgich, 10-Glushitel

### Foydalilanildigan adabiyotlar

1. Трактор. Конструкция. Подобщейредакцией И .П .Ксеневича , В .И .Шарипова , М ., Машиностроение, 2000.
2. Avtomobilarning tuzilishi, texnikxiz mat ko‘rsatish va ta’mirlash , Toshkent, « Mehnat » , 2001.
3. Новые тракторыи автомобили . Подредакциейд .т .н . проф . Скотникова В .А.,М., « Колос » , 1983.



## OTA-ONASIDAN MAHRUM BOLALARGA NEGA DAVLAT G'AMXO'RLIK QILISHI KERAK?

*Jalilov Javohir Djaxon o'g'li*

*Toshkent davlat yuridik universiteti fuqarolik va  
biznes huquqi fakulteti 1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola bola huquqlarini O'zbekiston va xalqaro miqyosda himoya qilish va ularning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ta'minlashga bag'ishlanadi.

**Kalit so'zlar:** Bola huquqlari deklaratsiyasi, Bola huquqlarihaqida Konvensiya, Janna Jihod, UNICEF, Sog'lom avlod uchun fondi, Xalqaro bola yili, bola huquqlari.

**Аннотация:** Данная статья посвящена защите прав детей в Узбекистане и зарубежом, обеспечению их конституционных прав и свобод.

**Ключевые слова:** Декларация прав ребенка, Конвенция о правах ребенка, Жанна Жиход, ЮНИСЕФ, Фонд «Здоровое поколение», Международный год ребенка, права ребенка.

**Abstract:** This article is devoted to the protection of children's rights in Uzbekistan and internationally and to ensuring their constitutional rights and freedoms.

**Key words:** Declaration of the Rights of the Child, Convention on the Rights of the Child, Janna Jihod, UNICEF, Fund for a Healthy Generation, International Year of the Child, child rights.

Bola huquqlarini himoya qilishni xalqaro darajaga ko'tarishdan maqsad nima? Davr yangilanar ekan albatta ajdodlar va avlodlar almashinuv yuz beradi. Shu almashinuv davrida avlodlarning saviyasiga qarab kelajakni oldindan ko'ra bilish mumkin. Ya'ni kelajakni aynan shu yoshlar quradi deya olamiz. Statistik ma'lumotlarga qaraganda dunyoda 2 milliard 300 million bola mavjud.

Mamlakat kelajagi porloq bo'lishi uchun esa yoshlarning huquqlari yaxshi ta'minlangan bo'lishi kerak. Bu huquqlarga qanday huquqlarni kirtsak bo'ladi? Masalan, oilada tarbiyalanish, zo'ravonliksiz muhidda yashash, ta'lim olish va boshqa bolani kamol toptirishga asos bo'luvchi huquqlarni kirtsak bo'ladi. Agarbola huquqlari ta'minlanmas ekan, ularning hayoti tajovuzga uchrar ekan bora-bora insoniyat kelajagi harob bo'ladi. Shuning uchun ham bola huquqlarini himoya



qilishni xalqaro darajadagi vazifaga olib chiqilgan. Bola huquqlarininig ta'minlanmasligi uning bevosita bola ota-onalarining qonuniy turmushi bilan ham bog'liq chunki ma'lumotlarga ko'ra 290 million bolaning tug'ilishi ro'yxatga olinmagan. Agar davlat har bir Bolani tug'ilishi bilan uni ro'yxatga olib, fuqaroligiga qabul qilsa, biz bilamizki davlat fuqarolarining huquqlari uchun kurashadi.

Masalan, ta'lim olish sohasidagi bolaning huquqini davlat u bola tug'ilganligini bilmasa qanday qilib ta'minlashi mumkin. Yana aniq faktlarga to'xtalsak dunyoda 61 milliondan ortiq bolalar mакtabga bora olishmaydi. Bolalarning noqonuniy tug'ilishi sabab ularga shaxsini tasdiqlovchi hujjat berilmay qoladi va natijada nafaqat yuqorida aytib o'tilgan va umumiyligini qilib aytganda ijtimoiy huquqlari cheklanib qoladi. Ta'lim huquqidan boshqa tibbiy ko'rikdan o'tish, saylov huquqi va hatto ishga kirishida ham juda katta muammolar ro'y beradi. Umumiyligini qilib aytganda dunyo bo'yicha 150 million qiz bola 73 million o'g'il bolalar tajovuzga uchraydi. Yuqoridagi statistikada nega qiz bolalar tajovuzi ko'p degan savol paydo bo'lishi mumkin? Ayrim mamlakatlarda hatto 9 yoshga to'lmasdan ham qiz bolalarni turmush qurishga majbur etishadi. O'g'il bolalar esa majburiy mehnat shaklida tajovuzga uchraydi. Bir necha asr oldin bolalarni „kichik kattalar“ deyishgan bunga sabab bolalar mehnatidan kattalar mehnati bilan parallel bir xilda foydalanganlikdir. Ish haqi oz bo'lsa bo'lar lekin mehnat majburiyati ham javobgarligi ham kattalarni bilan bir xilda bo'lgan. Bolalarning bunday tajovuzlarga uchrashini natijasida aholi orasidan ularning huquqini himoya qiluvchi xalqparvarlar paydo bo'la boshlagan ularning orasida eng yoshi 12 yoshli falastinlik Janna Jihoddir. O'zi bola bo'la turib bolalar huquqlarini himoya qilishga qartilgan targ'ibotiga biroz to'xtalsak. Bu qizning bolalar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan targ'ibotni boshlashiga sabab uning yashash muhitiga bog'liq. Bilamizki ancha vaqtidan bera Falastin va Isroil o'rtaida qurolli to'qnashuvlar ro'y bermoqdava aynan shu Falastin hududida Janna dunyoga keldi va bombalar portlashi quroq o'qlari yomg'iri ostida ulg'aya boshladidi. Janna 7 yoshga to'lganda ko'z o'ngida amakisi va dugonasini isroil armiyasiaskarlari otib tashlashadi. Jannani

tug'ilganidayoq katta qiz bo'lib tug'ilgan desak adashmaymiz. Chunki u 3 yoshdaligidayoq tinch namoyishlarda ishtirok etishni boshlagan. Uning bunday yo'llutishiga atrofidagi zo'ravonliklar,

yaqinlarining o'limi sabab bo'ladi. 12 yoshga



*Janna Jihod*

to’lganda esa press-karta ko’targan jurnalistga aylanadi. 1924-yil 26-sentabrda Millatlar Ligasi (Birlashgan Millalar Tashkilotidan oldingi tashkilot) Jene va bolalarhuquqlari deklaratsiyasini qabul qildi. Bu tarixda Jeneva deklaratsiyasi nomi bilan tilga olinadi. Bu insoniyat tarixida bolalarning alohida huquqlari va kattalarning bolalar oldidagi majburiyatlari haqida gapirgan birinchi xalqaro hujjat edi. Undan so’ng dunyoning asosiy davlatlari ratifikatsiya qilgan „Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” qabul qilindi. Ushbu hujjatda barcha odamlar (shu jumladan kattalar va bolalar) asosiy fuqarolik, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy inson huquqlariga ega bo‘lishi kerakligi ta‘kidlangan. Oradan biroz vaqt o’tib 1959-yil BMT Bosh Assambleyasi „Bola huquqlari deklaratsiyasini” qabul qilgan. Bu deklaratsiyada biz Jena va bolalar huquqlari deklaratsiyasini batafsilroq

yoritilganligini ko’ra olamiz. 1989-yil 20-yanvarda Bola huquqlari haqida Konvensiya mustahkamlangan. Bu kovensiyaga 196 ta davlat a’zo bo’lgan. Hozirgi davr mobaynida bola huquqlarini xalqaro miqyosda himoya qilishdagi asosiy hujjat bo’lib 3 qism 54 moddadan iborat. Ushbu konvensiyadagi asosiy normalarga misol qilib 20-moddani ko’rsata olamiz ya’ni o‘zining oila

g‘amxo‘rligidan vaqtincha yoki doimiy mahrum bo‘lgan yoki o‘zining eng yaxshi manfaatlari yo‘lida bunday g‘amxo‘rlikda qola olmaydigan bola davlat tomonidanko‘rsatiladigan alohida himoya va yordamni olish huquqiga egadir. Bu bilan Konvensiyada belgilab qo’yilyapdiki, a’zo davlatlar ota-onasidan mahrum bo‘lgan bolalarni qarovsiz qoldirmasligi kerakligini takidlayapdi. Ushbu Konvensiyadagi normalar 18 yoshgacha bo’lganlaraga amal qiladi. Konvensiyada yana bundan

tashqari bolalarning quyidagi huquqlari belgilab qo’yilgan:

- o‘z oilasida yashash huquqi;



- yetarlicha ovqatlanish va toza suv bilan ta'minlanish huquqi;
- qulay yashash darajasiga ega bo'lish huquqi;
- sog'lig'ini saqlash huquqi;
- alohida g'amxo'rlik va maxsus professional tayyorgarlik olish huquqi;
- o'z tilida so'zlashish, o'z dinidan va madaniyatidan foydalanish huquqi;
- o'yinlar va ko'ngilochar tadbirdorda qatnashish huquqi;
- erkin ta'lim olish huquqi;
- o'z salomatligini himoyalash huquqi;
- shafqatsizlik, kamsitish vaadolatsiz munosabatda bo'lishdan himoyalanishhuquqi;
- o'z fikrini erkin bildirish, o'z nuqtayi nazarlarini namoyon etish uchun tengdoshlari bilan uchrashish huquqi.

Bolalar huquqlarini himoya qilish uchun 1946-yil UNICEF (BMT bolalar fondi) tuzilgan. Bolalarga e'tiborni kuchaytirish va ularning huquqlarini ta'minlashni asosiy maqsadlaridan biri qilgandan so'ng 1979-yil Xalqaro bola yili deb e'lon qildi. Bu faoliyat davomiy bo'lishi uchun esa maxsus tashkilotlar tuzilgan va har yil 1-

iyun „Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni” deb etirof etildi. Yurtimizda ham bu xalqaro hujjatlardan tashqari 1989-yilda bola huquqlarini himoya qilish uchun

„Sog'lom avlod uchun” fondi tuzildi. Endilikda biz mustaqillikka erishgan paytimizda xalqaro miqyosda amalga oshirilgan salmoqli ishlarga to'xtalamiz. **1990-yillarning boshlariga kelib, xalqaro hamjamiyat inson huquqlari** bo'yicha keng qamrovli milliy institutlarni ("NHRI") tashkil etish va mustahkamlashga katta ahamiyat bera boshladi. NHRIlar uchun minimal standartlar 1991 yilda ishlab chiqilgan va 1993 yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Parij tamoyillarida mustahkamlangan . **Inson huquqlarini** targ'ib qilish va himoya qilish ("ICC") o'zining

umumiy kuzatuvlari va akkreditatsiya jarayoni orqali. Keyingi yillarda NHRIlar, birinchi navbatda, milliy darajadagi inson **huquqlari** komissiyalari va milliy darajadagi

inson **huquqlari** bo'yicha ombudsman institutlari ko'paydi. Ushbu NHRIlarning ba'zilari **bolalar** huquqlariga e'tibor qaratish uchun qonunchilik mas'uliyatiga ega , boshqa NHRIlar esa o'zlarining faoliyat amaliyotlari

orqali **bolalar** huquqlarini **birinchi o'ringa qo'yishadi.[6]**

Qo'shma Shtatlar 2010 yil noyabr oyida **Bola huquqlari** bo'yicha rezolyutsiyani qabul qilib, xalqaro inson **huquqlari** munosabatlarini normallashtirish yo'lida muhim qadamtashladi . **Bola huquqlari** to'g'risidagi



rezolyutsiya AQShning BMT Konventsiyasini ratifikatsiya qilish yo'lidagi qadamdir. **Bola huquqlari konvensiyasi**

("CRC"). CRC dunyodagi eng ko'p ratifikatsiya qilingan inson **huquqlari** shartnomasidir. Qo'shma Shtatlar va Somali CRCga a'zo bo'limgan yagona ikki davlatdir.

Qo'shma Shtatlar bir vaqtlar **bolalar huquqlari bo'yicha etakchi bo'lgan, ammo bu tarix, 1909-1971 yillardagi Oq uydagiga bolalar** konferentsiyalari tarixi butunlay unutilgan.

CRCni ratifikatsiya qilish Qo'shma Shtatlarga Oq uydagiga **bolalar** konferentsiyalarining unutilgan tarixi bilan qayta bog'lanish imkoniyatini beradi. CRC Oq uy konferentsiyalarida ishlab chiqilgan siyosat va **huquqlarga juda mos keladi.** [7]

Sotsiolog Ellen Key XX asr **bolalar** asri bo'lismeni bashorat qilgan . **huquqbazarlik** sodiretishda ayblangan bolalar **huquqlari** va ularga kattalarnikidan farqli munosabatda bo'lish g'oyasi falsafiy asosga ega bo'lib, ularning kelib chiqishini farovonlik modeli va adolat modelidan izlash mumkin. [8]

BMT konventsiyasi **Bola huquqlari konvensiyasini** bir nechta nozik sohalarda barcha **bolalarga** o'rgatish kerak bo'lgan narsalarning mazmunini belgilaydi . Qonunning 28-moddasida " **bola** ta'limi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavida mustahkamlangan tamoyillar" kabi narsalarga yo'naltirilishi belgilab qo'yilgan; "U kelib chiqishi mumkin bo'lgan mamlakatning milliy qadriyatlariga va o'zidan farqli tsivilizatsiyalarga hurmat" (bu "global ta'lim" yoki "deb nomlanuvchi munozarali o'quv yondashuvini qabul qilishni anglatadi" multikulturalizm"); "jinslar uchun tenglik" (bu 1982 yilda Amerika xalqi tomonidan rad etilgan Teng **huquqlar to'g'risidagi** tuzatishni ilgari surish demakdir); va "tabiiy muhitga hurmatni rivojlantirish" (albatta, Qo'shma Shtatlardagi eng siyosiy mavzulardan biri). Birlashgan Millatlar Tashkiloti Shartnomasi xususiy maktablar mavjud bo'lishi mumkinligini tan oladi, ammo ular yuqoridagi fanlarni o'rgatadigan va boshqa yo'l bilan hukumat standartlariga mos kelsagina. [9]

**Bolalarga** nisbatan harakatlarda **bolaning** manfaatlari birinchi o'rinda turishi kerak, lekin har bir holatda birinchi o'rinda turadigan, asosiy e'tiborga olinmagan, chunki ba'zi hollarda boshqa tomonlar teng yoki hatto undan yuqori qonuniy manfaatlarga ega bo'lishi mumkin [10]



**Foydalaniqan adabiyotlar:**

1. Bola huquqlari to'g'risida deklaratsiya; 2.Inson huquqlari umumjahon 3.deklaratsiyasi;  
[4.<https://bolahuquqlari.uz/static/uploads/Kitoblar/Konvensiya>](https://bolahuquqlari.uz/static/uploads/Kitoblar/Konvensiya) Uz.pdf
- 5.<https://www.amnesty.org>
- 6.Linda C. Reif \* (Spring, 2015). ARTICLE: THE FUTURE OF THEMATIC CHILDREN'S RIGHTS INSTITUTIONS IN A NATIONAL HUMAN RIGHTS INSTITUTION WORLD: THE PARISPRINCIPLES AND THE UN COMMITTEE ON THE RIGHTS OF THE CHILD. *Houston Journal of International Law*, 37, 433. <https://advance.lexis.com/api/document?collection=analytical-materials&id=urn:contentItem:5NV1-9JM0-013G-60KT-00000-00&context=1516831>.
- 7.Maria Grahn-Farley\*\* (Summer, 2011). HUMAN RIGHTS & U.S. STANDING UNDER THE OBAMA ADMINISTRATION: The U.N. Convention on the Rights of the Child and theForgotten History of the White House Children's Conferences, 1909-1971\*. *Transnational Law & Contemporary Problems*, 20, 307. <https://advance.lexis.com/api/document?collection=analytical-materials&id=urn:contentItem:53JT-W9S0-02BN-00X6-00000-00&context=1516831>.
- 8.Violet Odala\* (2012). ACADEMY ON HUMAN RIGHTS AND HUMANITARIAN LAW ARTICLES AND ESSAYS ANALYZING THE RIGHTS OF CHILDREN AND INTERNATIONAL HUMAN RIGHTS LAW: The Spectrum for Child Justice in the International Human Rights Framework: From "Reclaiming the Delinquent Child" to Restorative Justice. *American University International Law Review*, 27, 543. <https://advance.lexis.com/api/document?collection=analytical-materials&id=urn:contentItem:575C-8GD0-02BM-Y0HG-00000-00&context=1516831>.
- 9.Susan Kilbourne \* (Fall, 1996). SYMPOSIUM: IMPLEMENTATION OF THE UNITED NATIONS CONVENTION ON THE RIGHTS OF THE CHILD: IV. Implementation and theUnited States: U.S. Failure to Ratify the U.N. Convention on the Rights of the Child: Playing Politics with Children's Rights. *Transnational Law & Contemporary Problems*, 6, 437. <https://advance.lexis.com/api/document?collection=analytical-materials&id=urn:contentItem:3S41-5SF0-00CV-61JS-00000-00&context=1516831>.
- 10.by Jonathan Todres \* (Fall, 1998). ARTICLE: Emerging Limitations on the Rights of the Child: The U.N. Convention on the Rights of the Child and Its Early Case Law. *Columbia Human Rights Law Review*, 30, 159. <https://advance.lexis.com/api/document?collection=analytical-materials&id=urn:contentItem:3XX6-CCC0-00CW-107B->



**XI-XV ASRGA TEGISHLI "DEVONI LUG'OTIT TURK , "AT-TUHFATUZ ZAKIYYAT FILLUG'ATIT TURKIYA"  
YODGORLIKALARIDAGI SO'ZLARNING QIYOSIY LEKSIK-SEMANTIK,  
MORFOLOGIK, FONETIK TAHLILI**

*Choriyeva Laziza , Toshtemirova Lola*

*Termiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakultetining  
3-kurs talabalari*

**Anotatsiya:** Maqolada o'zbek lug'atchiligining eski turkiy til davriga(XI-XV) tegishli "Devoni lug'otit turk" , "At-tuhfatuz zakiyyat fillug'atit turkiya" asarlarida uchraydigan hayvon nomlari, dehqonchilikka oid so'zlarning yuqoridagi ikki asardagi o'xhash va farqli jihatlari qiyoslanib leksik-semantik, morfologik,fonetik tahlili yoritib beriladi.

**Kalit so'zlar:** "Devoni lug'otit turk", "At -tuhfatuz zakkiyat fillug'atit turkiya", leksik-semantik tahlil, morfologik,fonetik tahlil...

**Kirish.** Tilshunosligimiz tarixida nafaqat tarixi, taraqqiyotida o'zining sezilarli darajadagi o'rniga ega manbalardan bir bu XI asrda yashab ijod qilgan Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asari hisoblanadi. Koshg'ariyning bu asari lug'atchiligidan nodir namunasi hisoblanadi. Unda 6,5mingdan ortiq turkiy so'zlarning qaysi elatda qanday ma'no ifodalashi va u yana qanday nomlar bilan atalishi batafsil izohlangan. Lug'atchilimizda muhim ahamiyatga ega yana bir asar "At -tuhfatuz zakkiyat fillug'atit turkiya" bo'lib ,bu asar XV asrda Misrda mamluk-qipchoq tilida yozilgan, mualifi aniq emas.Unda o'zbek va forsiy tillarda unli tov ushlar leksika va morfologiya doirasida tahlil qilinadi.

**Morfologik-fonetik farqli jihatlari.** "Devonu lug'otit-turk"da o'sha davr dialektlari orasidagi morfologik o'ziga xosliklar ham yoritilg'an Jumladan, ko'pchilik turklarda buyruq birlik uchun bar, ikki kishi bo'lsa, bariñlar ikigü (ikkovingiz boring), ko'plik uchun bariñlar qamuğ shaklida qo'l lanilgan. Barij shakli hurmatni ifodalagan. O'g'uz va qipchoqlar birlikda bar, ko'plikda esa bariñ deydilar. Hurmat ma'nosida bariñiz deydilar (II.51). Turklar o't gan zamonda hurmat ma'nosida bardijiz deydilar. O'g'uzlar esa buni faqat ko'plikda (hammangiz bordingiz) qo'llaganlar (II.52).

"At-tuhfatuz zakkiyat fillug'otit turkiya" asarida buyruq fe'llarni 2 guruhga: oxiri illatli ( oxiri unli) va oxiri sahif ( oxiri undosh) bo'lgan buyruq fe'llarga bo'linadi. Oxiri undosh bo'lgan : kel, ket, tut, tur kabi. Oxiri unli bo'lgan: bashla, söylä, sözlä, bovuzla kabi. Buyruq tinglovchiga va g'oyibga bôladi. G'oyib buyrug'iga so'z oxiriga -sin, -sin qo'shimchalari qo'shiladi, tinglovchi birlik buyrug'ida kel, ket, tur, tut kabi shaklida bo'ladi. Ko'plik tinglovchiga kelingiz, ketingiz, sozlagizingiz shaklida bo'ladi. Bir guruhga buyruq qilishda keling, keting, turing va shular kabilar shaklida bo'ladi.



Buyruqning bo'lishlisi ham, bo'lishsizi ham qalin so'zlarda -g'in, -qin, ingichka so'zlarda -gin, -kin qo'shimchalari bilan ta'kidlanadi: turg'in, kelgin, turmag'in, ketmag'in.

**Devon**"dafe'llarning o'tgan zamon shaklini hosil qilishda dialektlar ikki guru hga ajraladi: yag'mo, tuxsi, chigil, arg'u, uyg'ur, to Chingacha bo'lган hamm a qabilalar -di, -di // -ti, -ti affiksini qo'shib yasaydilar: bardi "bordi", keldi "keldi" kabi. Bu shaklni o'g'uz va qip choqlarning ba'zilari – suvorinlar - duq, dük affiksi orqali yasaganlar. Bularda birlik va ko'plik shaklda farq qilmagan : men ya qurduq "men yoy qurdim", biz ya qurduq "biz yoy qurdik" (II.64), ol keldük "u keldi", biz keldük "biz keldik" (II.65). Bo'lishsiz shaklini ham solish tiring: barmadı (turklarda) barmaduq (o'g'uzlarda) "bormadi" (II.66). Fe'lning kelasi zamon shakli o'g'uzlarda qisqargan affiks orqali yasalgan: boshqa turklarda barirman – o'g'uzlarda bariran "boraman", boshqalarda ya qurar- men – o'g'uzlarda ya quraran "yoy quraman" (II.68).

II sh. birlikda shaxs-son -

η affiksi bilan yasalgan: tapindij. Ba'zi arg'ular tilida u -ğ (-g) ga aylantirilgan: tapindug "topinding", sen anii qaçurduğ "sen uni qochirding" (II.194).

**"At-tuhfa"** da o'tgan zamon fe'li affiksi -d hisoblanadi: keldim, keldik, kelding. D harfi mahraj yaqinligiga ko'ra t harfiga almashadi: tapti, qachdi, chiqtii. O'tgan zamon fe'llining yana 2 belgisi bor, birinchi -mish, mish, ikkinchisi -in, -in. Misol uchun, birlikda kelmish, ketmish, ko'plikda kelmishlar, ketmishlar. Asarda bu fe'llarga ko'z bilan ko'rganda emas, faqatgina eshitganlik ma'nosini anglatadi deya izoh beriladi. Kelasiz zamon fe'llari -g'ay, -qay, -gäy, -käy va -si, -sii affikslari bilan yasalgan. Chunonchi, kelgayman, kelgaybüz, kelgäysän, kelgäylär, chiqqayman kabi, bo'lishsiz shakli -ma affiksi orqali yasalgan. Masalan, kelmägäymän, chiqmag'aybüz.

-sii, -si affiksiga misol: kelasiman, kelasibiz, kelasiz, kelasisan.

"At-tuhfa"da shuningdek turkmanlarning kelasiz zamon uchun -jäk, -sär affikslari qo'llanishi haqida ma'lumot uchraydi. Keläjäkmän, keläjäkbiz, keläsärmän, keläsärbiz.

**Leksik-semantik jihatdan tahlil qilsak:** Hayvon nomlarini Devonu lug'otit turk va At tuhfadagi so'zlarni leksik-semantik jihatdan ham tahlil qilganda tafovutlar topildi. Masalan, At tuhfada erkak tuya ma'nosida bäsräk so'zi kelgan bo'lsa, Devonu lug'otit turkda esa bügra (168-bet) shaklida keladi. Echkining erkagi ya'ni takas At tuhfada täkä (31-bet), Devonu lug'otit turkda erkač (51-bet). Hayvonlarning xususiyatiga ko'ra ham tafovut aniqlandi. Qora ot At tuhfada qara (14-bet), Devonu lug'otit turkda oy at (o'y at) (34-bet). Urg'ochi tuya so'zining Devonu lug'otit turkda 2 xil varianti keltirilgan tetir (146-bet), injän (20-bet). Chiyabo'ri Devonu lug'otit turkda böri (400-bet), ajru (64-bet), At tuhfada qarsaq,



shaqal (26-bet). Otning yoli Devonu lug'otit turkda yalig (327-bet), At tuhfada a:1 (14-bet). Ikki yoshli qo'y Devonu lug'otit turkda tišak (156-bet), At tuhfada quyun (38-bet). Xuddi shunday, "Devon"da tarīg(67-bet), "At-tuhfat"da tari(55-bet)ko'rinishida kelib va qisqa "i" bilan ifodalangan, 3manba 3 xil o'qiladi. Shuningdek, o'roq (dehqonchilikda ishlatiladigan asbob) so'zi "Devon"da баšтар(arg'ucha 181-bet) hamda türpik(189-bet)shaklida uchraydi. Ekin so'zi "Devon"da ekin(44-bet), "At- tuhfat"da ham ekin(64-bet) shaklida keltirilgan, bu so'zlar leksik, semantik, fonetik jihatdan bir biridan farqlanmaydi, bir xil. Endi yanchdi(biror urug',donni yanchmoq,tuymoq) fe'liga to'xtaladigan bo'lsak: "Devon"da u uvruldi(93-bet) va unga sinonim ügüşdi(88-bet)kabi ko'rinishlarda keladi, "At-tuhfat"da esa janshidi(52-bet) unga sinonim tugti(29-bet) shaklida kelgan. Sepdi (biror urug'ni yerga sepmoq ma'nosida) fe'li "Devon"da ekitti(93-bet), va ekindi ( variantlari: ekinür, ekinmäk 93-bet) shaklida, "At -tuhfat"da säpti(62-bet) ko'rinishida berilgan. Yuqorida keltirilgan yanchdi va sepdi fe'llarining har ikki kitobda keltirilgan shakli ham semantik jihatdan bir ma'noni anglatadi ular leksik jihatdan farq qiladi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbek tilining paydo bo'lishi va rivojlanishi tarixi uning ona tilida so'zlashuvchilarning tarixi bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbek xalqi kabi bir millatning paydo bo'lishi turkiy va eron tillarini birlashtiruvchi bir qator etnik guruhlarning birlashishi bilan bog'liq edi. Buni orasida katta farq bo'lgan o'zbek lahjasidagi dialektlarning ko'pligidan bilish mumkin. Biz ushbu maqolamizda, turkiy so'zlarimiz jamlangan "Devonu lug'atit-turk" va "At-tuhfa" kabi asarlaridagi so'zlarni qiyoslab, semantik, morfologik, fonetik tomonidan tahlil qildik.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'oti-t-turk"(Turkiy so'zlar devoni)/Mahmud Koshg'ariy.-Toshkent:G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,2017, -B.488
2. "At -tuhfatuz zakiyyat fillug'atit turkiya" O'zbekiston CCR "Fan" nashriyoti, Toshkent-1968.-B.279



## ATOIY VA NAVOIY G'AZALLARIDAGI TUSHUNILISHI QIYIN BO'LGAN SO'ZLARNING LEKSIKOLOGIK VA MORFOLOGIK TAHLILI

Annotatsiya: Biz yashab turgan davr — XXI asrdagi hamda Atoiy va Navoiylar yashab ijod qilgan davr — XV asrdagi qo'llanilgan so'zlar xohlaymizmi, yo'qmi vaqtlar, zamonlar, mafkuralar ta'sirida o'zgarib boradi. Yangi so'zlar qo'shiladi, ayrimlari iste'moldan chetga chiqadi. Shu sababdan ham ularning asarlarini o'quvchi kishi ba'zi so'zlarning ma'nolarini angolmay qolishi mumkin. Biz ushbu maqola orqali o'quvchi—kitobxonlarga qisman bo'lsada so'zlarning leksikologik va morfologik tahlilini berib o'tdik.

Kalit so'zlar: Atoiy, Navoiy, leksikologik tahlil, morfologik tahlil.

Annotation: The times we live in - the 21st century and the period in which Atoi and Navoi lived and created - the 15th century, the words used change, whether we like it or not, under the influence of times, times, and ideologies. New words are added, some fall out of use. For this reason, the reader of their works may not understand the meaning of some words. Through this article, we have given our readers a partial lexicological and morphological analysis of words.

Key words: Atoiy, Navoiy, lexicological analysis, morphological analysis.

Atoiy (XV asr, Balx) — shoir. Yassaviy avlodidan. Samarqand, Buxoro va Balxda yashagan. Turkiy, fors va arab adabiyotlarini chuqur o'rgangan. Turkiy va fors tillarida ijod qilgan. Navoiy («Majolis un-nafois») Atoiy hayoti va ijodi haqida to'xtalib, «Mavlono Atoiy Balxda bo'lur erdi. Ismoil ota farzandlaridindur, darveshvash va xushxulq, munbasit (ochiq chehrali) kishi erdi. O'z zamonida she'ri atrok (turkiy tilda so'zlovchilar) orasida ko'p shuhrat tutti. Bu matla' aningdurkim:

Ul sanamkim suv yaqrsinda paritek o'lturur,

G'oyati nozuklukindin suv bila yutsa bo'lur.

...Mavlono ko'p turkona (sodda, ravon) aytur erdi...», deydi. Navoiy «Nasoim ul-mahabba min shamoin ilfutuvva» («Muhabbat shabadalari») asarida Ismoil ota Ahmad Yassaviyning inisi Ibrohim otaning o'g'li ekanini aytadi.

Bizning yashab turgan davrimiz Atoiy yashab ijod qilgan davrdan ancha uzoq bo'lganligi bois tilimiz bir bo'lganiga qaramay biz shoir qo'llagan so'zlarning barchasini birdek tushuna olmaymiz. Buni biz yangi tug'ilgan chaqaloqqa qiyoslasak, bola tug'ilgach uning sochlari, qoshlari, kipriklari o'sa boshaydi, tishlari chiqishni boshlaydi. Shu kabi tilimizning ham vaqt, zamon ta'sirida « sochlari, qoshlari,



kipriklari va tishlari» o'sib rivojlanib boradi. Biz ijodkor g'azallaridagi bugungi kitobxon uchun tushunarsiz, anglanilishi qiyin bo'lgan so'zlarni leksikologik hamda morfologik tahlilini bermoqchimiz. Leksikologik tahlilda so'zning ma'nosi izohlab, ochiqlab berilsa, morfologik tahlilda so'z qaysi so'z turkumiga oid ekanligi, tuzilishiga ko'ra qandayligi, qaysi ma'noviy guruhga mansubligi kabi masalalar o'rta ga tashlanadi.

*Zihi davlat, ki aylar ko'zlariga,  
Sumandek xoki rohin to'tiyogo'y.*

Baytda keltirilgan «zihi» so'zi «yaxshi, joyida, go'zal, ajoyib » kabi mazmunlarni ifodalab, biror narsaning g'oyat go'zal va yaxshiligidan hayajonlanishni bildiradi. Qanday yaxshi! Qanday go'zal! kabi. «Zihi» so'zi oraliqdagi so'z turkumi (alohida olingen so'z turkumi) bo'lib , his-hayajon undovlari sirasiga kiradigan, XV asr leksikasiga oid so'z hisoblanadi.

*Mahzi ravonu ruh turur qaddi qomating,  
Har necha sinchilar kishi boshtin ayog'ini.*

1-misrada qo'llangan «mahz» so'zi «xolis, sof» degan ma'noni bildiradi. Bu yerdagi misrada shoir yorning qaddini sof ravon deya baholamoqda. Demak biz «mahz» so'zini sifat turkumiga oid sodda tub, oddiy darajadagi belgi bildiruvchi so'z sifatida qabul qilamiz

*Ey Atoyi, bu sening she'ringmu yo lo'liu tar  
Yo qilibsan sehri nayranjotu sayd etsang pari.*

2-misrada qo'llangan «nayranjot» so'zi «nayrang»ning arabiylashgan formasi hisoblanadi. Nayranglar, makr-hiyllalar, ko'zboy lashlar, har xil sehr-u afsun, suratlar ma'nolarining sinonimi sifatida foydalanilgan. «Nayranjot» so'zi mustaqil so'z turkumi, sodda tub ot hisoblanib u turkiy tilga arablardan o'zlashgan.

*Yuzuma surtim ayog'ing xoki rohin ko'zuma,  
Dedim: ey jon hamdami, ahlan va sahlan marhabo!*



Baytdagi «ahlan va sahlan » biz uchun tushunarsiz so'z hisoblanadi. Demak biz uning ma'nosini izohlashimiz kerak. Bu so'z « xush kelibsiz, yaxshi kelibsiz, marhamat» kabi yaxshi tilaklarni ifodalaydigan so'z. Ushbu birlik alohida olingan so'z turkumi bo'lib, nutqiy odat undovi hisoblanadi.

*Go'ydek bo'ldi Atoiy har taraf sargashta hol,  
Ul sanamlar shahsuvori azmi chavgon qilgali.*

Baytdagi «go'y» to'pga o'xshash har bir dumaloq narsa, to'p, shar, «chavgon» o'yinida o'rtaqa qo'yib, ot ustida uchi egri uzun tayoq bilan o'ynaladigan kichkina yog'och to'p hisoblanadi va bu so'z ot turkumiga mansub, sodda tub narsa-predmet nomini bildiruvchi so'zdir.

«Shahsuvor» so'zi ot minishga mahoratli, otga mingan go'zal kabi ma'nolarni ifodalaydi.

Bu o'rinda bir savol tug'iladi. «Ushbu so'zning ma'nosiga e'tibor qaratsak, bu qaysi so'z turkumiga oid so'z hisoblanadi? Sifatmi yoki ravish? » Biz bilamizki, sifat o'zgarmas, turg'un belgini ifodalashi, ravish esa harakatdagi o'zgaruvchi belgini ifodalashi bilan bir biridan farq qiladi. Demak bu yerdagi so'zda harakatdagi belgi ifodalanayotganini inobatga olib, biz bu so'zni ravish turkumiga oid deb hisoblaymiz hamda ravishing ma'no turlaridan tarz ya'ni holat ravishi sifatida e'tirof etamiz.

Endi tikonlar orasida qolib ketgan, hamisha past baho berilib kelingan turkiy tilni o'sha davrda (XV asr) dunyoning yetakchi tillari arab tili, forsiy til darajasiga olib chiqqan, tilning beqiyos imkoniyatlarini ko'rsatib bergen buyuk shaxs — Navoiy haqida fikr yuritadigan bo'lsak, Navoiy turkiy tilning rivojiga shoh asarlar yaratish bilan hissa qo'shib qolmay, uning taraqqiyotini nazariy jihatdan ham boyitdi. Bu boradagi xizmatlaridan biri 1499-yilda yaratilgan "Muhokamat ul-lug'atayn" ("Ikki til muhokamasi") asaridir. Alisher Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" asarini umrining so'nggi yillarida (hijriy 905)da yozdi. Mazkur asarida qiyoslash asnosida turkiy tilning boy va keng imkoniyatlarga egaligini isbotladi. Navoiyning qilgan bu xizmatlarini rus tilshonisligi grammatikasining asoschisi Lomonosovga qiyoslashimiz mumkin.

Navoiy ijod qilgan davr ham, biz yashayotgan davrdan ancha uzoq bo'lgani bois, Navoiyning leksikasida ham biz uchun tushunarsiz bo'lgan, kishidan izoh talab qiladigan so'zlar talaygina.

*Junun vodisig'a moyil ko'rарman joni zorimni,  
Tilarman bir yo'li buzmak buzulg'on ro'zgorimni*



Navoiy g‘azalining ushbu baytida bizga notanish bo‘lgan «*junun*» so‘zini tahlil qiladigan bo‘lsak ushbu so‘z oshiqlik, beqarorlik, savdoyilik, jinnilik, aqldan ozganlik ma'nolarini anglatib ot so‘z turkumiga mansub bo‘lib kelgan.

*Yuzida terni ko 'rib o 'lsam, ey rafiq, meni*

*Gulob ila yuvu gul bargidin kafan qilg 'il.*

Navoiy g‘azalining ushbu baytida "gulob" so‘zi gul suvi, atir gul yaproqlaridan olinadigan xushbo‘y ichimlik, ko‘z yoshi ma'nolarida kelgan. Ushbu so‘z ot so‘z turkumiga mansub bo‘lib kelgan

*Buki aning zulfi zunnorida dinim hosili,*

*Kufr ila bo 'lmish mubaddal, nomusulmonimg 'a ayt.*

Navoiy g‘azalining ushbu baytida "zulfi zunnorida" so‘z birikmasini morgologik va leksik jihatdan tahlil qiladigan bo‘lsak "zulfi" so‘zi "soch o‘rimi; mahbuba, sevgili sochi; kokil, gajak, soch tolsi" ma'nolarida, "zunnori" so‘zi esa 1-manosida "xristian dinlarining beliga bog‘laydigan chilvir, belbog"; 2-manosida "but, o‘ziga sig‘intiruvchi, tortuvchi ma'nolarida kelgan

*Ne g 'am, ko 'rguzsa ko 'ksum porasin choki giribonim,*

*Ko 'rinmas bo 'lsa ko 'ksum yorasidin dog 'i pinhonim.*

G‘azalning ushbu baytida "giribonim" so‘zining leksik va morfologik jihatdan tahlil qiladigan bo‘lsa so‘zning leksik ma'nosi "yoqa, kiyim yoqasi"; "choki giribon" so‘zi esa "yoqa yirtmoq, sabrsizlik qilmoq, dod voy solmoq" ma'nolarida qo‘llanilgan.

Bilamizki, tilda eng ko‘p o‘zgarishga uchrovchi qatlam leksik qatlam hisoblanadi. Atoiy va Navoiy ijodidagi ayrim so'zlarni lekisik qatlamning o‘zgarishi oqibatida biz ma'nosini tushuna olmay qoldik. Demak, bizning vazifamiz ana shu so'zlarning izohini kelajak avlodaga yetkazish va mazmun-mohiyatini ochib berish. Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, tilning o‘zgarib boraverishi bizni otabobolarimiz me'rosini o‘rganishimizga qaysidir ma'noda to'sqinlik qilib boradi. Biz bunday ayrim tushunarsiz so'zlarning izohini berib bormasak, kelajak avlod ajdodlar merosini mutlaq tushuna olmaydigan darajaga borib qolishi mumkin.

#### Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. U. Sanaqulov. O'zbeka dabiy tili tarixining ilk davrlari. Toshkent— 2004.
2. S. Rahimov. Matnning lingvistik tahlili
3. Devoni shayxzoda Atoiy. Toshkent — 2008
4. Navoiy. Xazoyin ul-maoniy
5. M. G' Mo'minova Alisher Navoiyning tilshunoslikka oid qarashlari, maqola
6. Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati 1-jildi . Toshkent —1983.



## ESKI TURKIY ADABIY TIL DAVRI VA UNDA YARATILGAN ASARLAR VA LUG'ATLARNING TILIMIZDAGI O'RNI

*Jummayeva Nurshoda  
Abdurayemova Nozima  
Termiz davlat universiteti talabalari  
Ilmiy rahbar: I.Shamsudinova*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada eski turkiy adabiy til davri va o'sha davrdagi Qoraxoniylar hukmronligi ostida bo'lgan xalq o'z tilini unutmagan, islom dini rasman tan olingani, Qoraxoniylar sulolasiga ham Chig'atoy, jo'ji, xulagu, o'kttoy yoki o'g'day uluslarida ham turkiy til an'anasi saqlanib qolganligi va h.k lar bilan tanishib o'tamiz.

**Kalit so'zlar:** eski turkiy til davri, Navoiy davri, Qutadg'u bilig, Devonu lug'atit turk, Devonu hikmat, Hibbat ul-haqqoyiq, O'g'uz nomasi.

Xalq tili bilan adabiy til qadimgi davrlardanoq farqlangan. Biz hozirda «eski turkiy adabiy til» deb atayotgan til yozma manbalarda xalq tilidan farqli o'laroq bir qancha nom bilan yuritilgan. Ma'lumki, XI asrda turkiy tillarning g'arbiy dialektlari sharqiy dialektlardan o'zaro fonetik, leksik, morfologik, uslubiy jihatdan farq qilar edi. Turkiy tillarda Mahmud Qoshg'ariy dialektlar orasida o'ziga xosliklarni ko'rdi va ularni tasnif qildi.

Tasnifga ko'ra u g'arbiy dialektlarni «o'g'uz tili», sharqiy dialektlarni esa «turk tili» nomi ostida umumlashtirib chiqdi. Turk tili qadimgi turkiy adabiy tilning davomi bo'lib, u qoraxoniylar o'lkasidagi asosiy shevalarni asos qilgan adabiy til edi. Mahmud Koshg'ariy qoraxoniylar markaziy o'lkasida yashaydigan xalqning tilini umumiy adabiy tilning asosi deb hisoblagan. Shuning uchun u adabiy tilni markaziy o'lkalarga nisbat berib, ba'zan «xoqoniya tili» deb ham aytadi., «Devonu lug'atit turk»da boshqa turkiy dialektlarga nisbatan aytilgan «turk tili», «xoqoniya tili» atamalari bu adabiy tildir. Adib Ahmad Yugnakiyning «Hibatu-l-haqqoyiq» asarida «Koshg'ar tili» degan atama qo'llanilgan. «kashg'ariy til» - bu adabiy tildir.

XI asrda yashab otgan mashhur olim, turkshunoslikning asoschisi Mahmud Koshgariyning «Devonu lug'atit turk» ("Turkiy so'zlar devoni") asari saqlanib qolgan. Lug'at tuzishda Mahmud Koshg'ariy arab lug'atchiligidagi yo'lni tanladi. Devonda avval ismlar, keyin fe'llar keladi. Ismlarda ham, fe'llarda ham oldin so'z boshida hamzali so'zlar, keyin boshqa harflar bilan boshlangan so'zlar



izohlanadi. Devonda muallif turkiy so‘zlarning ma’nosini ochib berish uchun juda ko‘p xalq maqollari, ibora, qo‘shiqlardan keltiradi. M.Koshg‘ariy «Men bu kitobni maxsus alifbo tartibida hikmatli so‘zlar, saj’lar (qofiyali nasr), maqollar, qo‘shiqlar, rajaz (botirlar qahramonligini tasvirlovchi parchalar) va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim» ---deydi. Devon turkiy tilda yaratilgan dastlabki ilmiy asar hisoblanadi, shuning uchun ham M.Koshg‘ariyni turkshunos olim deyishimiz mumkin. Ushbu devonda 7 mingdan ziyod so‘z va iboralar keltirilgan ,so‘z va birikmalarning ma’nolarini izohlash maqsadida adabiy parchalardan ham keltiriladi. Mazkur adabiy parchalar qadimgi turkiy xalqlarning badiiy ijodi namunalaridir. Devonda 242 ta adabiy parcha keltirilgan. Ushbu parchalar o‘sha kezlarda el orasida mashhur bo‘lgan dostonlar, marsiyalar, mehnat va muhabbat, tabiat tasviri, yurt manzaralari, qahramonlik, ovchilik to‘g‘risidagi xalq qo‘shiqlaridan olingan. Devonda so‘z va iboralar ma’nosini izoqlash uchun keltirilgan maqollar soni ikki yuzdan oshadi. Shuningdek,juda ko‘p sohaga doir ma’lumotlar keltiriladi. Jumladan, asarda o‘simpliklar dunyosi, chorvachilik, hayvonot olamiga oid so‘zlar hamda ovqatlarni tayyorlash yo‘llari, may achitish usullari, cholg‘u asboblari, kiyim-kechaklar, turli marosimlar bilan bog‘liq rasm-rusumlar haqidagi ma’lumotlar mavjud.

«Qutadg‘u bilig» («Baxtga yetkazuvchi bilim») XI asr turkiy badiiy yozma adabiyotining eng qimmatli yodgorligidir. «Qutadg‘u bilig» o‘n uch ming misradan ziyod, masnaviyda bitilgan doston. Asardan yana ma’lum bo‘lishicha, muallif uni yozib tugallagach, qoraxoni hukmdorlardan bo‘lgan Tavg‘ach Bug‘raxonga tortiq qiladi. Xon Yusufni taqdirlab, unga xos hojiblik unvonini beradi. Qoraxoniylar zamonida saroydagi yuqori lavozimlardan biri ana shu unvon (nom) bilan yuritilardi.

Asar o‘z davrida juda katta shuhrat topdi. U Sharqda turkiy shohnoma darajasiga ko‘tarildi. Muqaddimada hayd etilishicha, Turkiston ellarida, turk tilida hech kim o‘sha davrda bu kitobdan yaxshiroq kitob yoza olmagan. Chinliklar “Adabu-l-muluk”, mochinliklar “Ayinu-l-mamlakat”, mashriqliliklar “Ziynatu-l-umaro”, eronliklar “Shohnomayi turkiy”, ba’zilar “Pandnomayi muluk” dedilar. Turonliklar uni “Qutadgu bilig” deb atadilar.

«Qutadg‘u bilig»ning bizga qadar 3 qo‘lyozmasi saqlanib qolgan. Ta’kidlash lozimki, muallif bu asarini turkiy adabiyotning o‘z an’analari asosida yaratdi.Shuning uchun u turk elidagina emas, badki butun Sharqda shuhrat qozondi. Turkiy adabiyotning ilg‘or tomonlarini o‘zida mujassamlashtirgani, o‘ziga xos originalligi tufayli ham bu asar «Shohnoma»dek buyuk darajaga ko‘tarildi. Turli ellarda uning har xil nom bilan atalishi bejiz emas.



Ahmad Yassaviy qalamiga mansub «Devoni hikmat» eski turkiy adabiyot va adabiy tilining obidalaridan biri sifatida katta ahamiyatga ega. Undagi she'rlarning ko‘pchiligi xalq og‘zaki ijodida keng yoyilgan qo‘shih shaklidagi to‘rtliklardan tashkil topgan. To‘rtlik — qo‘shiq shaklida yaratilgan shs’rlar xalq so‘zlashuv tiliga yaqin bo‘lganligi bilan xarakterlanadi. Ma’lumki, bu she’rlar, asosan, qadimdan mavjud bo‘lgan barmoq va aruz vaznida yaratilgan. Shunga ko‘ra Yassaviy she’rlarida umumxalq tiliga xos so‘z va shakllar, badiiy tasvir vositalari keng ishlatilgan. Ahmad Yassaviyning adabiy til tarixi dagi eng katta xizmati adabiy tilni jonli so‘zlashuv tiliga yaqinlashtirish bo‘lgan edi. «Devoni hikmat»ni hozirgi har bir o‘zbek yoki turkiy xalqlar vakili o‘qib bemalol tushuna olishining o‘zi fikrimizning dalilidir. Ahmad Yassaviy davridagi eski turkiy adabiy tilining nsgizini Toshksnt, Samarqand—Buxoro, Sayram—Qorabuloq—Turkiston tip shevalaridan izlash mumkin. Ahmad Yassaviy «Devon»ining leksik xususiyatlari bo‘yicha kuzatuvlar ko‘rsatadiki, unda, asosan, eski turkiy leksik qatlamga oid so‘zlar bilan birga, arab va tojik-fors tillaridan o‘zlashgan so‘zlar ham bor. Xususan, arabcha so‘z va shakllar o‘zlashgan qatlamning katta qismini ishg‘ol etadi.

Hibatu-l-haqoyiq: Eski turkiy tilining muhim yodgorliklaridan biri XII—XIII asrda yashab ijod etgan adib Ahmad Yugnakiy asaridir. «Hibatu-l-hahoyiq»ning bizgacha olti qo‘lyozma nusxasi yetib kelgan. Shulardan uchtasi to‘la hajmli nusxalar, qolganlari asardan olingan parchalardir. Asarning bunusxasi 246 baytdan iborat. U hozir Istanbulda saqlanmoqda.

«O‘g‘uznama» turkiy xalqlar orasida qadim zamonlardan keng tarqalgan, uzoq tarixiy jarayonni o‘zida aks ettirgan qahramonlik dostonidir, doston xalq ogzaki ijodining xarakterli xususiyatlarini o‘ziga singdirib, badiiy jihatdan mustahkamlanib, og‘izdan-og‘izga ko‘chib kelgan. «O‘g‘uznama»— badiiy jihatdan pishiq asar. U qadimgi turklarning afsona, rivoyatlarini o‘zida umumlashtirgan. Dostonda aks etgan voqealarni turkiy xalqlarning juda qadimgi hayoti bilan bog‘lashga asosimiz bor. Unda aks etgan voqealar o‘z ildizi bilan uzoq davrlarga borib taqaladi. Shu jihatlari bilan bu asarning qadimgi turkiy adabiyotimizni o‘rganishdash ahamiyatga ega. Asar, o‘z navbatida, eski turkiy tilning muhim yodgorligi hamdir. Uning tilida qadimgi turkiy tilga xos xususiyatlar (jumladan, adaq. «oyoq», adug‘ «ayiq», sug‘i «suvi», qag‘ar «qor» kabi) bilan bir qatorda eski turkiy tilga xos xususiyatlar (jumladan, mo‘g‘ulcha so‘zlarning qo‘llanilishi kabi) aralash kuzatiladi. Asar tili sodda, xalq tiliga yaqin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak yuqorida keltirgan ushbu asarlar va lug‘atlar eski turkiy adabiy til ravnaqida muhim ro‘l o‘ynaydigan asarlardir. Mazkur asarlarda



qadimda turkiy tilda turkiy xalqlarning tili va ularning so‘zlashuv nutqi hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanilgan so‘zlarning qadimgi eski turkiy tilda aytilishi va undagi nomlanishlarini yozgan.Biz bu asrlarning lug‘at qismlari bilan tanishib chiqib hozirgacha ba’zi turkiy so‘zlarning saqlanib qolganligini ko‘rishimiz Eski turkiy adabiy tilning bizgacha manbalar orqali yetib kelishida M.Koshg‘ariy,Yusuf xos Xojib,Ahmad Yugnakiy,Ahmad Yassaviy kabi olimu allomalarining xizmati kattadir.Biz yoshlar bu asarlar va lug‘atlar bilan tanishib uni chuqurroq o‘rganib o‘z tilimizning qanchalik boy va rang-barangligini butun jahonga tanilitirishimiz va o‘z tilimiz bilan faxr tuyg‘usini his etamiz va bu jarayonda nafaqat biz yoshlar balki ustozlarimizning izlanishlari hamda bizga berayotgan yordam va ko‘maklari kattadir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O’zbekiston milly ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent, 2000-2005-y.
2. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug’otit turk. O’zSSR Fanlar akademiyasi nashriyotining bosmaxonasi. Toshkent, 1960-y



**XI-XIV ASRDA "DEVONU LUG'OTIT AT-TURK" ASARI VA BA'ZI  
TURKIY LUG'ATLARDA QO'LLANGAN KASB NOMLARINING  
LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI**

*Amiriddinova Mohinur*

*Xonmurotova Munisa*

*Abdumurodova Muattar*

*Termiz davlat universiteti talabalari*

*Shamsuddinova Iqbol*

*Ilmiy rahbar: Termiz davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ayrim lug'atlarda qo'llanilgan kasb nomlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Lug'atshunoslik, "Devoni lug'otit turk", "At-tuhfatuz zakiyati fil lug'atit turkiya", "Muhokamat ul-lug'atayn".

Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'atit at-turk" asari 1960-yilda Solih Mutallibov tomonidan ilk bora o'zbek tiliga tarjima qilingan bo'lib, olimning ishni Asarni tarjima qilganligi o'zbek tilshunosligida juda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Mening nazarimda ushbu asar tilshunosligimizning yanada rivojlanishiga sabab bo'lgan. Tilshunosligimizning Juda ko'p sohasini qamrab olgan, xususan turkiy tilshunoslikning tarixiy grammatikasi, tarixiy-qiyosiy fonetimasi, fonologiyasi, leksikologiyasi, leksikografiyasi, lingvogeografiyasi kabilalar. Ushbu sohalar bo'yicha bugungi kungacha o'zbek tilshunosligimizda ko'plab ishlar amalga oshirilgan.

Lug'atshunoslik lug'at tuzish ishi sifatida turli xalqlarda yozuv taraqqiyotining ilk bosqichlarida tushunarsiz (eskirgan, dialektal, maxsus yoki chet tilga mansub) so'zning qanday ma'no anglatishini bilish ehtiyoji natijasida paydo bo'ldi. Dastlabki tuzilgan lug'atlar umumlashgan, universal xususiyatga ega edi. Lug'atlarning turli shakllari, ko'rinishlari esa keyingi davrlarda yuzaga kelgan hodisadir. XIX asr oxiri va XX asrning birinchi choragida turli xil sabab va ehtiyojlar, davr taqozosi bilan Turkistonda ikki tilli lug'atshunoslik rivoj topdi, o'nlab ruscha-o'zbekcha, o'zbekcha-ruscha lug'atlar, so'zlashgichlar tuzilib nashr etildi. O'zbek leksikografiyasi tarixi Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asaridan boshlangan deb aytish mumkin. Ushbu lug'at faqat so'zlar va ularning ma'nolarini tafsiflab qolmay, turkiy xalqlar tarixi, urf-odatlari, geografik joylashuvi kabi keng ma'lumotlar manbayi hamdir. Shu bilan birga "Devonu lug'otit turk" dastlabki ikki



tilli (turkiycha-arabcha) lug‘atlardandir. Mahmud Zamaxshariy ham o‘zining “Asos ul-balogs‘a”, “Muqaddimat ul-adab” asarlari bilan amaliy ham nazariy leksikografiyaning rivojiga ulkan hissa qo‘shdi. Shuningdek, Alisher Navoiy ijodiga bo‘lgan katta qiziqish XV asrdan keyingi davrda bir qancha lug‘atlarning yaratilishiga sabab bo‘ldi: bunga XVI asrda Turkiyada yaratilgan “Abushqa” izohli lug‘ati, Tole Imon Hiraviyning “Badoye ul-lug‘at”, Muhammad Rizo Xoksorning “Muntaxab ul-lug‘ot”, Mirzo Mehdixonning “Sangloh”, Muhammad Yoqub Chingiyoning “Kelurnoma”, Is’hoqxon Ibratning “Lug‘ati sitta as-sina” (“Olti tilli lug‘at”) kabi lug‘atlarini ko‘rsatish mumkin. Mirzo Mehdixonning “Maboni allug‘at” asarini fors tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilgan Zikrillo Umarov asar xususida shunday yozadi: “XVIII asrda fors turkologi Mirzo Mehdixonning “Maboni allug‘at” grammatik ocherki Navoiy asarlari asosida yozilgan birinchi eski o‘zbek tili grammatikasidir. Uning tadqiqi o‘zbek tili tarixiy grammatikasini tuzishda, eski o‘zbek tilining fonetik, grammatik xususiyatlarini va turkiy tillar tarixini o‘rganishda katta ahamiyatga ega [Mirzo Mehdixon 2008].

Barchamizga ma’lumki, tilshunoslikning leksikografiya bo’limi alohida e’tiborga molik. Sababi leksikografiya ya’ni lug‘atchilik yaratgan asarlar shu jumladan lug‘atlar barchamizga, yoshimiz, kasb-hunarimiz, qiziqishimizdan qat’i nazar hamisha kerakli kitoblar deb, bugungi kunda rivojlanib, kengayib borayotganligi fikrimning dalili bo’la oladi.

Ushbu o‘rganayotgan ishimizning asosiy o‘rganish obyekti sifatida XI–XIV asrlarda yaratilgan qadimgi lug‘atlar (“Devonu lug‘otit turk” (keying o‘rinlarda MK), “At-tuhfatuz zakiyati fil lug‘atit turkiya” (keying o‘rinlarda “At-tuhfat”) asarlarida so‘zlarning fonetikasi, fonologiyasi farqli hamda muqobil jihatlari, anglatgan ma’nolari ochib boriladi.

“Devoni lug‘atit turk” – tabib- atasag‘un (114)

jipargy-cholg‘uchi(43) D. 3-Jild

yalnguq- cho‘ri (454)

“Muhokamat ul-lug‘atayn” –

Atibbo- tabib(32)

jorubkash (Жорўбкаш) — xizmatkor ma’nosida (34)

darzchilik (дарзилик) — tikuvchilik (33)

Saroyinda(Сароянда) — kuylovchi (45)

“At-tuhfatuz zakiyatu fil- lug‘atit turk” –

ichägi- tabib (214)

tabu- xizmatchi (251)



toquchi- to‘quvchi (261),  
bezirkan- savdogar (182),  
tejik- savdogar (256).

Yuqorida keltirilgan lug'atlardan yana ayrim kasb nomlarini misol qilib keltiradigan bo'lsak;

- 1.avlavchi- ovchi (163)
2. etchi- qassob (178)
- 3.bezirkan- savdogar (182)
4. dilmäch- tarjimon (194)
5. do'ro'tchi- yaratuvchi (194)
- 6.javurchi- etikdo'z (208)
7. ichägi- tabib (214)
8. keshish- ibodatchi (218)
9. qırnaq- cho‘ri (226)
10. qışhqırıq- qoplovchi (227)

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, turkiy lug'atlarni bir-biri bilan taqqoslaganimizda bir so'zning har bir lug'atlarda oldingisini takrorlamagan holda turfa xil bo'lib kelishini tadqiq qilish biz uchun juda manfaatli va qiziqarli kechdi. Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'atit at-turk" asari XI asr turkiy tillarning lingvisitikasi haqida to'laqonli ma'lumot beruvchi nodir qomusiy asar hisoblanadi. M. Qoshg'ariy dunyoga o'rnak bo'la oladigan turk tilining nafaqat arab tilidan, balki barcha tillardan kam emasligini yaqqol ko'rsatib bera olgan olimdir.

#### Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn. – Toshkent: Fan, 1968. – B. 123.
2. At-tuhfatuz zakiyatu fil lug'otit turkiya. – Toshkent: Fan, 1968. – B. 123.
3. Devonu lug'oti-t-turk. G'afur G'ulom nomidagi matbaa -nashriyot uyi, Toshkent, 2017 yil.
4. Norboyevna Q. S., Shohista M. O'ZBEK TILIDA KOSMONIMLARNING HOSIL BO'LISH BOSQICHLARI //E Conference Zone. – 2022. – C. 48-50.
5. XIX asr oxiri XX asr boshlarida leksikografiya rivoji va unda “Lug‘oti salos”ning o‘rni. Odina Mahkamova.
6. Normamatov S. Leksikografiya asoslari. – T., 2020.
7. Xidirova, I. ., & Dobilova, M. (2023). IMLO MUAMMOLARI VA YECHIM. Modern Science and Research, 2(3), 138–141.
8. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).



**МЕХНАТ ШАРОИТИ НОҚУЛАЙ ИШЛАРДА БАНД ВО‘ЛСАНГИЗ...  
ХУQUQINGIZ BOR!  
НОҚУЛАЙ ШАРОИТДА ИШЛАГАНИНГИЗ УЧУН “БОНУС”  
МАВJУДЛИГИНИ БИЛАРМИДИНГИЗ?**

Xalqimizda “Mehnat - mehnatning tagi rohat”, “Yigit kishiga 70 hunar oz”, “mehnat qilsang o‘zasan” kabi turli-tuman maqollar uchraydi. Haqiqatdan ham mehnat qilish, halol rizq topish, topgan mehnati evaziga oila boqish tushunchalari nafaqat siz-u biz o‘zbek xalqining, balki butun dunyo aholising qon-qoniga tarixan singib ketgani hech kimga sir emas. Ammo tarix zarvaraqlariga nazar tashlar ekanmiz, qadim tarixdan ba’zan kuchlilarning “kuchsizlar” yoki “bosib olingan xalqlar” mehnatini eksplutatsiya qilish, ularni qul qilib, darajasini ba’zan hayvonlardan pasaytirish, ular sababli o‘z cho‘ntaklarini qappaytirish, korrupsiyaga qo‘l urish kabi illatlarga ham duch kelamiz. Bu ishlar faqatgina bitta qit’ada qilinmagani, aksincha turli davrlarda turli mamlakatlarda yuz bergenligi sababli ham, “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 23-moddasida: “*Har bir inson mehnat qilish va adolatli daromad olish huquqiga ega*” deb belgilab qo‘yilgan va ushbu modda orqali yuqorida aytilgan harakatlar bartaraf etilishi uchun barcha mamlakatlar kurashadi.

Mamlakatimiz da ham mehnat qilish huquqi himoya qilinadi. Darvoqe’ o‘tgan yili referendum tartibida qabul qilingan, yangilangan Konstitutsiyamizda mehnat huquqi haqida shunday deyilgan: “*Har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to‘lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo‘lmagan tarzda adolatli haq olish, shuningdek ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalanish huquqiga ega*”, - 42-modda. Bundan kelib chiqadiki, hamma eng qulay muhitda ishlaydi? Javob esa yo‘q, chunki agar hamma ham qulay mehnat sharoitida ishlasa iqlimi og‘ir bo‘lgan katta hududlar, insoniyatni rivojlantirayotgan sanoatda va yoki katta hajmdagi aholiga kunlik xizmat qiladigan transport vositalarida hech kim ishlamasligi va butun tizimni o‘zgartirishga to‘g‘ri kelar edi, ammo bu hozircha imkonsiz. Ya’ni istaysizmi yoki yo‘q hali-hanuz hamma mehnat sharoitlari yengilgina emas, balki ancha og‘ir sharoitlar va ularda kun-u tun tinimsiz ishlaydigan ishchilar ham talaygina. Xo‘sh, ular qanday imkoniyatlarga ega?

Yuqoridagi savollarga javob berishga “Mehnat kodeksi” va bir necha qonunchilik hujjatlari yordam beradi. Ushbu kodeksing 117-moddasi eng birinchi



“bonus” haqida gapiradi, ya’ni u og‘ir mehnat sharoitlarida ishlayotgalarining qisqartirilgan ish vaqtini haqidadir va unga ko‘ra ishchi xizmatining mehnat jarayonida sog‘lig‘iga fizikaviy, kimyoviy, biologik va ishlab chiqarishning boshqa zararli omillari ta’sir etadigan xodimlar uchun mehnat soati 36 soatdan oshmaydigan qilib belgilanishi mustahkmalangan (normal sharoitlarda bu ish vaqtini haftasiga 40 soatni tashkil etadi), agar mehnat sharoiti o‘ta og‘ir deb belgilangan bo‘lsa O‘zbekiston Respublikasining “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahriri) 14-moddasi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 11-martdagi 133-sonli qarori bilan tasdiqlangan Mehnat sharoiti o‘ta zararli va o‘ta og‘ir ishlarda band bo‘lgan xodimlar uchun ish vaqtining cheklangan muddati (8-ilova) qo‘srimcha ilova qilib berilgan. Ushbu normativ-huquqiy hujjalarda aytilishicha rentgen apparatiga xizmat ko‘rsatuvchi laboran-rentgen tuzuvchi 5 soat, kondensatorchi, simobni qo‘l va maxanik usulda ajratuvchi 4 soat, sariq fosfor ishlab chiqaruvchi (ishchilar va muxandis-texnik xodimlardan tashqari) 4 soat, kalsiy karbidi ishlab chiqaruvchilar 5 soat, gronzan, merkuran, merkurbenzon ishlab chiqaruvchilar 4 soat, etil suyuqligini ishlab chiqaruvchilar 5 soat, ovqat maqsadlari uchun qayta ishlanmaydigan baliq, dengiz hayvonlari va go‘shtni qayta ishlash bo‘yicha utilizatsiya sexlari va bo‘limlari 5 soat, metropolitenden doimiy foydalanuvchi ishchilar (drenajchi, eskalator tutqichlarini tuzatishda band bo‘lgan rezina buyumlarinining vulkanizatori va tuzatuvchilar, zumpf agregat mashinisti, yo‘l monitori-strelkachi, tunnel ishchilari) 5 soat, muhandis-texnik xodimlar (katta master, master, master yordamchisi, katta elektr mexanik, elektr mexanik, geodeziya-maksheyderlik ishlarida band bo‘lgan katta texnik, texnik) 5 soat, biopreparatlar ishla chiqaruvchi xodimlar 5 soat, veterenarlar 5 soat, murda va murda materiallar bilan ishlashda band bo‘lgan xodimlar 5 soat, sud-tibbiy ekspertizasi byurosi xodimlari 5 (radiomanipulyatsiya kabinetlarida va labaratoriyyada gamma preparatlar bilan ishlovchilar esa 4 soat), rentgentli nurlanish bilan ishlovchilar 5 soat, rentgentli nurlanish, ultrabinafsha nurlanish, elektr magnit maydoni bilan ishlaydiganlarga esa 4 soat kunlik miqdorda xizmat ko‘rsatishadi. Ushbu ro‘yxatda radio-televiziniye xodimlari va o‘qituvchilarning qisqartirilgan ish soatlari haqida ham ma’lumot bor, garchi ular mavzuga aloqador emasligi uchun ta’kidlanmagan bo‘lsada, siz bemalol kirib ko‘rishingiz mumkin.

Menga o‘xshab mehnat so‘zidan ham ko‘ra ko‘proq ta’til so‘zini yoqtiradiganlar ham talaygina va haqiqatdan ham yaxshi dam mehnatga hamdamdir. Mehnat kodeksi nafaqat ish bilan bog‘liq balki ta’tilga oid mavzularni ham hal qiladi. 134-moddaga ko‘ra barcha xodimlarga yillik asosi 15 kunlik ta’til beriladi, ammo siz



og‘ir mehnat sharoitlarida ishlayotgan yoki og‘ir va noqulay tabiiy-iqlim sharoitlarida ish bajarayotgan bo‘lsangiz 137- va 138-moddalar orqali qo‘srimcha haq to‘lanadigan ta’tillarni qo‘lga kiritishingiz mumkin bo‘ladi.

137-modda:

Mehnat jarayonida sog‘lig‘iga fizikaviy, kimyoviy, biologik va ishlab chiqarishning boshqa zararli omillari ta’sir etadigan xodimlarga noqulay mehnat sharoitida ishlaganliklari uchun yillik qo‘srimcha ta’til beriladi.

Korxonalarda qo‘srimcha ta’til olish huquqini beruvchi ishlar, kasblar va lavozimlar ro‘yxati, ta’tillarning muddati, ularni berish tartibi va shartlari tarmoq kelishuvlari, jamoa shartnomasi bilan (agar ular tuzilmaydigan bo‘lsa, — kasaba uyushmasi qo‘mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi bilan kelishib ish beruvchi tomonidan) O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tasdiqlaydigan mehnat sharoitlarini baholash uslubiyoti asosida belgilanadi.

Mehnat sharoiti o‘ziga xos bo‘lgan ishlar uchun, shuningdek o‘ta zararli va o‘ta og‘ir mehnat sharoiti uchun qo‘srimcha ta’tilning eng kam muddati, bunday ta’tilni berish shartlari va tartibi O‘zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan belgilanadi.

138-modda:

Tabiiy-iqlim sharoiti og‘ir va noqulay joylar ro‘yxati hamda yillik qo‘srimcha ta’tilning eng kam muddati O‘zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan belgilab qo‘yiladi.

Tarmoq kelishuvlari, jamoa shartnomalarida tabiiy-iqlim sharoitlari og‘ir va noqulay boshqa joylarda ham xodimlarga yillik qo‘srimcha ta’til berish nazarda tutilishi mumkin.

Mehnat bozorida mehnat munosabatlarini tartibga solishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq mehnat ta’tilining umumiyligi muddati, shu jumladan, asosiy va qo‘srimcha ta’tillar 48 ish kunidan oshmasligi kerak va aynan shu qarorda hududlar bo‘yicha ham eng kam qo‘srimcha ta’til muddati kunlarda ko‘rsatilgan.

### **Qoraqalpog‘iston Respublikasi:**

Mo‘ynoq (shu jumladan, Mo‘ynoq shahri) va Qo‘ng‘irot tumanlari (Qo‘ng‘irot shahridan tashqari)- 3 kun;

Qorao‘zak, Kegeyli, Kanliko‘l, Nukus, Taxtako‘pir, Chimboy, Shumanoy tumanlari, Qo‘ng‘irot shahri- 2 kun;

Taxiatosh va Xo‘jayli tumanlar- 1 kun;



Beruniy, To'rtko'l va Elliqa'la tumanlari (ularning tuman markazlaridan tashqari), Nukus shahri- 1kun;

**Navoiy viloyati:**

Uchquduk shahri, Zarafshon shahri- 6 kun;

Tomdi va Uchquduq tumanlari- 5 kun;

Konimex, Qiziltepa, Navbahor, Nurota, Xatirchi tumanlari- 3 kun;

Karmana tumani, Navoiy shahri-2 kun;

**Buxoro viloyati:**

Qorovulbozor tumani-5 kun;

Gazli shahri- 2kun;

Olot tumani- 2 kun;

Qorako'l tumani- 2kun;

**Namangan viloyati:**

Pop tumani Chorkesar shaharchasi- 2 kun;

**Qashqadaryo viloyati:**

Muborak tumani- 2kun

**Baland tog'li tumanlarda ishlaganlik uchun barcha iqtisodiyot tarmoqlari  
va hududlarning xodimlari uchun:**

dengiz sathidan 1 500 metrdan 1 700 metrgacha balandlikda-1 kun;

dengiz sathidan 1 701 metrdan 2 000 metrgacha balandlikda-2 kun;

dengiz sathidan 2 001 metrdan 3 000 metrgacha balandlikda- 3 kun;

dengiz sathidan 3 000 metrdan ortiq balandlikda- 4 kun;

Ta'kidlash joizki, yuqorida sanab o'tilgan hududlardagi ishchilarga ularning noqulay muhitda ishlayotganliklarini hisobga olib, ustama pullari ham foizlarda keltirilgan va ular asosan 10% dan 50% gacha muhitning inson salomatligiga ta'siriga qarab oshiriladi (Eng past ustama foizi, 10% dengiz sathidan 1500 metrdan 1700 metrgacha balanlikda kuzatilsa, eng baland ustama foizi, 60% Navoiy viloyati Uchquduk shahri va Zarafshon shahar hududlariga to'g'ri keladi). Hududga qaramay, mehnat sharoiti qabul qilinadigan bo'lsa:

Ustama miqdori ish haqining O'zbekiston Respublikasi qonunchilikka muvofiq belgilangan va ustama hisoblanadigan oydan keyingi oyning boshida amal qiladigan: 2019-yil 1-sentabrgacha — eng kam oylik ish haqining to'rt baravari miqdoridan, 2019-yil 1-sentabrdan boshlab mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 1,4 baravari miqdoridan ortiq bo'lmasan ish haqi summasidan hisoblanadi;



Agar xodimning ish haqi: 2019-yil 1-sentabrgacha — eng kam oylik ish haqining to‘rt baravari miqdoridan, 2019-yil 1-sentabrdan mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining 1,4 baravari miqdoridan oshsa, ushbu Nizomga 2-ilovaga muvofiq hisob-kitob misollariga binoan ustama miqdori tegishli ravishda eng kam oylik ish haqining to‘rt baravari miqdori yoki mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining 1,4 barovari miqdorini tashkil etadigan mutanosib ish haqi qismidan hisoblab chiqiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, tan olish lozimki og‘ir mehnat sharoitlarida (mavsumiy, muhit, zararli moddalar bilan ishlash yoki boshqalarga) ishlash haqiqiy qiyinchilik va agar ehtiyyotkorlik bilan ishlanmasa inson salomatligiga ancha katta zarar olib keladi, jismoniy mehnat va aqliy mehnat majoziy ma’noda ish davomida “yemiriladi”. Ammo bu degani siz faqat qorong‘ulikda qolib ketishingiz kerak degani emas. Albatta hukumatimiz biz, xalqqa juda kop imkoniyatlar yaratgan, hozir qolgan savol esa siz ularni bilasizmi va huquqingizni qonuniy talab qilib ulardan foydalana olasizmi? Agar shunday qilsangiz, siz qisqartirilgan ish soatlarida, yuqori maosh, qo‘srimcha ustamalar, ba’zi holatlarda shifobaxsh taomlar, erta ammo yuqori nafaqalarga ega bo‘lishingiz mumkin. Bu sizning imkoniyatlaringizdir. Unutmang, og‘ir-mehnat sharoitlarida siz ekplutatsiya bo‘lish ham, yoki ushbu og‘ir sharoitda qonunchilikdan foyalanib sharoitga aylantirish ham o‘z qo‘llingizda!



## INSONIYATGA QARSHI JINOYATLAR

*Abduraximova Maftuna Zoxir qizi  
Toshkent davlat yuridik universitet  
Biznes va fuqarolik huquqi fakulteti  
1-kurs, "A-2" guruh talabasi  
Email: maftunazoxirovna@gmail.com  
+998943961712*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola davomida biz azaliy jinoyatlar va jinoyat tushunchasi bilan tanishamiz, keyin insoniyatga xavf solgan va solayotgan jinoyatlar va ularning turlari, genotsid, irqchilik, genotsid tufayli kelib chiqqan ikkinchi jahon urushi va uning millionlab qurbanlari haqida so'z yuritamiz. So'ng genotsid hozirgi kunda mavjudmi, mavjud bo'lsa qayerda va qanday ko'rinishda ekanigi hamda jahon davlatlari va xalqaro tashkilotlar, xususan Birlashgan Millatlar Tashkiloti olib brogan tashviqot-targ'ibot ishlari va choralarini o'rganib chiqamiz. Xalqaro tajribalarini bilganimizdan keyin o'z yurtimiz O'zbekistonidagi ahvol, uning jahondagi ushbu illatlarga qarshi pozitsiyasi va qonunchilik hujjatlari bilan tanishib, keltirilgan ma'lumotlardan xulosa yasaymiz.

**Kalit so'zlar:** jinoyat, huquqbazarlik, insoniyatga qarshi jinoyatlar, genotsid, terrorizm, diskriminatsiya, irqchilik, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, konvensiya va qonunchilik hujjatlari, jinoyat kodeksi, ikkinchi jahon urushi sababi.

### ПРЕСТУПЛЕНИЯ ПРОТИВ ЧЕЛОВЕЧЕСТВА

Абдурахимова Мафтуна дочь Захира  
Ташкентский государственный юридический университет  
Факультет предпринимательского и гражданского права  
Студент 1 курса группы «А-2»  
Электронная почта: maftunazoxirovna@gmail.com  
+998943961712

**Аннотация:** В ходе данной статьи мы познакомимся с древними преступлениями и понятием преступности, затем поговорим о преступлениях, которые угрожали и угрожают человечеству и их видах, геноциде, расизме, Второй мировой войне, вызванной геноцидом. и его миллионы жертв. Затем мы изучим, существует ли сегодня геноцид, где и как он выглядит, а также



агитационные и пропагандистские мероприятия и мероприятия, проводимые странами мира и международными организациями, в частности, Организацией Объединенных Наций. Изучив международный опыт, мы ознакомимся с ситуацией в нашей стране Узбекистане, ее позицией в отношении этих зол в мире, а также с правовыми документами и сделаем выводы из предоставленной информации.

**Ключевые слова:** преступление, правонарушение, преступления против человечности, геноцид, терроризм, дискриминация, расизм, Организация Объединенных Наций, конвенционно-правовые документы, уголовный кодекс, причина Второй мировой войны.

## CRIMES AGAINST HUMANITY

Abdurakhimova Maftuna daughter of Zahir

Tashkent State Law University

Faculty of Business and Civil Law

1st year student of group "A-2"

Email: maftunazoxrovna@gmail.com

+998943961712

**Annotation:** In the course of this article we will get acquainted with ancient crimes and the concept of crime, then we will talk about crimes that have threatened and threaten humanity and their species, genocide, racism, the Second World War caused by genocide. and his millions of victims. We will then examine whether genocide exists today, where and what it looks like, and the advocacy, advocacy, and events carried out by countries around the world and international organizations, particularly the United Nations. Having studied international experience, we will become familiar with the situation in our country Uzbekistan, its position regarding these evils in the world, as well as legal documents and draw conclusions from the information provided.

**Key words:** crime, offense, crimes against humanity, genocide, terrorism, discrimination, racism, United Nations, legal conventions, criminal code, cause of the Second World War.

### Kirish:

Jinoyat. Insoniyat paydo bo'libdiki, bu razil tushuncha uning orqasidan ergashadi. Ammo shunday jinoyatlar borki ular boshqa jinoyatlardan farqli o'laroq



kechirib bo'lmasdir. Ushbu jinoyatlardan biri insoniyatga qarshi jinoyatlardir. Faylasuflardan biri bekorga men hayvonlardan qo'rqlayman, ular hayvon yesa ham o'zining turini yemaydi, men insoniyatdan qo'rqlaman, ular ham o'txo'rni, ham go'shtxo'rni va ham o'z turidan bo'lgan insoni ayamaydi degan edi. Aytganimdek jinoyatlar juda ko'p, ammo insoniyatga qarshi jinoyatlar dunyoni larzaga keltirgan va haligacha keltirmoqda. Ho'sh insoniyatga qarshi jinoyatlar qaysilar o'zi? O'zbekiston Respublika Jinoyat kodeksining ikkinchi bo'limi "Tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar" bo'lib, undagi 8-bob "Tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar" deb nomlanadi. Unga ko'ra insoniyatga qarshi jinoyalar turkumiga: urushni targ'ib qilish, agressiya, urushning qonun qoidalari buzish, genotsid, yollanish( ayg'oqchilik, sotqinlik, joususlik), terrorizm, terrorizmni moliyalashtirish, milliy, irqiy yoki diniy adovat qo'zg'atish kabi jinoyatlar kiradi.<sup>1</sup> Endi Wikipedia web-saytga qaraydigan bo'lsak **Insoniyatga qarshi jinoyatlar** — bu urushgacha yoki urush davrida tinch aholini o'ldirish, ularni yo'q qilish, qul qilish, sotish, surgun qilish va boshqa qat'iy choralarni qo'llash shu bilan birga siyosiy, irqiy, diniy sabablarga ko'ra ularni ta'qib qilish yoki qayerda amalga oshirilganidan yoki ular davlatlarning ichki huquqini buzish yoki buzmasligidan qat'iy nazar, tribunal yurisdiksiyasiga kiradigan jinoyatlarni nazarda tutadi. 1976-yil BMTning xalqaro huquq komissiyasi davlatlarning javobgarligi to'g'risida modda loyihasini ma'qulladi va shunga ko'ra enosit (uy, turar joyni yo'q qilish), qulchilik va kolonial hukumronlik ham insoniyatga qarshi jinoyatlarni ichiga oladi. Shu sababli, huquqning rivojlanishi bilan ko'rib chiqilgan jinoyatlar soni ortib boradi. Bunga 1991-yil xalqaro huquq komissiyasi tomonidan qabul qilingan tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar kodeksi loyihasi misol bo'la oladi, bu kodeks loyihasi jinoyatlar hamda xalqaro harakterdagi jinoyatlarni bir-biridan farqlamaydi. Shuning uchun unda umum e'tirof etilgan qoidalarga asosan xalqaro jinoyatlar deb quydagilar aytilishi mumkin: agressiya, agressiya tahdidi, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashish kolonial hukumronlik va chet el hukumronligining boshqa prinsiplari, genotsid, aparteid, inson huquqlarini doimiy va ommaviy ravishda buzish, alohida jiddiy harbiy jinoyatlar shu bilan birga atrof-muhidga qasddan jiddiy zarar yetkazish<sup>2</sup>. Xulosa qiladigan bo'lsak, insoniyatga qarshi jinoyatlar o'z nomi bilan odamlarni o'z maqsadlari yo'lida, mafkura va qarashlar tufayli butunlay, yoki katta jamoa, guruh, davlatning fikrlar to'qnashuvi uchun yosh-u qarini ayamay azoblash, yo'q qilish, o'ldirish, qirib tashlashdir. Unga

<sup>1</sup> <https://lex.uz/acts/-111453> O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 150-156-moddalar.

<sup>2</sup> [z.wikipedia.org/wiki/Insoniyatga\\_qarshi\\_jinoyatlar](https://z.wikipedia.org/wiki/Insoniyatga_qarshi_jinoyatlar)



esa agressiya, genotsid, bosqinchilik, urush qoidalariga amal qilmay begunoh, qurolsiz aholiga tashlanish kabi jinoyatlar kiradi.

Keling, endi insoniyatga qarshijinoyatlar bilan yanada yaqinroq tanishib chiqamiz:

**Genotsid-** (grekcha: γένος [genos] — urug‘, qabila va lotincha: *caedo* — o‘ldiraman)<sup>3</sup> – xalqaro jinoyatlardan biri bo‘lib, etnik tarkibiga ko‘ra aholi, irq, millatni qisman yoki yoppasiga qirib yuborish.

Genotsid o‘ta xavflidir, barcha tinchliksevar insonlar, siyosatshunoslar tomonidan qoralanadi va ammo hozirgacha u davom etib kelmoqda. Genotsid sodir etilgandan so‘ng uni sodir etgan jinoyatchilar motiv va maqsadi yoki subyektiv tomon inobatga olinmaydi.

19. Tuyg'unovna, S. S. (2023). DORIVOR NA'MATAKNING FOYDALI XUSUSIYATLARI VA TIBBIYOTDA QO'LLANILISHI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMUY JURNALI, 3(9), 11-13.



20. Shukurova, S. (2023). DORIVOR O'SIMLIKLARNING KIMYOVİY TARKIBI VA TASNIFI. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 2(11), 5-10.
21. Shukurova, S. (2023). KIYIKO'T VA YALPIZDAN FOYDALANISH USULLARI. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 2(12), 171-177.
22. Shukurova, S. (2024). TARKIBIDA GLIKOZIDLAR BO'LGAN DORIVOR O'SIMLIKLAR. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 3(1), 217-222.
23. Tuygunovna, S. S. (2023). Ways to Use Mint and Peppermint. *EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY*, 3(12), 20-23.
24. Tuygunovna, S. S. (2023). Medicinal Plants Containing Glycosides. *EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY*, 3(12), 24-27.
25. Tuyg'unovna, S. S. (2024). DORIVOR O'SIMLIKLAR XOMASHYOSINI ISHLATISHGA TAYYORLASH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 38(7), 123-132.
26. Tuyg'unovna, S. S. (2024). TARKIBIDA LIPIDLAR BO'LGAN DORIVOR O'SIMLIKLAR. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 38(7), 133-140.
27. Tuyg'unovna, S. S. (2024). TARKIBIDA VITAMINLAR BO'LGAN DORIVOR O'SIMLIKLAR. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 38(7), 141-147.
28. Tuyg'unovna, S. S. (2024). ABOUT USEFUL MEDICINAL PLANTS RICH IN LIPIDS USED IN MEDICINE. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 39(3), 235-241.
29. Tuyg'unovna, S. S. (2024). THE PROCESS OF PACKAGING MEDICINAL PLANTS. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 39(3), 248-256.
30. Tuyg'unovna, S. S. (2024). MEDICINAL PLANTS THAT ARE WIDELY USED IN NATURE, RICH IN VITAMINS. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 39(3), 242-247.
31. Tuyg'unovna, S. S. (2024). TARKIBIDA EFIR MOYLAR BO'LGAN DORIVOR O'SIMLIKLAR. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 4(3), 164-167.
32. Tuyg'unovna, S. S. (2024). MEDICINAL PLANTS CONTAINING ESSENTIAL OILS. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 41(4), 62-69.
33. Tuyg'unovna, S. S. (2024). TARKIBIDA ALKALOIDLAR BO'LGAN DORIVOR O'SIMLIKLAR. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 41(4), 70-77.
34. Yomgirovna, R. G. (2024). NOAN'ANAVIY AGRORUDALARNI QISHLOQ XO'JALIGIDA FOYDALANISHNING ILMIY ASOSLARI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 4(3), 240-244.
35. Yomgirovna, R. G. (2024). QISHLOQ XO 'JALIGI MAHSULOTLARINING ERTA PISHISHI VA UNUMDORLIGINI OSHIRISH UCHUN BENTONIT GILLARINI GEOBIOFAOLLASHTIRUVCHILAR SIFATIDA QO 'LLASH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 39(3), 229-234.
36. Yomgirovna, R. G. (2024). BENTONITNING QISHLOQ XO 'JALIGIDA QO 'LLASHNING ILMIY ASOSLAR. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 39(3), 219-228.



37. Yomgirovna, R. G. (2024). G’O’ZA O’SIMLIGIDA HOSIL ELEMENTLARNING RIVOSHLANISHI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 38(7), 102-108.
38. Yomgirovna, R. G. (2024). CHIGITNI BENTONID BILAN KAPSULA QILIB EKISHNING G’O’ZA HOSILDORLIGIGA TA’SIRI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 38(7), 109-115.
39. Yomgirovna, R. G. (2024). EFFECT OF SEED ENCAPSULATION ON COTTON YIELD. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 38(7), 116-122.
40. Rakhimovna, T. D., & Yomgirovna, R. G. (2023). AGROBIOLOGICAL PROPERTIES OF BENTONITE IN AGRICULTURE. Conferencea, 9-14.
41. Rahimova, G. (2024). G’O’ZA HOSIL ELEMENTLARINING SHAKLLANISHI. Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 3(1), 212-216.
42. Yomgirovna, R. G. (2023). EFFECT OF SEED ENCAPSULATION ON COTTON YIELD. EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE, 3(12), 42-44.
43. Yomgirovna, R. G. (2023). FORMATION OF COTTON CROP ELEMENTS. EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE, 3(12), 113-115.
44. Rahimova, G. (2023). SHO ‘RLANGAN TUPROQLAR SHAROITIDA G ‘O ‘ZANING MORFOLOGIK BELGILARI VA RIVOJLANISHIGA BENTONITNING TA’SIRI. Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 2(12), 141-145.
45. Rahimova, G. (2023). QISHLOQ XO’JALIGIDA BENTONITDAN FOYDALANISHNING ILMUY JIHATLARI VA SAMARADORLIGI. Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 2(11), 189-196.
46. Yomgirovna, R. G. (2023). SCIENTIFIC ASPECTS AND EFFICACY OF BENTONITE USE IN AGRICULTURE. EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE, 3(11), 116-120.
47. Rahimova, G. (2023). MAKTABLARDA BIOLOGIYA FANINI O ‘QITISHDA ZAMONAVIY INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH. Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 2(10 Part 3), 103-109.
48. Yomgirovna, R. G. (2023). AGROBIOLOGICAL PROPERTIES OF BENTONITE IN AGRICULTURE. TA’LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMUY JURNALI, 3(9), 126-130.
49. Rashitova, S. (2023). USE OF INTERACTIVE METHODS IN CHEMISTRY. International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research, 3(10), 115-119.
50. Rashitova, S. (2023). BENTONIT GIL KUKUNINI SORBSION XOSSASINI KIMYOVIY USULDA FAOLASHTIRISH. Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 2(10 Part 3), 98-102.
51. Shukhrat, R. S. (2023). PROCUREMENT OF SORBENTS WITH HIGH SORPTION PROPERTIES AND WASTEWATER TREATMENT ON THEIR BASIS. EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE, 3(12), 75-76.
52. Раширова, Ш. (2023). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АКТИВИРОВАННОГО СОРБЕНТА ДЛЯ ОЧИСТКИ СТОЧНЫХ ВОД. Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 2(12), 135-140.
53. Раширова Ш.Ш. (2023). ПРИМЕНЕНИЕ АКТИВИРОВАННОГО СОРБЕНТА ДЛЯ ОЧИСТКИ СТОЧНЫХ ВОД . Новости образования: исследование в XXI веке, 2(16), 656–672.
54. RSS Qizi “TUSHUNCHALAR TAHLILI “USULI YORDAMIDA VI GURUH ELEMENTLARINI O’RGANISH.TA’LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMUY JURNALI 4 (3), 168-170.



55. Husniddinova, S. S. (2023). The Distribution, Reproduction and Importance of the Beetles in Nature. American Journal of Pediatric Medicine and Health Sciences (2993-2149), 1(9), 211-216.
56. Husniddinova, S. S. (2023). Xonqizi Qo'ng'izlarning Tarqalishi, Ko'payishi Va Tabiatdagi Ahamiyati. AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMUY JURNALI, 2(11), 324-328
57. Sayfullayeva, S. H. (2023). KOKKSINELLIDLARNING BIOLOGIYASI, FAUNASI VA EKOLOGIYASI. World scientific research journal, 21(1), 48-52.
58. Husniddinovna, S. S. (2024). The Level of Study of the Biology, Fauna and Ecology of Coccinellids. International Journal of Formal Education, 3(2), 116-118.
59. Husniddinovna, S. S. (2024). Oila Va Ta'lim Tarbiya. Journal of Research in Innovative Teaching and Inclusive Learning, 2(2), 11-13.



## ASSESSMENT OF CLINICAL COMPLICATIONS IN PATIENTS WITH IMPLANT-SUPPORTED DENTURES

**Gubaev Mukhitdin Sarimsokovich**

*Assistant Department of orthopedic dentistry*

*Samarkand State Medical University*

*Samarkand, Uzbekistan*

### Relevance

Partial or complete absence of teeth is a serious problem for both dentists and their patients. Implantation of missing teeth is a reliable way to restore incomplete dentition, significantly improving the quality of life of patients. Despite the wide range of implant-based prosthetics, existing methods and materials do not exclude cases of early and late complications. The premise for the use of orthopedic structures based on dental implants is the high aesthetic, functional, articulatory aspects of their use. However, an analysis of modern literature sources shows that orthopedic rehabilitation of patients with partial absence of teeth by storing crowns based on dental implants has a fairly high percentage of complications. Our clinical analysis of the results of orthopedic treatment based on dental implants in the long-term aspect in 267 patients aged 20 to 60 years indicated many clinical complications. We have studied 350 orthopedic structures, as well as 885 dental implants. A systematic analysis of the obtained clinical data made it possible to identify the detected complications after orthopedic treatment based on dental implants in the long term. For example, complications such as bone atrophy at the site of dental implant placement — 95 (35.62%) patients, lack of flushing space — 68 (25.47%) patients, dental deposits — 56 (21.14%) patients, physical mobility of the installed implant — 36 (13.63%) patients, peri-implantitis were often recorded and mucositis — 33 (12.49%) patients.

The need for widespread use of various orthopedic structures in the treatment of patients with partial and complete absence of teeth is due to the absolute increase in the number of patients in need of prosthetics over the past 10 years [1, 2]. The dental market of implantation systems is widely represented by various design options that take into account the different anatomical and topographic structure of the bone tissues of the patient's jaw [3]. The key advantage of implantation prostheses is their wide adaptive capabilities, as well as high aesthetics [4, 5].



However, despite its many advantages over conventional prosthetics, prosthetics on dental implants carries a significant risk of complications [6]. A study of these literature sources, as well as clinical data accounting for errors and complications during dental implantation surgery, showed that the key complications in orthopedic rehabilitation are osteoporosis of the jaw bone tissue, unsatisfactory osteogenesis, excessive functional overload of bone tissue, the presence of severe general somatic diseases [2, 7]. Currently, dental implantation is one of the most discussed topics in the dental literature [8, 9]. However, despite this, there is still no clear systematization of the existing complications of orthopedic rehabilitation based on dental implants [10].



The aim of the study was to assess the complications of implant-supported prosthetics in a clinical setting, as well as to assess the complications of problems reported by patients.

### **Materials and methods**

The study involved 30 patients with partial or complete adentia. A total of 152 implants were installed: 89 in the upper jaw and 53 in the lower jaw. Dynamic follow-up was carried out after 12, 24, 36 and 48 months. Complications such as mucositis, loss of retention, weakening of the screw fixation, fracture of the ceramic part of the denture were recorded. The degree of patient satisfaction was assessed before the installation of the denture and 4 years after by the questionnaire method. The data analysis was carried out using a regression analysis of proportional Coke risks.



## Results

The average implantation success rate was 97.14%. The loss rate of dental implants installed in the upper jaw area was 0.52%, in the lower jaw area – 1.46%. The most common complications of prosthetics were: loss of retention, mucositis, weakening of the screw fixation of the abutment and fracture of the base of the prosthesis.

Complications of non-removable prosthetics were less common, with the exception of fractures in the area of the ceramic prosthesis. During the 4-year follow-up period, fractures in the dentition of the removable denture were not observed. There was no statistically significant difference in the incidence of complications between the 1st and 4th years of operation.

The risk of retention loss in removable dentures is 57.8% higher than in non-removable dentures. The risk of developing mucositis during removable prosthetics on implants was significantly higher than in the manufacture of non-removable dentures.

After a short period of adaptation, both the initial phonetic problems and problems associated with chewing food disappeared during prosthetics on implants. Prosthetics increased the degree of patient satisfaction.

## Conclusions

Further studies of the causes of complications of prosthetics on implants will contribute to the prevention and increase the effectiveness of this type of treatment.

### Literatures:

1. Alimjanovich, R. J., Khairullaevna, O. N., & Normuratovich, N. A. (2021, September). Correction of psychological stress in children with non-pharmacological methods of dental admission. In *Archive of Conferences* (pp. 108-114).
2. Ахмедов А. А., Фуркатов Ш. Ф., Анваровна Х. М. ПОЛНЫЙ ЦИФРОВОЙ РАБОЧИЙ ХОД ДЛЯ ИЗГОТОВЛЕНИЯ СКОРОТЕЧНОЙ РЕСТАВРАЦИИ С ОПОРОЙ НА ИМПЛАНТАТЫ: КЛИНИЧЕСКИЙ СЛУЧАЙ И НОВЫЙ МЕТОД //MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH. – 2023. – Т. 2. – №. 20. – С. 106-115.
3. Абдуллаева П. Р., Ахмедов А. А. СПОСОБ ЛЕЧЕНИЯ ИШЕМИЧЕСКИХ СОСТОЯНИЙ ЗРИТЕЛЬНОГО НЕРВА И СЕТЧАТКИ (ЛИТЕРАТУРНЫЙ ОБЗОР): Medical science //Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research. – 2023. – Т. 10. – №. 09. – С. 18-23.
4. Абдуллаева Н. И., Ахмедов А. А. ОСТЕО-ИММУНОЛОГИЧЕСКИЙ СТАТУС ПАЦИЕНТОВ С ЗАБОЛЕВАНИЙ ПАРОДОНТА В ПОДРОСТКОВОМ И МОЛОДОМ ВОЗРАСТЕ //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLLILI ONLAYN ILMUY JURNALI. – 2023. – Т. 3. – №. 11. – С. 143-149.
5. Bustanovna I. N., Sharipovna N. N. Research cases in women after menopause clinical and morphological changes in oral organs and their analysis //Journal of biomedicine and practice. – 2023. – Т. 8. – №. 3.



6. Бурхонова З. К., Рахмонбердиева Р. COMPARATIVE EVALUATION OF PARTIAL DENTURES WITH DIFFERENT ATTACHMENT ELEMENTS //American Journal of Pedagogical and Educational Research. – 2023. – Т. 16. – С. 128-131.
7. Bustanovna I. N., Berdiqulovich N. A. ПРОФИЛАКТИКА И ЛЕЧЕНИЯ КАРИЕСА У ПОСТОЯННЫХ ЗУБОВ //JOURNAL OF BIOMEDICINE AND PRACTICE. – 2022. – Т. 7. – №. 1.
8. Bustanovna, I. N. (2022). Assessment of clinical and morphological changes in the oral organs and tissues in post-menopause women. *Thematics Journal of Education*, 7(3).
9. Bustanovna, I. N., & Sharipovna, N. N. (2023). Research cases in women after menopause clinical and morphological changes in oral organs and their analysis. *Journal of biomedicine and practice*, 8(3).
10. Bustanovna, I. N. (2024). Complications Arising in the Oral Cavity after Polychemotherapy in Patients with Hemablastoses. *International Journal of Scientific Trends*, 3(3), 62-66.
11. Bustanovna, I. N. (2024). The Effectiveness of the Use of the Drug "Proroot MTA" in the Therapeutic and Surgical Treatment of Periodontitis. *International Journal of Scientific Trends*, 3(3), 72-75.
12. Bustanovna, I. N., & Abdusattor o'g, A. A. A. (2024). Analysis of Errors and Complications in the Use of Endocal Structures Used in Dentistry. *International Journal of Scientific Trends*, 3(3), 82-86.
13. Bustanovna, I. N. (2024). Morphological Changes in Oral Organs and Tissues in Women after Menopause and their Analysis. *International Journal of Scientific Trends*, 3(3), 87-93.
14. Bustanovna, P. I. N. (2024). Further Research the Features of the Use of Metal-Ceramic Structures in Anomalies of Development and Position of Teeth. *International Journal of Scientific Trends*, 3(3), 67-71.
15. Bustanovna, P. I. N. (2024). Research of the Structure of Somatic Pathology in Patients with Aphthous Stomatitis. *International Journal of Scientific Trends*, 3(3), 51-55.
16. Husanovich, C. F. (2024). RESEARCH ON THE ATTITUDE OF PEOPLE TO THE PREVENTION OF DENTAL DISEASES. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 4(02), 265-268.
17. Исламова Н. Б., Назарова Н. Ш. СУРУНКАЛИ ТАРҚАЛГАН ПАРОДОНТИТ БИЛАН КАСАЛЛАНГАН ПОСТМЕНОПАУЗА ДАВРИДАГИ АЁЛЛАРНИНГ ПАРОДОНТ ТҮҚИМАСИННИГ ДАВОЛАШ САМАРАДОРЛИГИ ОШИРИШ //ЖУРНАЛ СТОМАТОЛОГИИ И КРАНИОФАЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ. – 2023. – Т. 4. – №. 2.
18. Исламова Н. Б., Назарова Н. Ш. СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ДИАГНОСТИКИ И ЛЕЧЕНИЯ ХРОНИЧЕСКОГО ГЕНЕРАЛИЗОВАННОГО ПАРОДОНТИТА У ЖЕНЩИН В ПЕРИОД ПОСТМЕНОПАУЗЫ //Conferences. – 2023. – С. 13-15.
19. Исламова Н. Б., Чакконов Ф. Х. Изменения в тканях и органах рта при эндокринных заболеваниях //Актуальные вопросы стоматологии. – 2021. – С. 320-326.
20. Исламова Н. Б., Исломов Л. Б. Особенности развития и течения заболеваний полости рта при эндокринной патологии //ББК. – 2021. – Т. 56. – С. 76.
21. Исламова Н. Б. и др. Состояние кристаллообразующей функции слюны при различных патологиях //Молодежь и медицинская наука в XXI веке. – 2014. – С. 470-471.
22. Исламова Н. Б. Сравнительная оценка противовоспалительных цитокинов крови в развитии заболеваний полости рта при гипотиреозе //Наука в современном мире: теория и практика. – 2016. – №. 1. – С. 41-44.
23. Иргашев Ш. Х., Исламова Н. Б. Применение и эффективность энтеросгеля при лечении генерализованного пародонтита //Актуальные вопросы стоматологии. – 2021. – С. 305-310.
24. Islamova N. B., Sh N. N. STUDY OF CHANGES IN PERIODONTAL DISEASES IN POSTMENOPAUSAL WOMEN //Conferences. – 2023. – С. 15-17.
25. Nazarova N. S., Islomova N. B. postmenopauza davridagi ayollarda stomatologik kasalliklarining klinik va mikrobilogik ko 'rsatmalari va mexanizmlari //Журнал "Медицина и инновации". – 2022. – №. 2. – С. 204-211.
26. Ortikova, N., & Rizaev, J. (2021, May). The Prevalence And Reasons Of Stomatophobia In Children. In *E-Conference Globe* (pp. 339-341).



27. Ortikova, N. (2023). ANALYSIS OF ANESTHESIA METHODS FOR DENTAL FEAR AND ANXIETY. *Центральноазиатский журнал академических исследований*, 1(1), 8-12.
28. Ortikova, N. K. (2023). DENTAL ANXIETY AS A SPECIAL PLACE IN SCIENTIFIC KNOWLEDGE. *SCHOLAR*, 1(29), 104-112.
29. Ризаев Ж. А., Ахмедов А. А. ОСНОВЫ СТОМАТОЛОГИЧЕСКОЙ ПОМОЩИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ РАЗВИТИЯ ОБЩЕЙ ВРАЧЕБНОЙ ПРАКТИКИ //ЖУРНАЛ СТОМАТОЛОГИИ И КРАНИОФАЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ. – 2023. – Т. 4. – №. 3.
30. Содикова Ш. А., Исламова Н. Б. Оптимизация лечебно-профилактических мероприятий при заболеваний пародонта беременных женщин с железодефицитной анемией //Актуальные вопросы стоматологии. – 2021. – С. 434-440.
31. Sulaymonova Z. Z., Islamova N. B. TAKING IMPRESSIONS IN THE ORAL CAVITY AND THEIR REDUCTION //Conferences. – 2023. – С. 21-23.
32. Sarimsokovich, G. M. (2023). LATEST METHODS OF STUDY OF PERIODONTAL DISEASE IN WOMEN. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 3(10), 242-250.
33. Sarimsokovich, G. M. (2023). MODERN METHODS OF RESEARCH OF PERIODONTAL DISEASES IN WOMEN. *Open Access Repository*, 4(2), 632-639.
34. Sarimsokovich, G. M. (2023, May). CLINICAL EFFICIENCY OF THE GUIDED REGENERATION METHOD OF TISSUE IN THE TREATMENT OF CHRONIC PERIODONTITIS OF THE MIDDLE DEGREE. In *Conferences* (pp. 11-13).
35. Sarimsokovich, G. M. (2024). METHODS FOR STUDYING PERIODONTAL DISEASES IN WOMEN IN THE POSTMENOPAUSE PERIOD. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 18(4), 36-42.
36. Sarimsokovich, G. M. (2024). IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF PREVENTION AND TREATMENT OF INFECTIOUS PROCESSES OF THE ORAL CAVITY IN PEOPLE USING DENTAL PROSTHETICS. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 18(4), 31-35.
37. Sarimsokovich, G. M. (2024). HYGIENIC ASSESSMENT OF THE CONDITION OF THE ORAL MUCOSA AFTER ORTHOPEDIC TREATMENT. *Journal of new century innovations*, 51(2), 51-57.
38. Qobilovna B. Z., Hekmat K. H. A. S. Clinic and treatment of acute and recurrent herpetic stomatitis in young patients //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – Т. 10. – С. 40-46.
39. Qobilovna B. Z., Nodirovich E. A. EVALUATION OF ORTHOPEDIC TREATMENT WITH REMOVABLE DENTAL PROSTHESES FOR PATIENTS WITH PAIR PATHOLOGY //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2023. – Т. 11. – С. 95-101.
40. Zarafruz B., Hekmat K. H. A. S. Manifestation of herpetic infection in the oral cavity and their timely elimination //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – Т. 10. – С. 47-52.



## BOBORAHIM MASHRAB SHE'RIYATIDA TANOSUB SAN'ATI

Ra'no Boyto'rayeva  
TerDU 2-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada baytda, umuman olganda, she'riy bandlarda ma'no jihatidan bir-biriga aloqador tushunchalarni anglatuvchi so'zlarni qo'llash orqali hosil qilinadigan tanosub san'ati Boborahim Mashrab ijodi asosida tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** adab, she'riy san'at, badiiy san'at, lafziy san'atlar, ma'naviy san'atlar. tanosub.

Adabiyot so'nmas ma'naviyat chirog'idir. U tarqatgan nur insonni badiiyatga cho'mdiradi. Adabiyot inson, shuningdek jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, an'anaviy qiyofalarini olib beradi. Adabiyotda har bir xalqning ona Vatani, o'ziga xos milliy xarakteri, barchaga azaliy bo'lin qolgan insoniylik ufurib turadi. Adabiyot adab so'zidan kelib chiqqan. "Adab" so'zi tor ma'noda adabiyot ilmi ma'nosini anglatadi. Sharq islom olamida hozirgi "adabiyot" istilohi "adab ilmi" deb yuritilgan. Keng ma'noda esa, birinchi navbatda har bir ishda me'yorini saqlash tushunchasini beradi. Bu fazl-u ziynatlar insonni komillika olib chiqadi. Adabiyot komillik sari chorlaydi.

Ming yillik tarixga ega bo'lgan mumtoz adabiyotimizda badiiyat masalasi hamisha she'r ahlining diqqat markazida bo'lib kelgan. U yoki bu ijodkor salohiyati haqida so'z borganda, uning nimalarni tasvirlaganini emas, asosan, qanday tasvirlaganiga e'tibor qaratilgan. Jumladan, adabiy asarlarda she'riy san'atlardan foydalanish mahorati hamma asrlarda badiiy san'atkorlikning asosiy qirralaridan biri sifatida baholangan.

Ma'lumki, she'riy san'atlar badiiy asarda ifodalangan g'oyalarning hayotiyroq, ta'sirchanlik ifodalanimishiga, lirk va epik timsollarning yorqinroq gavdalantirilishiga, misralar, baytlar, bandlarning lafziy nazokati, musiqiyligi, jozibadorligini ta'minlashga xizmat qilgan.

U yoki bu shoir ijodiga, u yoki bu badiiy asarga baho berilar ekan, ijodkor ifodalayotgan g'oya o'z aksini topgan ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-axloqiy, ma'rifiy-tarbiyaviy muammolar mohiyati va ko'lami, badiiy timsollar jilosi bilan bir vaqtida qo'llangan she'riy san'atlarning rang-barangligi, mantiqiy asoslanishi, asar mazmunini ochishdagi o'rni va ahamiyati kabi masalalarga ham alohida diqqat qilingan.



She'riy san'atlar 3 ta tavsifiy guruh bo'yicha o'rganiladi:

1. Lafziy san'atlar
2. Ma'naviy san'atlar
3. Lafziy-ma'naviy san'atlar

Lafziy san'atlar – so'zning shakli bilan bog'liq holatda vujudga keladigan san'atlar. Ma'naviy san'atlar – so'zning mazmuni va ichki o'ziga xos xususiyatlari asosida vujudga keladi. Lafziy-ma'naviy san'atlarda so'zning shakliga ham, uning mazmuniga ham e'tibor beriladi<sup>1</sup>.

Ushbu maqolada tanosub ma'naviy san'ati haqida so'z boradi.

She'r baytlarida ma'no jihatidan bir-biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi so'zlarni qo'llab, ular vositasida obrazli ifodalar, lavhalar yaratish san'ati tanosub (tanosib) deb ataladi<sup>2</sup>. Masalan, quyosh haqida gap ketganda, avvalo, uning nur sochishini xayolga keltiramiz, yuz deganda uning bilan bevosita bog'liq ko'z, qosh, lab, og'iz kabilar xayolda jonlanadi. Tilshunoslikda bu kabi so'zlarni uyadosh so'zlar deb o'rganamiz.

Mashrab o'zbek mumtoz adabiyotida xalqchillik, ijtimoiylik va dunyoviylikning chuqurlashuvida, jaholat va bid'atga qarshi kurash g'oyalarining kuchayishida, she'riyat shakllarining takomillashuvi hamda badiiyatning kamolga erishuvida katta o'rin tutgan so'z ustalaridan biridir. Shuningdek, Mashrab faqat iste'dodli ijodkor sifatidagina emas, ayni zamonda,adolatsizlik va zo'ravonlik, qabohat va jaholat bilan aslo kelisha olmaydigan mard shaxs sifatida ham dong taratgalardan biridir.

Mashrabning g'azal, mustazod, murabba', muxammas, musaddas, musabba, masnaviy, ruboiy, ta'rix kabi janr turlarida bitilgan lirikasida inson qadri-sharafi va ma'naviy kamolotini ulug'lashga, ezgulik va go'zallikni madh etishga bag'ishlangan namunalarni uchratamiz. Mashrab avvalo mohir g'azalnavis hamda ko'plab sho'x va jarangdor mustazodlar, o'ynoqi va jozibador murabba' hamda xalq g'amu hasratiga hamdardlik hissi bilan yo'g'rilgan muxammaslar ijodkori sifatida keng dovrug' chiqargan. Mashrabning juda ko'p g'azallari sodda va jarangdor, jo'shqin va ta'sirchandir. Mashrab ijodida badiiy san'atlardan ham keng foydalilanilganini ko'rish mumkin:

Ul sho'xi parivash bila gar **boda** ichayno,  
**Sarxush** bo'libon **shishai** so'g'arni chekayno.

<sup>1</sup> T.Boboyev. Adabiyotshunoslik assoslari. T., "O'zbekiston", 2002. 414-bet

<sup>2</sup> A.Hojahmedov. She'r san'atlarini bilasizmi? – Toshkent: "Sharq", 2001. 17-bet



Ushbu baytda “boda” so’zi may ma’nosini anglatadi. Ikkinchisiz misrada qo’llangan “sog’arni” so’zi ham may ma’nosida kelgan. Bu yerda “boda”, “sarxush”, “shisha” va “sog’arni” so’zlari tanosib san’atini hosil qilmoqda.

O’tti jahondin **avliyo, murshidu orif anbiyo,**  
Bo’lmadilar firiftasi dunyoni mojarosig’<sup>3</sup>.

Yuqorida keltirilgan baytda “avliyo”, “murshid”, “orif”, “anbiyo” so’zlari o’zaro ma’nolari bir-biriga yaqin bo’lganligi sababli tanosib san’atiga misol bo’la oladi. Shu kabi so’zlarni bir ipga xuddi marjon kabi tizilgan tuyilishi shoirning naqadar mahoratli ekanligidan dalolat beradi.

Uch **lolayu rayhonu suman**, yoza qizil gul,  
Chun sarv qadin bukladi shamshod eshicingda.

Ushbu misolda ham lola, rayhon, suman hamda gul so’zlari o’zgacha badiiylik bilan bir qatorga yig’ilgan va tanosubning go’zal ko’rinishini yaratgan. Mashrab o’zining betakror ta’sirchan she’rlari bilan xalq orasida yashadi. Obro’si, she’riyatining ulug’ligi butun-butun mamlakatlarga yoyildi. Aholining turli qatlamlari daho shoirning har bir kalomini mo’tabar, tabarruk hisoblaydilar. Zero, dard ko’rgan yurakdan chiqqan so’z dardli yuraklarga malham bo’ladi. Yuqorida ko’rib o’tgan misralar misolida ham Mashrab xalqqa tushunarli bo’lgan tilda ijod qilganiga amin bo’lamiz.

**Zebo sanamim gul yuzidin parda** ko’tardi,  
Olam hama **ko’z** bo’ldi tamosho qiloyin deb.

Mashrab ijodiga mansub ushbu baytda zebo, sanam, gul, yuz, parda, ko’z so’zlari umuman olganda, yorning go’zalligiga ishora qilganligi sababli tanosib san’atini hosil qilyapti.

Ofati jonom, ul sanam, **qoshi** qarosini ko’rung,  
Ikki **yuzig’**a chulg’anur **zulfi** siyosini ko’rung.

Ushbu baytda qosh, yuz, zulf so’zlari yorning ta’na a’zolarini anglatib turganligi sababli biz uni tanosib she’riy san’atiga misol qilib olamiz.

**Orazing ochilgan gul, sochlaring erur sunbul,**  
**Tishlaring misoli durr, lablaringda pinhon qiz**<sup>4</sup>.

Ushbu misralarda oraz, gul, soch, sunbul, tish, durr hamda lab so’zlari tanosib san’atini hosil qilmoqda. Yuqoridagi misollardan anglashiladiki, Mashrabning ko’plab g’azallarida yorning go’zalligi o’zgacha tarzda madh etilgan. Uning ijodida ishq mavzusi barq urib turibdi.

<sup>3</sup> B. Mashrab. Agar oshiqligim aytam. G’azallar to’plami. Toshkent- 2004.

<sup>4</sup> B. Mashrab. Agar oshiqligim aytam. G’azallar to’plami. Toshkent- 2004.



**Biyobon bulbulidek**, Mashrabo, hech yo'qtur oromim,  
Qo'nay desam **chamanda** bir **guli** bexor topmadim.

Biyobon, bulbul, chaman va gul so'zlari mazmun jihatdan bir-biriga bog'liq, shuning uchun ham baytda tanosib san'ati qo'llangan.

Nafs kofiri birla tunu kun tinmay urushdum,  
Tanho **qilichi** birla urub qiymalab o'ttum.

Xomush **pichoqini** oni bo'ynig'a qo'ydum,  
Cho'g' **nayzasi** birla ko'zini nayzalab o'ttum<sup>5</sup>.

Yuqoridaagi baytlarda o'tkir qurollar bo'lmish qilich, pichoq, nayza so'zlari ham tanosub san'atini hosil qiladi.

Biz ko'rib o'tgan misollar shuni ko'rsatadiki, Mashrab o'z ijojida ma'naviy san'atlar, umuman olganda, badiiy san'atlardan unumli foydalanish orqali she'riyatini yanada jozibador va mukammal qilgan.

Xulosa qilib aytganda, butun boshli boshli adabiyotni emotsiyal-ekspressiv bo'yoqda ifodalashda badiiy san'atlarning o'rni beqiyos. Ayniqsa, so'zlarning ma'nosiga asoslangan she'riy san'atlar asarning o'zgacha jilolanishiga sabab bo'ladi. Badiiy san'atni shoir o'z asarida atayin qo'llamaydi, u yorning go'zalligini ta'riflashda, uning go'zalliklari haqida so'z ochganda beixtiyor san'atdan foydalanadi. Bu san'atlarda foydalangan shoir haqiqiy san'atkordir deya olish mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. To'xta Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. T., "O'zbekiston", 2002
2. Anvar Hojiahmedov. She'r san'atlarini bilasizmi? – Toshkent: "Sharq", 2001
3. Boborahim Mashrab. Agar oshiqligim aytsam. G'azallar to'plami. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2004
4. Quronov D va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati. Toshkent: Akademnashr, 2010
5. Atoulloh Husayniy. Badoye us-sanoye. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1981
6. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. Toshkent: Ma'naviyat, 2009

<sup>5</sup> B. Mashrab. Agar oshiqligim aytsam. G'azallar to'plami. Toshkent- 2004.



## DINIY USLUBDA RANGLARNING RAMZIY IFODASI

*Abdusalomova Sevinch G'anisher qizi*

*TerDU talabasi*

*Ilmiy rahbar: D.Ergasheva*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada diniy nutq va matnning funktsional roli haqida asosiy ma'lumotlar keltirilgan va o'zbek tilining stilistik tizimi bøyicha qisqacha ma'lumotlar berib o'tilgan. O'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida tilshunos olimlar tomonidan o'zbek tilining hali yoritilmagan diniy uslub va uning o'rganish obyekti ranglarning diniy uslubdagi ramziy ma'nolari izohlangan.

**Kalit so'zlar:** Uslub, diniy matn, leksik-frazeologik, grammatik xususiyat, diniy nutq, ekstralengvistik omillar, fonetik jihat, leksik-stilistik jihat, ekspressiv emotsiyonal jihat.

Uslub — tilning inson faoliyatining muayyan sohasi bilan bog'liq vazifalariga ko'ra ajratilishi. Adabiy tilning quyidagi vazifaviy uslublari mavjud: 1) so'zlashuv uslubi; 2) rasmiy uslub; 3) ilmiy uslub; 4) publitsistik uslub; 5) badiiy uslub.[1.232] Yaqin yillarda tilimizda yangi oltinchi uslub ya'ni diniy uslub yoritib berildi. Ma'lumki, diniy matn uslubi o'zbek tili funktsional uslublarining bir ko'rinishi va u diniy-ma'rifiy soha vakillari tilida amal qiladigan alohida leksik-frazeologik, grammatik xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar dissertatsiyada ilmiy, rasmiy, publitsistik, badiiy va so'zlashuv uslublari bilan taqqoslangan holda yoritib berildi. Diniy matnlarni kuzatish unda o'zbek tilida amalda bo'lgan boshqa uslublarning elementlari ham uchrab turishligini ko'rsatdi. Ayni paytda, ular muayyan farqlarga ham ega. Masalan, Qur'on oyatlari va muborak hadislarga tayanilishi, undov so'z va gaplar, ularning murojaat shakllari, ko'chirma gaplarning hamda rivoyat qilinadi, deyiladi, deydilar, so'radi (lar) fe'l shakllari faolligi ularni ilmiy matnlar uslubidan farqlasa, aniqlikka intilish, fikrni sodda, aniq va tushunarli tilda bayon qilish, emotsiyonal-ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lgan so'zlarning ishlatalishi me'yor sanalmasligi bu ikki matnning o'xhash jihatlari bo'lsa, namoz, azon aytilishi, nikohning rasmiylashtirilishi, kundalik besh vaqt namozning, janoza, taroveh, juma, hayit namozlarining o'qilishi yoki umuman, va'zzonlik, qiroatxonlik kabi ibodatlar, diniy anjumanlar arabiylar matn, oyat va duolarasosida ijro etilishi ularni o'zbek tilining rasmiy matnlaridan farqlaydi. Diniy uslubning o'rganilish obyekti sifatida ranglar tasnifi va ularning ramziy ifodalarini olish mumkin. [6.198]



Ranglar Alloh taoloning bizga bergan ulug‘ va rohatbaxsh ne’matlaridan sanaladi. Qur’oni karimning bir qator oyatlarida har xil ranglar zikr qilingan bo‘lib, turli ma’nolarni ifoda etgan.

Qur’oni karimda sakkiz xil rang zikr qilingan:

1. Sariq
2. Oq
3. Qora
4. Yashil
5. Ko‘k
6. Qizil
7. Qirmizi
8. Yam-yashil

**Sariq rang** Qur’oni karimning 5 oyatida 5 marta zikr etilgan:

1. “Baqara” surasi, 69-oyat
2. “Rum” surasi, 51-oyat
3. “Zumar” surasi, 21-oyat
4. “Hadid” surasi, 20-oyat
5. “Mursalat” surasi, 33-oyat

Sariq rang Qur’oni karimda quyidagi ma’nolarda qo‘llanilgan:

1. Hayvonga nisbatan ishlatilganda “Sariq rang insonga surur bag‘ishlaydi”, degan ma’noda qo‘llanilgan.
2. Shamolga nisbatan ishlatilganda “buzish, vayron qilish” ma’nolarini anglatadi.
3. Dehqonchilikka nisbatan qo‘llanilganda “qurib qolib, yo‘q bo‘lish” kabi ma’nolarni bildiradi.

Payg’ambarimiz Muhammad salollohu alayhi vasallam sariq rangni xush ko’rmaganlar. Chunki, sariq rang dinimizda xiyonat va ikkiyuzlamachilik ramziidir. [2.34]

**Oq rang** Qur’oni karimning 12 oyatida 12 marta zikr etilgan:

1. “Baqara” surasi, 187-oyat
2. “Oli Imron” surasi, 106-oyat
3. “Oli Imron” surasi, 107-oyat
4. “A’rof” surasi, 158-oyat
5. “Yusuf” surasi, 84-oyat
6. “Toha” surasi, 22-oyat
7. “Shuar” surasi, 33-oyat



8. “Nahl” surasi, 12-oyat
9. “Qasas” surasi, 32-oyat
10. “Fotir” surasi, 27-oyat
11. “Soffot” surasi, 46-oyat
12. “Soffot” surasi, 49-oyat

**Qora rang** Qur’oni karimning 7 oyatida 8 marta zikr qilingan:

1. “Baqara” surasi, 187-oyat
2. “Oli Imron” surasi, 106-oyat
3. “Oli Imron” surasi, 106-oyat
4. “Nahl” surasi, 58-oyat
5. “Fotir” surasi, 27-oyat
6. “Zumar” surasi, 60-oyat
7. “Zuxruf” surasi, 17-oyat
8. “A’lo” surasi, 33-oyat

Qur’oni karimda qora rang quyidagi ma’nolarda qo’llanilgan:

1. Tun zulmati
2. Jahannam ahlining rangi
3. Mahzunlik, g‘am-tashvish
4. Qurigan va yo‘q bo‘lgan narsalar
5. Ayrim tog‘larning rangi

“Payg’ambarlar tarixi” kitobidagi Solih alayhissalom qissasida Savmud qavmi Solih alayhissalomni masxara qilib, qachon azobga duchor bo’lishini so’radilar. Solih alayhissalom aytdilar: “Buning birinchi alomati, birinchi kun yuzlaringiz sarg’aygan holda tong orttirasiz! Ikkinci kuni esa yuzingiz qizargan holda uyg’onasiz! Uchinchi kuni esa yuzlaringiz qoraygan holda tong orttirasiz!” Bunda ko’rishimiz mumkinki, dinimizda qora rang Jahannam ahlining rangi ma’nosida kelayapti.

Yashil rang Qur’oni karimning 8 oyatida 8 marta zikr qilingan:

1. “An’om” surasi, 99-oyat
2. “Yusuf” surasi, 43-oyat
3. “Yusuf” surasi, 46-oyat
4. “Kahf” surasi, 31-oyat
5. “Haj” surasi, 63-oyat
6. “Yasin” surasi, 80-oyat
7. “Rahmon” surasi, 76-oyat
8. “Inson” surasi, 21-oyat



Qur’oni karimda yashil rang quyidagi ma’nolarda qo’llanilgan:

1. Yomg‘irdan keyingi daraxt, ekinzor va yerning rangi
2. Jannat ahli libosining rangi
3. Jannatdagi mangu yoshli bolalar libosining rangi
4. Jannat ahliga beriladigan yostiqlar jildining rangi

Ma’lumotlarda keltirilishicha, yashil rang Payg’ambarimiz Muhammad s.a.v ning eng sevimli ranglari bo’lgan. Shahidlarning ruhi bu dunyoda yashil rang qushlarda bo’lishi ham qayd etib o’tilgan.

**Ko’k rang** Qur’oni karimning 1 oyatida 1 marta zikr qilingan:

- “Toha” surasi, 102-oyat

Qur’oni karimda ko’k rang quyidagi ma’nolarda qo’llanilgan:

- Mahshar maydonidagi imonsizlar yuzining rangi. Ya’ni Qiyomatning dahshatidan ularning yuzi ko’karib ketadi.

رُزْقًا يَوْمَئِذٍ الْمُجْرِمِينَ وَنَحْشُرُ الْصُّورَ فِي يُنْفَخُ يَوْمَ

U kun surga puf kasallik kundir. O’sha kunda jinoyatchilarni kuzlari ko’k bo’lgan holda to’plarmiz. (Qiyomatning kelganini aytilgan, sur chalinadi. O’sha qiyomat kunida kofirlar-jinoyatchilarni Alloh taolo qo’rquvdan yuzlari qorayib, ko’zлari ko’karib ketgan hollarida mahsharga jamlaydi.) (“Toha” surasi 102-oyat).

**Yam-yashil rang** Qur’oni karimning 1 oyatida 1 marta zikr qilingan:

- “Rahmon” surasi, 64-oyat

Qur’oni karimda yam-yashil rang quyidagi ma’noda qo’llanilgan:

- Jannatdagi yashil rangning qora rangga moyil bo’lgan holati. Ya’ni jannatdagi bog‘-u rog‘lar shu darajada yashilki, qora rangga moyil bo‘lib, yam-yashil tus oladi.

**Qirmizi rang** Qur’oni karimning 1 oyatida 1 marta zikr qilingan:

- “Rahmon” surasi, 37-oyat

Qur’oni karimda qirmizi rang quyidagi ma’noda qo’llanilgan:

- Osmonning Qiyomat kuni dagi rangi

كَالْدَهَانَ وَرْدَةً فَكَانَتْ السَّمَاءُ اُنْسَقَتْ فَإِذَا Osmony yorilib, qirmizi moyga aylangan vaqtda... (“Rahmon” surasi 37-oyat) Bu yerda qiyomat kuni rangi ma’nosida kelmoqda.

**Qizil rang** Qur’oni karimning 1 oyatida 1 marta zikr qilingan:

- “Fotir” surasi, 27-oyat

Qur’oni karimda qizil rang quyidagi ma’nolarda qo’llanilgan:

- Ayrim tog‘larning rangi
- Daraxtlardagi mevalar rangi[5.245].



Bu kabi tahlillarni davom ettiradigan bo'lsak juda ko'plab misollarni ko'rishimiz mumkin. Sababi bu uslub, ya'ni diniy uslub stilistika sohasida hali to'laligicha o'rganilib ulgurilmagan sohalardan biri hisoblanadi. Shu sababli ham bu borada juda ko'plab ikkilanishlar, katta-kichik muammolar yuzaga kelishi mumkin. Lekin bu kabi noqulayliklarning oldini olish yo'llari maxsus olimlar, tilahunoslar tomonidan tadqiq qilinmoqda. Bu soha, bu uslub tilshunosligimizga endigina kirib kelgani ham shuni ko'rsatib beradiki, neologizmlarning tilimizga singishi osonlikcha bo'lmaydi. Doimo to'siqlar bo'lishini tabiiy hol deb hisoblashimiz kerak bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Amonturdieva Sh. Лексический пласт узбекских религиозных текстов // International Scientific Journal ISJ Theoretical Applied Science – Philadelphia USA, 2020. -R.14-17. (№2. Impact Factor: 4,971)
2. Amonturdieva Sh. O'zbekcha diniy matn: funktsional-stilistik tadqiq muammolari // Samarqand davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi – Samarqand, 2019. -№ 2. –B.55-57. (10.00.00 №14).
3. Amonturdieva Sh. O'zbek tilshunosligida matnni funktsional-uslubiy jihatdan o'rganish masalasi // O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-nazariy konferentsiyasi materiallari – Toshkent, 2019. –B. 64-69.
4. Amonturdieva Sh. O'zbekcha diniy matnlarning leksikasiga oid ayrim mulohazalar // Termiz davlat universiteti professor-o'qituvchilarining 2018 yilgi ilmiy tadqiqot ishlari yakuniga bag'ishlangan an'anaviy ilmiy-amaliy konfrentsiyasi materillari. – Termiz, 2018. - B. 273-282.
5. Muftiy Abdulmatin. Al-Amsal va al-alvan fi al-Qur'an al-karim. – Karachi: Maktabai Umar faruq, 2010. – B. 199-200.
6. O'zbek tili stilistikayei, T., 1983; Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiyev Yo., Nutqmadaniyati vauslubiyatasoslari. T., 1992.
7. Ergasheva D.A. Odil Yoqubov asarlarida inson ruhiy holati ifodalanishining lisoniy manzarasi // Сўз санъати халқаро журнали. – Тошкент, 2020. №1, 2-jild. ISSN: 21819297 Doi Journal 10.26739/2181-9297. – B. 99-103. (10.00.00 № 31)



## O'TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA IBORALARING QO'LLANISHI

**Mamatova Sarvinoz**

*Termiz davlat Universiteti Filologiya va tillarni o'qitish yo'nalishi  
2-kurs 122-guruh talabasi*

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada frazeologizmlarning etimologik, leksik-semantik, stilistik xususiyatlari hamda O'tkir Hoshimov ijodida frazeologizmlarning o'rni va ahamiyati, foydalanish mahorati haqidagi ilmiy-nazariy qarashlar o'z aksini topgan.

**Kalit so'zlar:** frazeologizm, leksema, frazema, lison, frazeologik birlik, kategoriya, qahramon nutqi, lug'at tarkibi, funksional jihat, leksik qatlam, badiiy matn, yozuvchi uslubi, badiiy nutq.

### KIRISH

Frazeologiya tilshunoslik fani bo'limlaridan biri hisoblanadi. Bu bo'lim tilning lug'at tarkibidagi frazemalar haqida ma'lumot beradi. Frazema ko'chma ma'noli turg'un birikmadir. Frazeologiya til hodisasi sifatida lison va nutqqa daxldordir. Birdan ortiq mustaqil leksema ko'rinishining birikuvidan tashkil topgan, obrazli, ma'noviy tabiatga ega bo'lgan lisoniy birlik frazeologizm deyiladi: *tепа сочи тикка бо'лди, сиркаси сув ко'тармайди* va hokazo<sup>1</sup>.

Frazeologiya nazariyasiga dastlab fransuz tilshunosi Sh.Balli asos solgan. Frazeologiyalarning grammatik, semantik, funksional – uslubiy jihatlarini rus tilshunoslarning tadqiqotlarida ham ko'rish mumkin. Jumladan, V.Vinogradov iboralarni leksik qatlam sifatida ma'no guruhlariiga ko'ra tasniflaydi. V.Jukov esa frazeologizmlarning kategoriya va ma'nolarini aniqlagan. O'zbek tilshunosligida frazeologizmlarni Sh.Rahmatullayev, M.Sodiqova, I.Qo'chqortoyev, A.Rafiyev kabi olimlar ishlarida keng o'rganilgan. Olimlar o'rgangan ishlarida frazeologizm masalalari yetarli darajada tahlil qilingan. So'zlashuv nutqida faol foydalaniladigan hamda turli badiiy matnlarda qo'llanilgan frazeologik birliklarga doir misollar orqali o'rganilganligi ahamiyatlidir. Lekin badiiy matnlarda yozuvchi uslubiga oid frazeologik birliklarni o'rganish bilan bog'liq tadqiqotlar olib borish bugungi kundagi muhim ishlardan hisoblanadi.

Frazeologizmlar badiiy adabiyotda obrazli va ta'sirchan vosita sifatida qo'llaniladi<sup>2</sup>. Til birligi hisoblangan frazeologizmlarning badiiy matnda tadqiq va

<sup>1</sup> Sayfullayeva.R. Mengliyev.B va boshqalar. Hozirgi o'zbek tili. O'quv qo'llanma. – T.: «Fan va texnologiya», 2009. – B. 117.

<sup>2</sup> Abduazizov A. Til nazriyasiga kirish. T.: 2010. –150 b.



tahlil etilishi muhimdir. Frazeologizmlar badiiylikni ochib beruvchi unsur hisoblanadi. Badiiy nutqqa o‘zgacha joziba, ko‘tarinki ruh, yengillik baxsh etadi.

Frazeologizmlar biron narsa-hodisani atash, nomlash vazifasini bajarmaydi, balki shu predmet yoki hodisani aniqlashtirib, ularni emotsiyal va obrazli tarzda baholaydi. Adabiy tilning sofligi va ta’sirchanligini ta’minlovchi vositalardan biri frazeologizm sanaladi. Frazeologik birliklarning eng ko‘p badiiy matnda, qisman publisistika, ilmiy ommabop matnlarda ham qo’llaniladi. Yozuvchi badiiy matnda frazeologik birliklardan quyidagi maqsadlarda foydalanadi:

1. Biror voqeа-hodisani obrazli, ta’sirli ifodalash uchun: *tili uzun, ilonni yog ‘ini yalagan, dunyonи suv bossa, uning to ‘pig ‘iga ham chiqmaydigan;*
2. Turli holatlarni baholash uchun; frazeologizmlar salbiy va ijobjiy bo‘yoqqa ega: *Uning ko ‘zлari olayib o ‘rnidan turolmay qoldi;*
3. Badiiy matnda emotsiyallikni ifodalash uchun: *Xudoga shukur, ko ‘ngli joyiga tushdi;*
4. Nutqda ekspressivlikni («ekspressiya» so‘zi aslida lotincha so‘z bo‘lib, «kuchaytirilgan; ifodali, tasviriy» degan ma’nolarni anglatadi. Nutqning ta’sirchanlik xususiyatini ifodalaydi) ifodalash uchun;
5. Badiiy matnda satira va humor hosil qilish uchun.

Frazeologizmlar badiiy matnga estetik zavq beradi. Kitobxon asarini o‘qish jarayonida frazeologizmlardan o‘ziga boshqacha emotsiya oladi. Yozuvchi ijodida qancha ko‘p frazeologizmlarni ishlatsa, asarining qimmati shunchalik oshadi. Yozuvchi asar qahramonining xarakterini, uning holatini, ichki dunyosini ochishda frazeologizmlardan foydalanadi.

Frazeologik birliklarni badiiy matnda qo’llash juda murakkabdir. Bu birliklarning mazmun tarkibida ham frazeologik, ham uslubiy ma’nolar mavjud. Badiiy matnda, umuman, yozma va og‘zaki matnlarda frazeologizmlar qo’llanilganda bu birlik bir qator vazifalarni bajaradi. Bu vazifalarning biri uzial, ya’ni lisoniy xarakterga ega bo‘lsa, qolganlari okkazional, ya’ni nutqiy (uslubiy) funksiyadir. Frazeologizmlarning ichki ma’nosi, ichki tabiatи har qanday badiiy matnda ro‘yobga chiqadi.

Har bir yozuvchining frazeologizmlardan foydalanish uslubi va yo‘nalishlari bo‘ladi. O’tkir Hoshimovning «Dunyoning ishlari», «Ikki eshik orasi», «Tushda kechgan umrlar», «Bahor qaytmaydi» va shu kabi asarlarida qo’llangan frazeologik birliklarni to‘plab o‘rganish orqali yozuvchining o‘ziga xos uslubi va yo‘lini tahlil qilishga harakat qildik.

**pinakka ketmoq:** ma’nosi: *uxlab qolmoq;* Alimardon yaproqlarning pirpirab uchishini tomosha qila-qila pinakka ketdi.

**burnini suqmoq:** Sinonimi: a) *bosh suqmoq;* Aytyabman-ku, *burnini suqmagan joyi yo‘q edi bu bolaning.* b) *burnini tiqmoq;* s) *tumshug‘ini tiqmoq* (*salbiy ma’no;*) d) *chovlisini solmoq.*



**og‘zi qulog‘iga yetmoq:** ma’nosи: xursand bo‘lmoq. *Kechqurun og‘zim qulog‘imga yetkudem bo‘lib bir do‘ppi yong‘oq ko‘tarib keldim.*

**olamdan o‘tmoq:** varianti: *olamdan ketdi*. Ma’nosи: o‘lmoq. *Meni shuncha o‘limdan asrab qolgan odam shundoq ko‘z o‘ngimda olamdan o‘tdi.*

**belida belbog‘i bor:** ma’nosи: mard. *Endi... gapning po‘stkallasi shu: belimda belbog‘im bor deganing ertalab hasharga kelaver*<sup>3</sup>.

## XULOSA

Frazeologizmlarning yuzaga kelishi faqat ma’no hodisasidir. Frazeologizm va so‘z bo‘lmasa, nutqiy-sintaktik butunlik ham bo‘lmaydi. Turli xususiyatlarga ega bo‘lgan frazeologizmlar majmuyi tilning frazeologik qatlamini tashkil etadi. Tilning frazeologik qatlamni doimiy ravishda yangi frazeologizmlar bilan boyib boradi. Shu bilan birga xalq tilining taraqqiyot qonunlarini aks ettiradi. Frazeologizmlarni o‘qib, o‘rganish va ularni tahlil qilish, tasniflash ma’lum ma’noda o‘z xalqining tili haqida ma’lumotga ega bo‘lishiga yordam beradi. Frazeologizmlar so‘zlovchi nutqini ta’sirchan va kuchli emotsiyaga boy bo‘lishini ta’minlovchi muhim birlik hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sayfullayeva R. Mengliyev B. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek tili. O‘quv qo‘llanma. – T.: «Fan va texnologiya», 2009. – 416 b.
2. Abduazizov A. Til nazriyasiga kirish. T.: 2010. – 150 b.
3. Yo‘ldoshev.B.Hozirgi frazeolog birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari. T.: 2010.
4. Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari. qissa va hikoyalar / –T.: Yangi asr avlod, 2018. – 336 b.
5. O‘tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi: roman. –Toshkent: Meriyus, 2017. – 544 b.
6. O‘tkir Hoshimov. Bahor qaytmaydi: qissa va hikoyalar. –T.: Yangi asr avlod, 2015. –500 b.

<sup>3</sup> O‘tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi: roman. – T.: Meriyus, 2017. – B. 61.



## SHEVALARDA BOG'LOVCHI. KO'MAKCHI VA YUKLAMALARNING O'RNI

**Murodova Sevinch Abdimo'minovna**

*Termiz davlat universiteti talabasi*

[Sevinchmurodova44@gmail.com](mailto:Sevinchmurodova44@gmail.com)

**Xolva Muyassar**

*Termioz davlat universiteti o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** O'zbek shevalari boy tillardan biridir. Chunki harbir hudud nuqtai nazaridan turli xil qo'llaniladi. Bu yordamchi so'zlar adabiy tildan uncha farqlanmaydi chunki, fonetik jihatidan farq qiladi. Vazifasi esa so'z brikmalarini va gaplarni bog'lash uchun xizmat qiladi.

**Abstract.** Uzbek dialects are one of the richest languages. Because they are used differently from the point of view of each region. These auxiliary words are not very different from the literary language, because they differ phonetically. Its task is to connect words and sentences.

**Kalit so'zlar:** Ko'makchi, bog'lovchi, yuklama.

**Keywords:** Helper, binder, load.

Bog'lovchilar va ko'makchilarni M.Turopova sheva materiallari asosida tadqiq etgan. Shevalardagi bog'lovchilardagi bog'lovchilar o'z xususiyatlari bilan adabiyga yaqin holat. Fonetik ko'rinishi jihatidan farq qiladi va o'rni bilan bog'lovchi vazifasini bajaradi.

Toshkent viloyati shevalarida adabiy tilda teng bog'lovchi vazifasini bajaruvchi va, ham, hamda, biroq, chunki, garchi, holbuki kabi bog'lovchilar uchramaydi. Shu bilan birga sheva vakillari tomonidan ko'p qo'llanadigan ammo, lekin, biroq teng bog'lovchilari ularni bir vaqtda aytishlari ham kuzatiladi:-Men sizga aytsam, amo lekin biroq hecham ulgurmadi. Bog'lovchilar turli xil chunki, adabiy tilda ham bog'lovchilar hilma xildir. Goh, ganada, -ki, -kimshaklida ham bor. Ganada kelib turadi.

Bog'lovchilarning Buxoro shevasidagi ko'rinishlari. Bog'lovchilar asosiy vazifasi sintaktik qurilish bo'lib, o'zлari bog'lagan ayrim so'zlar va ayrim sodda gaplarni o'zaro qanday munosabatda ekanliklarini, shuningdek, shu munosabatlarning xilini ko'rsatadi. Buxoro o'g'uz shevalarida bog'lovchilarni o'rganish jarayonida o'zbek adabiy tildagi ko'rinish orqali tahlil etib guruhlarga



ajratish sheva materiallarida unchalik ahamiyat kasbetmaydi. Biz shuni inobat олиб “bog‘lovchilar gapdagi vazifasiga ko‘ra ikki xil: teng bog‘lovchilar va ergashtiruvchi bog‘lovchilar” –asosida sheva tahlili o’rganiladi. Teng bog‘lovchilar. Bu bog‘lovchilar gap bo‘laklari va ayrim sodda gaplar orasidagi teng munosabatlarni anglatib, to‘rt gurhga bo‘linadi:

1. Biriktiruv bog‘lovchilar. Bu bog‘lovchilar o‘zbek adabiy tilida va, hamda, ham, bilan kabi vositalar bilan uyushiq bo‘laklar va qo‘shma gaplarni bir-biri bilan bog‘laydi. Ammo Buxoro o‘g‘uz shevalarida va, hamda biriktiruv bog‘lovchilar sheva vakillari nutqida uchramaydi, uning o‘rnida ham, bilan vazifadosh bog‘lovchilar ishtirot etadi.. Odatda, shevada uyushiq bo‘lakli so‘zлarni bog‘lash uchun ham, bilä bilän, minän variantlari qo‘llansa, qo‘shma gaplar so‘zlashuvda faol qo‘llanmaydi: Enam ham, otam ham dayim qarindashlarimiz minän vordi-geldini üzmädi (Onam ham otam ham doim qarindoshlar bilan bordi-keldini uzmad). Bāzārdan nak bilä ālma naxalinnan āyirip āldim (Bozordan nok bilan olma ko‘chatidan ayirib oldim). Ertä bāzāra inek bilän hözägini çıxarıp sātan (Ertaga bozorga sigir bilan buzog‘imni chiqarib sotaman). Sen minän mening siz āgzimiz sena vārmadï (Sen bilan mening siz og‘zimiz senga bormadi) kabi. Shuningdek, ham bog‘lovchisi -yam, -yäm, -näm, -nam variantlari bilan ham qo‘llanadi: Senäm, menäm royxatda bør (Senam, menam ro‘yxatda bor). Şāyiym, Žumaquliyam işä çıxıp gitti (Shoyiyam, Jumaquliyam ishga chiqib ketdi) kabi.

2. Ayiruv bog‘lovchilar. Buxoro o‘g‘uz shevalarida qo‘llanadigan ayiruv bog‘lovchilar adabiy tildan deyarli farq qilmaydi. Shevada yā, yākī, yāvölmäsä, völmäsä, yā-yā, bā:zän-bā:zän, gä-gä, gayi-gayi, bir-bir, däm-däm ayiruv bog‘lovchilar sheva vakillari nutqida ishlatiladi. Bu bog‘lovchilar uyushgan bo‘laklarning birini ikkinchisidan ajratish, galma-gallikni ko‘rsatish, bir nechta voqeanning ketma-ketligining yuzaga kelishi kabilarni ifodalaydi: Yāişa girin yādīyqançilik edip gün görin (Yo ishga kiray, yo dehqonchilik qilib kun kechiray). Bār kırpiç ur, yāmällara qara ( Bor kirpich ur, yo mollarga qara). Şı yıl oqışa giran, yākī Rassiyägä işlışä vārān (Shu yil o‘qisha kiraman, yoki Rossiyaga ishslash uchun ketaman). Bügın işlarımı görün, keyin yāvölmäsä, bir qışlaya otip gelämän (Bugun ishlarimni ko‘raman, keyin yo bo‘lmasa, qishloqqa bir o‘tib kelaman). Bāzāra varigel, olmasa xemsäyädan pül qarz ālaz (Bozorga borib kel, bo‘lmasa qo‘shnidan pul qarz olamiz). Meňa bā:zän xāvār qovarattï, bā:zän xävār qoyvārmittï (Menga ba’zan xabar qilar edi, bazan xabar qilmasdi). Gə yaqmır jayıp şāmāl oladı, gä quyāşçixip bā:rīn xavāsī oley (Goh yomg‘ir yog‘ib shamol bo‘ladi, goh quyosh chiqib bahorning havosi bo‘ladi). Özim gäyi ötirip öylin, gäyi ötirip xapa olip gidän



(O‘zim gohi o‘tirib o‘ylayman, gohi o‘tirib xafa bo‘lib ketaman). Emirin gizi bir lävilläp ženžal edadi, bir beçäsini alip demmaxut öyina girip gidädi (Amirning qizi bir lovillab janjal qiladi, bir bolasini olib jimgina uyiga kirib ketadi). Bir özim däm āqat edämän, däm värüp yep axdaran (Bir o‘zim dam ovqat qilaman, dam borib yer ag‘daraman) kabi.

3. Zidlov bog‘lovchilari. Buxoro o‘g‘uz shevalarida ammā, lekin, nekin, balki, -dä, -da zidlov bog‘lovchilari o‘zbek adabiy tilidagi ko‘rinishda ishlatiladi. Ayniqsa, lekin zidlov bog‘lovchisi boshqalariga qaraganda nisbatan faol hisoblanadi. Bu bog‘lovchilar sodda gaplar va bog‘langan qo‘shma gaplarda qo‘llanib, hodisa, ish-harakat yoki biror narsa tushunchani boshqasiga zid qo‘yadi va ular orasidagi qarama-qarshi munosabatni yuzaga keltiradi: Mäşinä zäpcäs ālantüm, ammāsətuvçi menä eski, işladilän zäpcäsläri beriptir (Mashinaga ehtiyot qismlaridan olgandim, ammo sotuvchi menga eski, ishlatilgan ehtiyot qismlarni beribdi). Menä birinžini versäläräm, lekin bülärin edän işinnän xapamen (Menga birinchi o‘rinni bersalar ham, bularning qilgan ishidan xafaman). Köp döväläniş üçin ukäl-darı āldim, nekin peydäsi olmadi. (Ko‘p davolanish uchun ukol-dori oldim, lekin foydasi bo‘lmadi). Geja män sāliyimi tölädim, bälki äkämäräm töländir (Kecha men solig‘imni to‘ladim, balki akamlar ham to‘lagandir). Āpam yeznämin şünçäxizmatinė etsä-dä, biräm meynätini vilmädi (Opam pochchamning shuncha xizmatini qilsa-da, hech ham mehnatini bilmadi). Naxalim āz qālsa-da, tezräq öja gidämän (Ko‘chatim oz qolsa-da, tezroq uyga ketaman) kabi.4.

Inkor bog‘lovchilari. Bu bog‘lovchilarni nä-nä vazifadosh birlklari (aslida yuklama) orqali hosil qilinadi. Bunda uyushiq bo‘lakli gaplar va bog‘langan qo‘shma gaplarni yuzaga keltirib, ularning kesimi tasdiqni ifodalaydi: Hə bir büyürän işini edädi, nä özinnän vilip bir iş edädi. (Na bir buyurgan ishingni qiladi, na o‘zidan bilib bir ish qiladi) kabi.

Ergashtiruvchi bog‘lovchilar. Shevada ergashtiruvchi bog‘lovchilar adabiy tildagi kabi faol qo‘llanmasa-da, ba’zi so‘zlashuv jarayonlarida duch kelinadi. Bu bog‘lovchilar asosan ergashgan qo‘shma gaplar tarkibidagi ergash gaplarni bosh gapga bog‘lash uchun ishlatiladi. Shevada çünki, negäki, sevebi, şünin üçün, täki, şininçin, ağär, diyip ( māvādā// navāda, -sa, -sä kabi ergashtiruvchi bog‘lovchilar ishlatiladi:

1. Sabab bog‘lovchilari. Shevada sabab bog‘lovchiları çünki, sevebi, şünin üçün, şininçin ergash gaplarni bosh gapga bog‘lab, sabab-natiya ma’nolarini anglatadi: ömrüm miynättä ötti, çünki perzentlärim biräva där qälmasın didim (Umrim mehnatda o‘tdi, chunki farzandlarım birovga muhtoj bo‘lmisin dedim).



Gežä işa bärüp bilmädim, sevebi dävlenäm götärüp mazäm bölmadi (Kecha ishga chıqa olmadim, sababi qon bosimim ko'tarilib mazam bo'lmadi). Enä men şı yil oqışa girişim keräk, şünin üçün meña oydagı xemma işiettirmänlär (Ona men shu yil o'qishga kirishim kerak, shuning uchun menga uydagı barcha ishni buyurmanglar). Mällara şı yil otim käm yiğdüm, şüninçin yüz āvüş yandaq sätip äldüm (Mollarga shu yil o't kam hozirladim, shuning uchun yuz g'aram yantoq sotib oldim) kabi. 2. Shart bog'lovchiları. Buxoro o'g'uz shevalarida shart bog'lovchiları ägär, ägärdä, māvādā// navāda, -sa, -sä shart va to'siqsiz ergash gaplarning bosh gapga bo'lgan munosabatidagi shartni, shuningdek, birga to'siqsizlik ma'nolarini yuzaga keltiradi: Ägär mällar şünney gidışdä köpäysä, iki yildä māşin minän (Agar mollar shunday tarzda ko'paysa, ikki yilda mashina minaman). Ägärdä men bilä öžäşiversä, bütinley işdän gidän (Agarda men bilan o'chakishaversa, butunlay ishdan ketaman). Seni māvādā duxtırda görmänmittim, gözimä tānişdey görünilip ötipilipsin (Seni mabodo kasalxonada ko'rmaganmidim, ko'zimga tanishday ko'rinishib o'tiribsan). Ba:r yaxşı olsa , meva-çevayäm zār oladi (Bahor yaxshi kelsa, meva-cheva ham zo'r bo'ladi). Aydän ādamim yānimda qālsa, meyli men xemma işi bázärän (Aytgan odamim yonimda qolsa, mayli men hamma ishni bajaraman) kabi.

3. O'xshatish bog'lovchiları. Bu bog'lovchilar göjä, göjäki bosh gapda anglatgan fikrni ergash gapdagı fikr bilan qiyoslaydi: Beçomin baxtinnan yürägim yārilžäq, göjämennän baxtlı ādam jöy (Bolamning baxtidan yuragim yorilmoqchi, go'yo mendan baxtli odam yo'q). Özinnän zār ādam yoğ, göyäki dünyani özinçä ovşarda-qovşar etžäqdey görsätäsin (O'zingdan zo'r odam yo'q, go'yoki dunyonı o'zingcha ag'dar-to'ntar qilguday qilib ko'rsatasan) kabi.

4. Aniqlov bog'lovchiları. Bu bog'lovchilar yöniki, -ki (-gin) aniqlov bog'lovchiları ergash gaplarni bosh gapga bog'lash uchun ishlatilib, bosh gapda ifodalangan fikrni aniqlab, izohlab ko'rsatadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, -ki bog'lovchisi fors-tojik tilidan o'zlashgan bo'lsa, -kim asl turkiycha bog'lovchi hisoblanadi: Silärä yāniki gäpi aydilar, şüna qarap teyyārgarlıklarıri edäverinlär (Sizlarga ya'niki gapni aytdilar, shunga qarab, tayyorgarliklaringni qilavinginglar). Mevälär şündäjkin, qarasan, nesin ādan hasili ālasin (Mevalar shundaykim, parvarish qilsang, nasib qilgan hosilni olasan) kabi.

5. Maqsad bog'lovchisi. Shevada təki bog'lovchisi qo'shma gap tarkibidagi maqsad ma'nosi ifodalangan ergash gapni bosh gap bilan bog'laydi. Maqsadni bildirgan ergash gapning kesimi, odatda, fe'lning buyruq-istak maylida qo'llanadi: Öğlim edän yaxşılıqlarıñ üçin ra:mat, täki dunyādürinçä dür (O'g'lim qilgan yaxshiliklaring uchun rahmat, toki dunyo turguncha tur) kabi.Shuningdek, dijip (deb



)so‘zi bog‘lovchi vazifasida kelganda, ergash gaplarning ba’zilarini (shart, maqsad, sabab) bosh gapga bog‘laydi: Bügin yāğış yāğey dijip, bāzāra gitmädim (Bugun yomg‘ir yog‘adi deb, bozorga ketmadim) kabi. “Bog‘lovchi vazifasidagi deb aniqlik maylidagi fe’llardan keyin kelsa, aniqlik yoki sabab ma’nolarini anglatadi. Bog‘lovchi vazifasidagi deb buyruqva istak fe’llaridan so‘ng kelganda esa maqsad ma’nosini anglatadi”: Beçalarilim öqïşa gïrsin dijip, on yildän bïri begäna ellärdä işläp yüräptim (Bolalarim o‘qishga kïrsin deb, o‘n yildan buyon begona yurtlarda ishlab yuribman) kabi.

Ko‘makchilar.Ko‘makchilar o‘ziga xos xususiyatlari bilan adabiy tildagi (-y) farq qiladi: bilan-manan, marman holatida faol qo‘llanadi - ishlatiladi: kunъ тънен тъшледъу - kun bilan ishladik. Uchun ko‘makchisi shevada yuchun formasida ishlatiladi: meniyuchun ishläsän ishlämä - meni uchun ishlama.

säyin - adabiy tildagi kabi: kunsəynъ yaxshi böläpti - kun sayin yaxshi bo‘lyapti.

Beri, baqa, bujān, bāshlap, keyin, ilgari, burun, avval, āldin, qarab, qaraganda, qadar, uchun, bilan (bilən,mnäm, manan,man, män, mam, mäm) kabi ko‘makchilar shevalarda faol ishlatiladi. Shevalarda modal va taqlid so‘zlar ham qo‘llanadi. Ular adabiy tildagi kabi holatlarda ishlatiladi.

Hozirgacha shevalar morfologiyasining ancha materiallarl to‘plab o‘rganilgan. Shu hol ham o‘zbek shevalari morfologiyasini organish ancha bahsli va murakkab ekanligini ko‘rsatib turibdi1. Yuqoridagilarni e‘tiborga olib, xulosa qilinadigan bo‘lsa, hali bu sohada, ya’ni o‘zbek shevalari morfologiyasida ko‘p ilmiy ishlarni qilish mumkin.

Aytganimizdek ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklamalar hozirgi o‘zbek adabiy tiliagisi bilan fonetik jihatidan farq qiladi. Dealektalogik lahja va shevalarda ularning qo‘llanilishi uslubiyatiga xosdir.Chunki bazi bir hududlara farqli boshqalariga nisbatan. Ham adabiy til shevadan oziqlanadi, agarda shu holat amalga oshmasa til o’ladi.

Yuklamalar.Shevallarda qo‘llaniladigan -mi, -chi, -n, -ja, ham yuklamalari shaklida ham bo‘ladi. Ular ma’no jihatidan adabiy tildagidek ko‘rinishlarga ega bo‘lsa ham, shaklan farqlidir: -a,-ä yuklamasi istak, qistashni ifodalaydi: barasan-a, kesan- a

-či yuklamasi -a,-ä yuklamasiga ma’no jihatidan yaqin uşaj-či,  
-nä,-nä yuklamasi ikki xil so‘roq ma’nosini ifodalaydi:

a)adabiy tildagi -mi yuklamasi vazifasida keldi: sänäm a:damna,ä:taq ba:zarin kadi na?



b)adabiy tildagi -chi so'roq yuklamasi vazifasini bajaradi:özin kapsa ,ma:ši:na na? Va shunga o'xshash . bo'g'lovchi, ko'makchi, yuklamalar adabiy bo'yoqlarni ham beradi. Faqatgina shevada qo'llanibgina qolmasdan adabiy asarlarda sheva muhitini shakllantirish uchun qo'llaniladi.

**Adabiyotlar:**

- 1.Reshetov V V, Shoabdurahmonov Sh . “O‘zbek dialektologiyasi”, Toshkent, “O‘qituvchi”,1978- yil
- 2.Mirzayev M M , “O‘zbek tilining Buxoro guruh shevalari” ,Toshkent, 1969 -yil.
- 3.Ashirboyev S, “O‘zbek dialektologiyasi”Toshkent, 2000 -y / ma’ruza matni/
- 3.Ashirboyev S, “O‘zbek dialektologiyasi”Toshkent, “ Nodirabegim” , 2021.
- 4.Rajabov N “O‘zbek shevashunosligi” Toshkent, “O‘qituvchi” 1996 yil.



## OTLARDA TUR-JINS MUNOSABATINING IFODALANISH

*Termiz davlat universiteti talabasi  
Xudoyqulova Iroda Panji qizi  
Ilmiy rahbar: D.Ergasheva*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada otlarda uchraydigan tur ( giponim) jins ( gepironim) pog'anali graduonimik munosabatlar ot so'z turkumi misolida ochib berilgan va ularning farqli jihatlari ko'rsatilib o'tilgan .

**Kalit so'zlar:** LMG , partonimik , giponimik munosabat , giponimiya , geponim, geperonim , Layanz , R. Safarova , integral , implist , graduonimiya.

Muayyan ot LMG lari nisbatan barqaror va o'ta keng deyarli cheklanmagan va o'zgaruvchan qurshovdan iborat . LMG lar markazidagi leksemalar o'zaro giponimik , partonimik ,graduonimik munosabatlarda yashaydi .

Tilshunoslikda lisoniy birlikning butun bo'lak munosabati Partonimik (part-qism bo'lak ) tur- jins munosabati .Giponimik munosabat deyiladi .

Giponimiya , giponim hamda giperonim atamalari dastavval 1968- yilda ingliz tilshunosi Layanz tomonidan qo'llanilgan . shundan so'ng Giponomiya haqidagi dastlabki ilmiy axbarotlar yuzaga kela boshlagan . O'zbek tilshunosligida tilshunos olma R. Safarova bu ma'noviy munosabatni o'rganib chiqqan .Giponimiya lug'at boyligidadagi leksemalarninig pog'anali (ieararxik) aloqasidan kelib chiqadigan ma'no munosabatlari . Bunday munosabatlarining mohiyati shundaki , torroq tushuncha yoki ma'no ifodalaydigan leksemalar kengroq tushuncha yoki ma'no ifodalaydigan leksemalar bilan tur (giponim) va jins (geperonim) aloqasida bo'ladi bunday aloqa birlashtiruvchi (integral) semalar orqali amalga oshadi . Masalan : atirgul leksemasining ma'nosи, gul leksemasining ma'no tarkibiga it leksemaning ma'nosи hayvon leksemasining ma'no tarkibiga kiradi . Bunday pog'onali bosqichma-bosqich munosabat ayniqsa u yoki bu fanning terminologik tizimida keng tarqalgan .

Giponimik munosabatda giperonim (tur) va giponim (jins) farqlanadi.

Giperonim jins belgisini bildirgan predmetning nomini ifadalovchi ko'pgina ma'noni semantik jihatdan umumlashtiruvchi mikrosistemaning markaziy leksemasi dominantasi sifatida namoyon bo'lувчи lug'aviy birlik . giponim esa ma'lum jins turining nomini hamda o'zining sematik tarkibida impilst tarzda jins ma'nosini ifadalovchi semantik jihatdan geperonimga nisbatan boy bo'lgan lug'aviy birlik .



Giponim va geperonim orasidagi aloqa mantiqiy asosga ega . Bu esa obyektiv borliqdagi umumiylit tushunchasi bilan bog'liq . Masalan : ot hayvon geperonimi tur ma'nosini ifadalovchi leksema sifatida otning barcha turini ifadalovchi leksemalarni leksik – semantik munosabat asosida birlashtirib leksik semantic guruh hosil qiladi. Shu boisdan ot leksemasi giperonim sifatida giponimi bilan leksik- semantic aloqaga kirisha oladi . Masalan : ot-qulun , ot-toychoq , ot- g'o'nan, ot- do'nan , ot – pishti .

Geperonim jins belgisini bildirgan predmetning nomini ifadalovchi ko'pgina ma'noni semantik jihatdan umumlashtiruvchi mikrotizimning markaziy leksemasini dominantasi sifatida namayon bo'lувчи lug'aviy birlik deb aytib o'tdik . Endi geperonimik jins munosabatini hayvonlar misolida ko'rib chiqsak :

Otning erkagi – ayg'ir ,

urg'ochisi -baytal.

Sigirning erkagi- buqa ,

Urg'ochisi -g'unajin .

Echkining erkagi -taka ,

Urg'ochisi- echki .

Qo'yning erkagi- qo'chqor ,

Urg'ochisi- qo'y .

Itning erkagi -it ,

urg'ochisi – qanjiq .

Eshakning erkagi – xangi ,

urg'ochisi – eshak .

Tovuqning erkagi -xo'roz ,

Urg'ochisi -tovuq .

CHo'chqanening erkagi – qobon ,

Urg'ochisi – megajin .

Tilshunosligimizdagи dolzarb masalalardan yana biri bu -Graduonimiya .

Graduonimiya - darajalanish so'zini tilshunoslik atama sifatida ham R Safarova va "Sistem leksikologiya" mualliflari tomonidan qo'llanilgan .

Graduonimiya ( grekcha graditio – ko'tarilish o'sish onymo "nom" lug'aviy birliklar o'zaro ma'noviy munosabatga ko'ra ma'lum bir darajalanish qaatorini hosil qiladi . Lug'aviy graduonmiyaning mohiyati bir necha so'zning ma'lum bir belgining oz- ko'pligiga qarab lig'aviy – ma'noviy qatorda tuzilishida hosil bo'ladi.bunga misol qilib quydagilarmi keltirishimiz mumkin .

Polapon-jo'ja -tullak -tovuq yoki xo'roz



Buzoq -g'unajin- xo'kiz yoki sigir  
Uloq – taka – yoki sirka  
Qo'zichoq -qo'chqor yoki qo'y  
Kundung -xo'tik -xangi yoki eshak  
Xumpar -mov- mushuk  
Jish – qopon -yoki megajin

Graduonimik ( pog'anali ) munosabatni asarlarda ham uchratishimiz mumkin : jumladan Urg'ochi bo'ri Akbarga tepadan qulagan toshlar va qor uyumlaridan cho'chib , o'zini orqaga oldi , qorong'I ung'ir sari tesarildi , yelkasidagi yollari tikayib ,ko'zlari g'ira- shirada vahshiyona o't sochib , qanday balo kelmasin unga qarshi sapchishga hozirlanib turdi. CH. Aytmatov "Qiyomat " romani) (1-bet ) Akbarning to'dasiga hammasi bu yerdan barilla ko'rinish turardi. Yaratilganlaridan beri hammalari bir-birlariga o'xhash bo'ksalari oq , yelkalari malla kiyiklarning son -sanoqsiz podalari xavf-xatardan xoli keng jing'ilzor vodiyda yangi tushgan qor ostidagi erman , shovoqlarini ishtaha bilan chimdib yurishardi. CH. Aytmatov "Qiyomat" romani ) (12-bet) Adirlarda qo'y boqib , nay chaldim . nafasim yetmay qoldi. Shunda , eski bir do'mira topdim. Do'mbiramni sayratdim , bepayon adirlar , yoyilib o'tlayotgan qo'ylar , cho'qqilar uchida uzmay chug'irlayotgan qushlar , pag'a-pag'a bulutlarga qarab doston aytdim . T. Murod " Ot kishnagan oqshom " Men ikki kun ot sayladim. Oboqli dashti gala-gala ot ! Dasht changitib chopib yuribdi ! Bir yashar qulunlar , uch yashar toydar , to'rt yashar g'o'nonlar , besh yashar do'nanlar ! Sag'risiga uy tiksa bo'ladigan baytallar ! Haybatli ayg'irlar! ... (TMurod "Ot kishnagan oqshom " ) Shu tut tagida bir oppoq it supurgi ustida uxlاب yotibdi . Kichkinagina belida belbog'dek ikkita -biri qora ,biri jigarrang chizig'i bor. Kimdir ataylab bo'yab qo'yganga o'xshab ko'rindi . Tumshug'I bilan ikki ko'zi qob -qora . Bir ko'zining tepasida to'mtoq qoshi ham bor . U kampirning oyog' tovushidan erinibgina ko'zini ochdi-yu , chala yarim kerishib , yana uyquga ketdi . ( S. Ahmad " Qora ko"z majnun " ) (89-bet) O'rmon etagida esa to'qqizta biya, to'qqizta ho'kiz , to'qqizta to'qqizlik qo'y qurbanlik uchun hozirlanib qo'ygandi .CH. Aytmatov " Oq kema " ) (54- bet) Cho'tir Baymoq kampir qayrilib qaradi- yu , hayratda qoldi : qarshisida g'aroyib ona bug'u turardi . Uning yirik- yirik ko'zlari ta'nali va g'amgin boqardi. U sutdek oq qorni bo'taloqning yungidek qo'ng'ir yung bilan qoplangan . SHoxlari bo'lsa go'zallik timsoli : serbutoq , go'yo kuzgi daraxtning bir bo'lak shoxi . Yelini emizikli ayolning kp'kragidek top-toza va silliq . ( CH.Aytmatov "Oq kema ) 59-bet) Mevalar pishdi . Qo'zilar to'qli bo'ldi . ularni alohida otarlarga – to'qlilarni alohida, to'daga ayirishdi . (CH. Aytmatov "Oq krma" ) (75-bet) Naq uning



ro'parasida narigi qirg'oqda , suvda uchta bug'u turardi . Haqiqiy bug'ular . Tirik. Ular suv ichgani kelgan endi tashnalikni qondirganga o'xshardi. Bittasi eng katta shoxlisi yana suvgaga boshini egib suv semirar ekan , suvgaga go'yo shoxlarini oynada ko'rmoqchi bo'lib tikilayotgandek tuyulardi . U qo'ng'ir tusli , ko'krakdor va kuchli edi . Boshini silkitganda yungli oqish labidan tomchilar sachrab tushdi .Erkak bug'u quloqlarini qimirlatib bolaga razm soldi.

Lekin hammasidan ham ko'ra mayda shoxli , ikki biqini do'paygan oq bug'u bolaga ko'proq tikildi. Uning shoxlari kaltaroq , lekin juda chiroyli , xuddi SHoxdor ona bug'uning o'zginasi edi . ko'zlari shahlo ,tip-tiniq . O'zi esa har yili bittadan qulunlaydigan qomatdor biyaga o'xshaydi. SHoxdor ona bug'u bu hum kalla , shalpanq quloq Bolani qayerdadir ko'rganini eslayotganday , unga ko'z uzmay qarab turardi. Burnidan yengil hovur ko'tarildi. Uning yonginasida shoxsiz bugucha orqasini ugirib tolning novdasini kemirardi . Uning hech nima bilan ishi yo'q. Semiz g'ayratli quvnoq . U birdan novda kemirishni qo'yidida ,dikirlab yelkasi bilan ona bug'iga turtinib ketdi va uning atrofida o'ynoqlab , erkalana boshladi. o'zining shoxsiz boshini SHoxdor ona bug'uning biqiniga ishqaladi . SHoxdor ona bug'u bo'lsa hamon bolaga tikilib turardi . (CH. Aytmatov "Oq kema " ) (98-bet)

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. R. Sayfullayeva , B. Mengliyev , G. Boqiyeva , M.Qurbanova , Z. Yunosova , M. Abuzalova " Hozirgi o'zbek adabiy tili " – Toshkent. 2009
- 2.R. Safarova "Leksik -semantik munosabatlarning turlari". -Toshkent "O'qituvchi ". 1996 .
3. Latffulayeva D, Davlatova R, Saparniyozova M "Hozirgi o'zbek adabiy tili ". O'quv qo'llanma. – T.: 2018
4. Rahimov S , Umurqulov B " Hozirgi o'zbek adabiy tili" , Darslik T. : O'qituvchi 2003
5. Mengliyev B " Hozirgi adabiy tili Darslik.- T .: Tafakkur bo'stoni 2018
6. Jamalxonov H " Hozirgi o'zbek adabiy tili " Darslik T. :O'ZME 2013
- 7.Ne'matov H. va b. O'zbek tili struktural sintaksisi. -T.: Universitet,
8. Sayfullayeva R., Mengliyev B. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -T., 2010. O`quv qo'llanma. O`zMU IK tas.
9. Mengliev B. O'zbek tilining struktur sintaksisi –Qarshi., 2003.
10. G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. -T.: 1988
- 11 Qurbonova M. Hozirgi zamon o'zbek tili. -T., 2002.
12. O'zbek tili grammatikasi. II tom. Sintaksis. – T.: Fan, 1975. – 548 b.
13. Bozorov O O'zbek tilida darajalanish T. : 1997
- 14.Orifjonova Sh O'zbek tilida lug'aviy graduonimiya T .: 1996
- 15.Rahmonov G' O'zbek tilida lug'aviy sinonimiya va graduonimiyaning o'zaro munosabati. T.: Farg'ona 2018.
- 16.Aytmatov "Qiyomat" romani . – T.- Adabiyot va san'at nashriyoti . 1989
- 17.CH. Aytmatov " Oq kema" qissa A. Rashidov tarjimasi
- 18.T. Murod " Ot kishnagan oqshom "
- 19.S. Ahmad " Qorako'z majnun"- T.- O'zbekiston 2013



## AGRAR MUNOSABATLAR VA AGROBIZNES

*Urinboyeva Yulduz Pirnazarovna*

*i.f.f.dok., dotsent*

*Umurzoqov Alisher Sahobiddin o'g'li*

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada agrar munosabatlar va agro biznes haqida ma'lumot va unga mos ravishda krasvord tuzilgan.

**Аннотация:** В данной статье собрана информация об аграрных отношениях и агробизнесе и соответственно создан кроссворд.

**Annotation:** This article contains information about agrarian relations and agro-business, and a crossword puzzle is created accordingly.

**Kalit so'zlar:** Agrar munosabatlarning iqtisodiy mazmuni, Yerdan foydalanish, Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish

**Ключевые слова:** Экономическое содержание аграрных отношений, Землепользование, Производство сельскохозяйственной продукции.

**Key words:** Economic content of agrarian relations, Land use, Production of agricultural products

Agrar munosabatlarning iqtisodiy mazmuni. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishining o'ziga xos xususiyatlari. Agrar sohada ishlab chiqarish ko'p jihatdan yer bilan bog'liq bo'ladi. Yerga egalik qilish, tasarruf etish va undan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar agrar munosabatlar deyiladi. Qishloq xo'jaligida takror ishlab chiqarishning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, bu yerda ishlab chiqarish jarayoni bevosita tirik mavjudotlar-yer, o'simlik, chorva mollari bilan bog'liq bo'ladi va tabiiy qonunlar iqtisodiy qonunlar bilan bog'lanib ketadi. Bunda yer mehnat vositasi va mehnat predmeti sifatida qatnashadi. Yerning boshqa ishlab chiqarish vositalaridan farqi shundaki, undan foydalanish jarayonida u eyilmaydi, eskirmaydi. Aksincha, agar undan to'g'ri foydalanilsa, uning unumdarligi oshib boradi. Yerning hosil berish qobiliyatiga tuproq unumdarligi deyiladi. U tabiiy yoki iqtisodiy bo'lishi mumkin. Uzoq yillar davomida kishilarning hech qanday aralashuviziz, tabiiy o'zgarishlar natijasida yerning ustki qatlamida o'simlik oziqlanishi mumkin bo'lgan turli moddalarning vujudga kelishi yerning tabiiy unumdarligi deyiladi. Agar tuproq unumdarligi kishilarning tabiatga ta'siri natijasida, ya'ni tuproq tarkibi vadehqonchilik usullarini yaxshilash sun'iy yo'l bilan,



yerni organik va kimyoviy o‘g‘itlash, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash, ilmiy asoslangan sug‘orish, irrigatsiya va melioratsiya kabi ishlab chiqarish usullarini joriy qilish hamda boshqa shu kabi yo‘llar bilan amalga oshirilsa, bu iqtisodiy unumdorlikni tashkil qiladi. Yerdan olinadigan hosil ko‘proq mana shu yerning tuproq unumdorligini saqlash va uni oshirish, ya’ni insonning, aniqrog‘i ishchi kuchining, jonli mehnatning yerga faol ta’siri bilan bog‘liq bo‘ladi. Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari kabi qishloq xo‘jaligida ham ishlab chiqarish uning omillarining bevosita birikishi asosida sodir bo‘ladi. Bunda ishchi kuchi faol bo‘lib, asosiy o‘rinni egallaydi. Qishloq xo‘jalik korxonalarida yerdan boshqa barcha ishlab chiqarish vositalari xususiy, shaxsiy, jamoa mulk shaklida bo‘lishi mumkin. Bundan ulardan barcha jamiyat a’zolarining turmush darajasini yaxshilash yo‘lida foydalaniadi. Hozirgi vaqtda qishloq xo‘jaligida xo‘jalik yuritishning asosiy ko‘rinishlari fermer va dehqon xo‘jaligi shakllarida bo‘lib, ulardagi ishlab chiqarish jarayonlari turli iqlim va tuproq sharoitlarida olib boriladi. Qishloq xo‘jalik korxonalarida ham asosiy kapital turli xil traktorlar, mashinalar, transport vositalari, bino, inshootlar, ko‘p yillik daraxtlar, mahsuldor chorva mollari, shuningdek, xizmat muddati bir yildan ortiq bo‘lgan turli xil asbob-uskunalaridan tashkil topadi. Qishloq xo‘jaligida muhim ishlab chiqarish vositasi hisoblangan yer pul bilan bilan baholanmasligi, ya’ni qiymati o‘lchanmasligi tufayli, kapital qiymati tarkibida hisobga olinmaydi. Qishloq xo‘jaligida mavjud bo‘lgan asosiy kapitalning ayrim turlari, masalan, ko‘p yillik daraxtlar, mahsuldor chorva, ish hayvonlari, sug‘orish inshootlari va boshqalar sanoat tarmoqlarida bo‘lmaydi.

Bundan tashqari, ishlab chiqarish vositalari hisoblangan binolar, sug‘orish inshootlari va boshqalar ishlab chiqarish natijasini oshirishga faol ta’sir o‘tkazadi, sanoat tarmog‘ida esa ular birmuncha sustroq va bilvosa ta’sir o‘tkazadi. Shunga binoan qishloq xo‘jaligidan kapitalning tarkibida turli inshootlar, binolar, uzatma mexanizmlar va boshqalarning hissasi ko‘proq. Qishloq xo‘jaligida takror ishlab chiqarishni amalga oshirishda asosiy kapital ham qatnashadi. Qishloq xo‘jaligi korxonalarida aylanma kapital quyidagilardan tashkil topadi: yosh va boquvdagi hayvonlar, yem-xashak, urug‘lik fondlari, kimyoviy o‘g‘itlar, xizmat muddati bir yildan kam bo‘lgan turli xil ishlab chiqarish vositalari-inventarlar, yoqilg‘i va moylash materiallari va h.z. Ishlab chiqarish jarayoni qishloq xo‘jaligida aylanma kapitalning ko‘pgina qismi hali tugallanmagan ishlab chiqarish shaklida bo‘ladi. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va ularni sotish jarayonida kapital boshqa tarmoqlardagidek doiraviy aylanib turadi, ya’ni pul shaklidan ishlab chiqarish shakliga, undan tovar shakliga o‘tib, yana pul shakliga qaytib keladi. Shuni



ham ta'kidlash kerakki, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning miqdori yerning hosildorligi, uning sifatiga bevosita bog'liq bo'ladi. Yerning tabiiy, biologik, iqtisodiy va texnikaviy sharoitlarini yaxshilash ham qishloq xo'jaligida mavjud bo'lgan kapitalning doiraviy aylanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun bu omillardan to'laroq foydalanish har bir xo'jalikning muhim vazifasidir. Tabiiy omillar qishloq xo'jalik mahsulotining bevosita ko'payishiga ta'sir etsa ham, mahsulotning qiymatini oshirmaydi, ya'ni qiymat yarata olmaydi. Ishlab chiqarish tabiiy sharoitlar bilan bog'liq bo'lganligi uchun ham bu yerda ish davri va umumiyligi ishlab chiqarish vaqt o'rta sidagi muddat sanoatga nisbatan birmuncha uzoqroq bo'ladi. Masalan, qishloq xo'jaligida turli ekinlarni ekib bo'lingandan to' hosil yig'ishtirib olinguncha ishlab chiqarish vaqt davom etadi. Ish davri esa shu vaqt ichida qishloq xo'jalik ekinlari mehnat ta'sirida bo'lgan kunlar hisoblanadi. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish jarayoni mavsumiyligi bilan xususiyatlidir. Bu hol qishloq xo'jaligida mavjud bo'lgan mehnat vositalaridan, ya'ni kombayn, turli ekish asboblari va shu kabilardan foydalanish vaqtiga bevosita ta'sir o'tkazadi. Boshqacha qilib aytganda, bu

mehnat vositalaridan yilning ma'lum muddatlaridagina foydalaniladi, qolgan vaqtda esa ular bekor turadi. Shuning uchun ham qishloq xo'jaligida mehnatning kapital va energiya bilan qurollanish darajasi moddiy ishlab chiqarishning boshqa tarmoqlariga nisbatan yuqori bo'lishini taqozo qiladi, lekin bu yerda asosiy va aylanma kapital harakati sustroq. Bulardan tashqari qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va mehnat jarayonlarining mavsumiyligi sababli yil davomida aylanma mablag'larning sarfi bir me'yorda bo'lmaydi. Qish va yoz mavsumlarida xarajat qilinadigan aylanma mablag'lar tarkibida birmuncha tafovutlar mavjud. Masalan, qish mavsumida aylanma mablag'larning ko'pgina qismi, urug'lik, yem-xashak, turli ozuqalar ishlab chiqarish ehtiyyot qismi shaklida turadi, yoz faslida esa tugallanmagan ishlab chiqarish, texnikaning butlash qismlari, neft mahsulotlari va shu kabilarning hissasi ortib boradi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil qilishda yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlarni hisobga olib, ishni tashkil qilish uning samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga egadir. Bizning mamlakatimizda aholining nisbatan zichligi va qishloq xo'jaligiga yaroqli yerkarning cheklanganligini hisobga olib, yerga xususiy mulkchilik joriy qilinmagan, unga davlat mulki saqlanib qoldi. Lekin, bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqib, agrar islohotlar amalga oshirilmoqda va bu jarayon muvaffaqiyatli olib borilmoqda. O'zbekistonda yer davlat mulki hamda umummiliy boylik bo'lganligi sababli yerga bo'lgan mulkchilik, yerga egalik qilish va yerdan foydalanish masalalarini alohida ko'rib



chiqamiz. Yerga egalik jismoniy va huquqiy shaxslarning ma'lum yer uchastkasiga tarixan tarkibtopgan asoslardagi yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibdag'i egalik huquqini tan olishini bildiradi. Yerga egalik deganda avvalo yerga bo'lgan mulkchilik huquqi va uni iqtisodiy jihatdan foydalanish ko'zda tutiladi. Yerga egalikni yeri bo'lgan mulkdor, ya'ni davlat amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksida ta'kidlanganidek «Yer uchastkalari yuridik va jismoniy shaxslarga doimiy va muddatli egalik qilish hamda ulardan foydalanish uchun berilishi mumkin». Yerdan foydalanish huquqi-bu o'rnatilgan urf-odatlar yoki qonuniy tartibda undan foydalanishni bildiradi. Yerdan foydalanuvchi yer egasi bo'lishi shart emas. Real xo'jalik hayotida yerga egalik qilish va yerdan foydalanishni ko'pincha har xil jismoniy va huquqiy shaxslar, xususan hozir bizda asosan dehqon va fermer xo'jaliklari amalga oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida ham to'rt omil-yer, kapital, tadbirkorlik qobiliyati va ishchi kuchi qatnashib, bunda yer muhim ishlab chiqarish vositasi sifatida ishtirok etadi. Ammo biz avval aytganimizdek, ishlab chiqarish jarayonida hamma ishlab chiqarish vositalarini, jumladan, yerni harakatga keltirib, undan unumli foydalanadigan, uning iqtisodiy unumdorligini oshiradigan omil-inson omili, ya'ni tadbirkorlik qobiliyati va ishchi kuchidir.

### **Agrobiznes va uning turlari.**

Qishloq xo'jalik sohalaridagi tadbirkorlik faoliyati agrobiznes deyiladi. Agrobiznes tushunchasiga bevosita qishloq xo'jaligi sohasiga kirmaydigan, biroq u bilan bog'liq bo'lgan faoliyat bilan shug'ullanuvchi biznes turlari ham kiritiladi. Bu qishloq xo'jaligiga texnikaviy, ta'mirlash xizmatini ko'rsatish, uning mahsulotlarini qayta ishlash va iste'molchilarga yetkazib berish bilan bog'liq bo'lgan tadbirkorlik faoliyatidir. Qisqacha qilib aytganda, agrobiznes

agrosanoat integratsiyasi natijasida vujudga kelgan agrosanoat majmuasining barcha bo'g'inlarni qamrab oladi. Agrobiznes faoliyatining maqsadi iste'mol bozorini yetarli miqdorda sifatli qishloq xo'jalik mahsulotlari, sanoatni esa xomashyo bilan uzlusiz ta'minlash orqali foyda ko'rishdan iborat. Agrobiznesning asosiy shakli va birlamchi bo'g'ini fermer va dehqon xo'jaliklaridir. Chunki ular bevosita qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaradi. Bu xo'jaliklar o'z yerida yoki ijara olingan yerda ish yuritib, unda mulk egasi va ishlab chiqaruvchi fermerning o'zi va oila a'zolari hisoblanib, ayrim hollarda yollanma mehnatdan foydalanishi ham mumkin. Fermer xo'jaligining afzalligi shundan iboratki, unda mulk va mehnat bevosita qo'shiladi, bu esa ishlab chiqarishning yuqori samaradorligini ta'minlaydi. Fermer xo'jaliklari mustaqil tuzilma ekanligi sababli



o‘z faoliyatini bozor kon’yunkturasiga tez moslashtira oladi. Unda iqtisodiy manfaat va yakuniy natija uchun mas’uliyat bitta faoliyatning ikki tomonini tashkil qiladi. Agrobiznes turlaridan biri agrofirmalardir. Agrofirma ma’lum turdag'i qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish va uni yakuniy tovar darajasigacha qayta ishslashni qo‘sib olib boradigan korxonadir. Agrofirmalar qishloq xo‘jaligi vasanoatga xos resurslarni ishlatib, iste’molga tayyo bo‘lgan mahsulot yaratadi. Mazkur turdag'i korxonalar turli mulkchilikka asoslanishi, oilaviy xo‘jalik asosida ham tashkil topib, kichik korxonalar bilan birikishi mumkin. Agrosanoat birlashmalari va korxonalari agrobiznesning yangi turlaridir. Agrosanoat birlashmalari bir turdag'i mahsulot ishlab chiqaruvchi va unga bog‘liq ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi bir necha xo‘jalik hamda korxonalarining birlashmasidir. Ya’ni, bog‘dorchilik va uzumchilik bilan shug‘ullanuvchi xo‘jaliklar, ular mahsulotini qayta ishlovchi korxonalar, yetkazib beruvchi savdo-sotiq korxonalari bir texnologik jarayonga birlashib agrosanoat birlashmalarini tashkil qiladi. Birlashma ishtirokchilari ishlab chiqarish, xo‘jalik va moliyaviy mustaqilliklarini saqlab qolishi bilan birga, ularning umumiy mulki ham tarkib topib boradi. Agrosanoat korxonalari qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishslash va iste’molchilarga yetkazib berishgacha barcha texnologik jarayonga xizmat qiluvchi xo‘jalik va korxonalarining ma’lum bir hududida birlashuvidir. Agrobiznes turiga ko‘ngilli va paychilik mablag‘lari asosida tashkil qilingan turli xil uyushmalarini ham kiritish mumkin. Qishloq xo‘jaligidagi davlat korxonalari, jamoa xo‘jaliklari va shirkatlari, turli xil mulkchilik asosida tashkil qilingan qo‘sma korxonalar ham agrobiznes turi sifatida faoliyat ko‘rsatadi.

Shu sababli respublikamizda qishloq xo‘jaligini fermerlashtirish agrar islohotlarning tarkibiy qismi hisoblanadi. Respublikada bu jarayon zarar ko‘rib ishlash natijasida og‘ir ahvolga tushib qolgan davlat xo‘jaliklarining tarkibi fermer xo‘jaliklaridan iborat shirkatlar uyushmasiga aylantirish, mavjud davlat va jamoa xo‘jaliklari tarkibida ular resurslari hisobidan fermer xo‘jaliklari tashkil etish hamda dehqonlarning mol-mulkulari negizida dehqon

xo‘jaliklarini tarkib toptirish yo‘li bilan boradi. Fermer xo‘jaligining barcha tashkiliy shakllarining umumiy tomoni shundaki, ular ijaraqaga olingan davlat yerida faoliyat ko‘rsatadi. Fermer va dehqon xo‘jaliklarini tashkil qilish, rivojlantirish va ular faoliyatini tartibga solish O‘zbekiston Respublikasining «Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida»gi, «Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida»gi, «Qishloq xo‘jaligi kooperativi (shirkat xo‘jaligi) to‘g‘risida»gi qonunlarga hamda qishloq xo‘jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan boshqa huquqiy bitimlар va hukumat qarorlariga



asoslanadi. Bu qonuniy hujjatlarda fermerlarga ajratilgan yerlarni meros qilib qoldirish sharti bilan uzoq muddatli ijaraga olish huquqi mustahkamlab qo‘yildi. Shu bilan, birga bu xo‘jalik uchun yerlarning unumdorligini saqlash va oshirishda davlat tomonidan kafolatlar yaratish yo‘li bilan ularni himoyalash tizimi vujudga keltirildi. Shunday qilib fermer xo‘jaliklarini rivojlantirishni rag‘batlantirish uchun huquqiy va tashkiliy shart-sharoitlar yaratildi. Respublikada fermer xo‘jaliklari samarali ishlashi uchun zarur xizmat ko‘rsatuvchi infratuzilma-agrofirmalar, mashina-traktor parklari, ta’mirlash ustaxonalari, tayyorlov punktlari, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi kichik korxonalar tizimi shakllandi. Shu vazifani bajarish yo‘lida keyingi yillarda ham qishloq ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish hamda qishloq aholisini ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta’minalash dasturini amalga oshirish ishlari davom ettirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldaggi PF-4947-sonli «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmonining 3.3.-bandida qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish asosida: - tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini izchil

rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish; - paxta va boshoqli don ekiladigan maydonlarni qisqartirish, bo‘sagan erlarga kartoshka, sabzavot, ozuqa va yog‘ olinadigan ekinlarni ekish, shuningdek, yangi intensiv bog‘ va

uzumzorlarni joylashtirish hisobiga ekin maydonlarini yanada optimallashtirish; - fermer xo‘jaliklari, eng avvalo, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan bir qatorda, qayta ishlash, tayyorlash, saqlash, sotish, qurilish ishlari va xizmatlar ko‘rsatish bilan shug‘ullanayotgan ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarini rag‘batlantirish va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish; - qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqr qayta ishlash, yarim tayyor va tayyor oziq-ovqat hamda qadoqlash mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha eng zamonaviy yuqori texnologik asbob-uskunalar bilan jihozlangan yangi qayta ishlash korxonalarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish bo‘yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirish; - qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash, tashish va sotish, agrokimyo, moliyaviy va boshqa zamonaviy bozor xizmatlari ko‘rsatish infratuzilmasini yanada kengaytirish;


- sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash, melioratsiya va irrigatsiya ob’ektlari tarmoqlarini rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish sohasiga intensiv usullarni, eng avvalo, suv va resurslarni tejaydigan zamonaviy



agrotexnologiyalarni joriy etish, unumdarligi yuqori bo‘lgan qishloq xo‘jaligi texnikasidan foydalanish; - kasallik va zararkunandalarga chidamli, mahalliy eriqlim va ekologik sharoitlarga moslashgan qishloq xo‘jaligi ekinlarining yangi seleksiya navlarini hamda yuqori mahsuldorlikka ega hayvonot zotlarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish bo‘yicha ilmiytadqiqot ishlarini kengaytirish; - global iqlim o‘zgarishlari va Orol dengizi qurishining qishloq xo‘jaligi rivojlanishi hamda aholining hayot faoliyatiga salbiy ta’sirini yumshatish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar ko‘rish belgilangan.

Quyidagi tayyorlangan krasvord agrar munosabatlar va agrobiznes mavzusiga doir tuzilgan:

1. Yerga egalik huquqining iqtisodiy jihatdan ro’yobga chiqishi nima deyiladi?
2. Mavjud bo’lish sababi yer xo‘jalik obekti sifatida yuqoriroq ya’ni barcha yerkarning mustaqil tovar ishlab chiqaruvchilar tomonidan egallab olganligi nima deyiladi?
3. Qishloq xo‘jaligida mavjud bo‘lgan barcha ishlab chiqarish vositalar qanday tarkibni tashkil qiladi?
4. Nimadan foydalanish huquqi – bu o’rnatilgan urf-odatlar yoki qununiy tartibda undan foydalanishni bildiradi?
5. Yerga bo‘lgan mulkichilik monopoliyasi ijara berriladigan barcha yer uchastkalarining sifatidan qat’i nazar, yer egalariga .... renta deb atalgan rentani olishga imkon beradi?
6. Qanday renta tabiiy sharoit bilnan bevosita bog’liq?
7. ... integratsiyasi – qishloq xo‘jaligi bilan unga xizmat qiluvchi va mahsulotni istemolchilarga yetkazib beruvchi tutash tarmoqlar o’rtasida ishlab ishlab chiqarish rivojlanishi hamda ularning uzviy birikish jarayonidir?
8. Qishloq xo‘jalik sohalaridagi tadbirkorlik faoliyati nima?
9. Qanday infratuzilma – odamlar yashash va turmush faoliyatining umumiyligi sharoitlarini taminlaydi?
10. Kapitallashtirilgan renta nimaning narxi deyiladi?
11. Ma’lum turdagи qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish va uni pirovard mahsulot darajasigacha qayta ishlashni qo’shib olib boradigan korxona nima?
12. Irrigatsiya va melioratsiya kabi ishlab chiqarish usullarini joriy qilish hamda shu kabi yo’llar bilan amalga oshirilsa, bu qanday unumdarlikni tashkil qiladi?
13. Qanday xo‘jalikda ishlab chiqarish jarayoni mavsumiyligi bilan xususiyatlidir?



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Borisov E.F. Iqtisodiyot nazaryasi.Darslik. Qayta ishlangan va qo'shimcha 2-nashr -M.: Prospekt, 2005.-p.144-208-544/
2. Shishkin A.F. Iqtisodiyot nazaryasi.Darslik.2-kitob. M.:VLADOS, 1996- s. 154.
3. <https://worldlyjournals.com/index.php/IJSR/article/download/1302/1746>
4. <https://e-itt.uz/index.php/eitt/article/view/742>
5. <https://uz.socmedarch.org/ancient-farming-concepts-techniques-171877-4778>



TABLE OF CONTENTS / ОГЛАВЛЕНИЯ / MUNDARIJA

№	The subject of the article / Тема статьи / Maqola mavzusi	Page / Страница / Sahifa
1	RAQOBAT VA MONOPOLIYA	3
2	TALAB VA TAKLIF NAZARIYASI VA BOZOR MEHNATI	10
3	JANĞA JAĞÍMLÍ NAMALAR	16
4	OHANGLAR JIOLANGANDA	22
5	QUNÍN JOĞALTPAĞAN NAMALAR	28
6	AYOLLAR KO'YLAKLARI TASNIFI, MODEL TANLASH VA ULARNI ASOSLASH	34
7	EUKARIOT HUJAYRALARI TARKIBIY QISMI, ULARNING BIR BIRIDAN FARQI VA O'XSHASHLIKLLARI	38
8	EKIN EKISH MASHINALARINI AGREGATINI TUZISH VA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISHDA BAJARILADIAGN ISHLAR TARTIBI	42
9	RUL BOSHQARMASINING ASOSIY NOSOZLIKLLARI VA ULARGA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH	45
10	TRAKTOR DVIGATELLARINI ASOSIY MEXANIZMI VA TA'MINLASH TIZIMI	49
11	OTA-ONASIDAN MAHRUM BOLALARGA NEGA DAVLAT G'AMXO'RLIK QILISHI KERAK?	52
12	XI-XV ASRGA TEGISHLI "DEVONI LUG'OTIT TURK , "AT-TUHFATUZ ZAKIYYAT FILLUG'ATIT TURKIYA" YODGORLIKLLARI DAGI SO'ZLARNING QIYOSIY LEKSIK-SEMANTIK, MORFOLOGIK, FONETIK TAHLILI	58
13	ATOIY VA NAVOIY G'AZALLARIDAGI TUSHUNILISHI QIYIN BOLGAN SO'ZLARNING LEKSIKOLOGIK VA MORFOLOGIK TAHLILI	61
14	ESKI TURKIY ADABIY TIL DAVRI VA UNDA YARATILGAN ASARLAR VA LUG'ATLARNING TILIMIZDAGI O'RNI	65
15	XI-XIV ASRDA "DEVONU LUG'OTIT AT-TURK" ASARI VA BA'ZI TURKIY LUG'ATLARDA QO'LLANGAN KASB NOMLARINING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI	69
16	MEHNAT SHAROITI NOQULAY ISHLARDA BAND BO'LSANGIZ... HUQUQINGIZ BOR! NOQULAY SHAROITDA ISHLAGANINGIZ UCHUN "BONUS" MAVJUDLIGINI BILARMIDINGIZ?	72
17	INSONIYATGA QARSHI JINOYATLAR	77
18	TEACHING NEW WORDS TO YOUNG CHILDREN OF KINDERGARTEN AGE	84
19	THE CONCEPT OF MASS MEDIA DISCOURSE AND ITS FUNCTIONS	89



20	O'ZBEKISTONNING YEVROPA MAMLAQATLARI BILAN DIPLOMATIK MUNOSABATLARI TARIXI	94
21	O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA O'RTASIDAGI HAMKORLIK TARIXI	97
22	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MUSTAQILLIKKA ERISHILGANDAN SO'NG AMALGA OSHIRILGAN MUHIM ISLOHOTLAR	100
23	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MUSTAQILLIKKA ERISHILGANDAN SO'NG AMALGA OSHIRILGAN MUHIM ISLOHOTLAR	103
24	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INSON VA FUQAROLAR KONSTITUTSIYAVIY HUQLARI, ERKINLIKHLARI VA KAFOLATLARI	106
25	ANALYSIS OF WILLIAM SHAKESPEARE'S "ROMEO AND JULIET" AND GANJAVI'S "LAYLA VA MAJNUN"	114
26	DIFFICULTIES IN TEACHING READING TO YOUNG LEARNERS	119
27	THE STUDY OF THE IMPORTANCE OF LESSON PLANNING AND ORGANISING IN TEACHING EFL	122
28	IMPROVING SPEAKING SKILLS OF A1 AND A2 LEVEL STUDENTS	129
29	IMPROVING THE MEDICAL DOCUMENTATION PROCESS USING BLOCKCHAIN TECHNOLOGY: HOW TO ENSURE DATA INTEGRITY AND CONFIDENTIALITY	133
30	KATTALAR TA'LIMIDA PSIXOLOGIK XIZMATNI TASHKIL QILISH	142
31	INGLIZ TILINI O'QITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	147
32	ЛЕЧЕБНЫЕ СВОЙСТВА ШАФРАНА (CROCUS SATIVUS)	150
33	SYSTEMATIC ANALYSIS OF MEDICINAL PLANTS	157
34	MEDICINAL PROPERTIES OF GINGER (ZINGIBER OFFICINALE)	165
35	ASSESSMENT OF CLINICAL COMPLICATIONS IN PATIENTS WITH IMPLANT-SUPPORTED DENTURES	172
36	BOBORAHIM MASHRAB SHE'RIYATIDA TANOSUB SAN'ATI	177
37	DINIY USLUBDA RANGLARNING RAMZIY IFODASI	181
38	O'TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA IBORALARNING QO'LLANISHI	186
39	SHEVALARDA BOG'LOVCHI. KO'MAKCHI VA YUKLAMALARNING O'RNI	189
40	OTLARDA TUR-JINS MUNOSABATINING IFODALANISH	195
41	AGRAR MUNOSABATLAR VA AGROBIZNES	199

# лучшие интеллектуальные исследования

*Внимание! — ЛУЧШИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ* статьи и номера в юридическом, медицинском, социальном, научном журнале, информация в классах, права на информацию и правильные органы несут ответственность за точность данных органов.

**Главный редактор:**

**В. Л. Семёнов**

**Помощник редактора:**

**М. А. Борисов**

**Редактор дизайна:**

**З. Ш. Халиков**

— ЛУЧШИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ || всемирный научно-методический журнал,  
2024- годы. — город Кокан